

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA  
MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**QARSHIYEVA ZULFIYA SHUKUROVNA**

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDА  
REFLEKSIV POZITSIYANI  
RIVOJLANTIRISH**

**Monografiya**

**"SamDCHTI" nashriyoti  
Samarqand – 2023**

**UDK: 378.091.3:17:022.1**

Z.Sh.Qarshiyeva. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish . Monografiya. – “SamDCHTI” nashriyoti, 2023. 138 bet.

*Monografiyada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy axamiyatli sifatlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish va qullay olishi, o‘quv faoliyatini nazorat qilishi va baxolashi, shaxslararo munosabatni qaror toptirish, pedagogik bilimlarni samarali qullay olish, kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati jarayonida talabalarda ijobiy pedagogik munosabatni tarkib toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish haqida fikr yuritilgan.Unda innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish,pedagogik-psixologik fanlarning kasbiy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishga doir deontologik imkoniyatlarini aniqlashtirish keng yoritilgan.*

*Monografiyadan soha mutaxassislari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari,magistrleri foydalanishlari mumkin.*

**Mas’ul muharrir:**

M.M.Maxmudova, pedagogika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

Sh.Taylanova, pedagogika fanlari doktori, professor

J.Mannabov, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Monografiya Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi Ilmi-uslubiy kengashining 2023-yil 24-fevral 1-sonli yig‘ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.*

ISBN 978-9943-9518-9-1

© Qarshiyeva Zulfiya Shukurovna, 2023  
“SamDCHTI” nashriyoti, 2023

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>4</b>
<b>I BOB. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA REFLEKSIV POZITSIYANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ..</b>	
1.1-§. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	7
1.2-§. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	18
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	37
<b>II BOB. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA REFLEKSIV POZITSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.....</b>	
2.1-§. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlarning deontologik imkoniyatlari .....	39
2.2-§. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish modeli .....	52
2.3-§. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	69
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa .....	93
<b>III BOB. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA REFLEKSIV POZITSIYANI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI.....</b>	
3.1-§. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi .....	95
3.2-§. Tajriba-sinov ishlari natijalari va tahlili .....	104
Uchinchi bob bo'yicha xulosa .....	112
<b>Xulosa .....</b>	<b>114</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....</b>	<b>117</b>
<b>Illova.....</b>	<b>133</b>

## KIRISH

Jahonda bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishini tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratgan holda, voqyelik bilan o‘zaro munosabatlarning muayyan vaziyatlarida universal faoliyat usullaridan foydalanishga ongli munosabatni shakllantirish asosiy vazifa bo‘lib, u kasbiy tayyorgarlik jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va mazkur jarayonni tashkil etish shakl, metod va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Jadal modernizasiya sharoitida zamonaviy kasbiy-pedagogik ta’lim nafaqat o‘z kasbi va turdosh sohalarni yaxshi egallagan, balki doimiy ravishda kasbiy o‘sishga va mobillikka tayyor bo‘lgan mutaxassisni tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Taraqqiyparvar ta’lim masalasi birinchi galdeg'i vazifa deb hisoblansa, pedagogik tizimni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi yaxlit shaxsni rivojlantirish mexanizmi sifatida refleksiyaga bo‘lgan layoqatni shakllantirish g‘oyasini olg‘a suradi.

Dunyoda shaxsning qobiliyati, tayyorgarligi, malakasi, fikrlash darajasi, samarali pedagogik jarayonni tashkil etish usuli va refleksiv jarayonlarni faollashtiradigan vaziyat sifatida refleksiv pozitsiyani shakllantirish, vitagen ta’limga ustuvorlik berish asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ahamiyatli sifatlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish va qo‘llay olishi, o‘quv faoliyatini nazorat qilishi va baholashi, shaxslararo munosabatni qaror toptirish, pedagogik bilimlarni samarali qo‘llay olish, kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati jarayonida talabalarda ijobiy pedagogik munosabatni tarkib toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, innovasion yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, pedagogik-psixologik fanlarning kasbiy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishga doir deontologik imkoniyatlarini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarini joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integrasiyasini ta’minalash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim va fan sohasini rivojlantirishda “ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga

joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish” ijtimoiy sohaning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berilgan. Innovasion faoliyatni rivojlantirish sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda pozitsiyani rivojlantirish modelini ishlab chiqish, mazkur jarayonni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldaggi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018 yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020 yil 27-fevraldaggi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Respublikamizda bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyata tayyorlash, ularning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirish, ta’lim oluvchilarda refleksiv ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish, refleksiv yondashuv asosida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish masalalari N.Azizzoxjayeva, A.Akramov, S.Zoxidova, K.Inoqov, N.Muslimov, D.Xakimova, A.Xalikov, B.Xodjayev, N.Egamberdiyeva, E.G‘oziyev kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.Ajibayeva, Ye.Bagday, N.Bajenova, V.Bederxanova, T.Belozerseva, A.Belkin, T.Bondarenko, Ye.Yerina, Yu.Melexova, V.Metayeva, N.Saygushev, A.Xristeva, Ye.Yakovleva kabi olimlar tomonidan bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish, gumanitar fanlarni o‘rganish jarayonida

talabalarda refleksiv pozitsiyani shakllantirish, bo‘lajak pedagog-psixologlarni kasbiy faoliyatga refleksiv tayyorgarligini shakllantirish, pedagogning shaxsga yo‘naltirilgan pozitsiyasini rivojlantirish, o‘quvchilarda refleksiv pozitsiyani shakllantirishning pedagogik texnologiyasi, talabalarda refleksiv madaniyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, qo‘srimcha ta’lim muassasalari o‘quvchilarida refleksiv pozitsiyani shakllantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorijlik olimlardan A.Brokbank, S.Brukfeld, A.Grin, N.Xenke, Dj.Mun, S.Xol, F.Kortxagen, V.Risko, K.Zayfert, D.Shon kabi olimlar tomonidan oliy ta’limda refleksiv o‘qitishni tashkil etish, tanqidiy refleksiv o‘qituvchi shaxsini shakllantirish, amaliy faoliyatda refleksivlikning namoyon bo‘lishi, o‘qitishda refleksivlik va kasbiy rivojlanish, refleksiv amaliyatga o‘qituvchilarni tayyorlash imkoniyatlari, refleksiv fikrlash masalalari o‘rganilgan.

## **I BOB. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA REFLEKSIV POZITSIYANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida**

Oliy ta’lim muassasasi tarbiyaviy jarayoni – bu OTMning auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatida umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta’lim tashkilotining maxsus tarbiyaviy imkoniyatini maqsadga yo‘naltirilgan holda ro‘yobga chiqarilishidir. Mazkur jarayonning subyektlari ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilar bo‘lib, mazmuni esa ularning kasbiy yo‘naltirilgan faoliyatning umumiyligini turlaridagi (o‘quv, auditoriyadan tashqari, nazariy, ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy va boshqalar) hamkorligidir.

Ta’lim modernizasiyasi zamonaviy nazariya va amaliyot asosida tarbiyaning yangi modellarini yaratish jarayonidir. Zamonaviy ta’lim qadriyat jihatidan yaxlit voqyelik bo‘lib, bu inson shaxsiga samarali ta’sir ko‘rsatish natijalarida aks etadi. U madaniyatlarning uzatuvchisi bo‘lib qolmay, uni shakllantirish mexanizmiga aylana boradi.

Qadriyatlar bu umumiyligini maqsadlar va ularga erishish vositalari bo‘lib, bilimlar integrasiyasini ta’minlovchi fundamental me’yorlar vazifasini bajaradi, bu esa, individga hayotda muhim ahamiyat kasb etadigan holatlarda o‘zini tutishning maqbul shaklini tanlashga yordam beradi. Qadriyatlar – ta’lim oluvchi ichki salohiyatining individual rivojlanishi hamda yangi sifatlar va qobiliyatlarning shakllanishi ko‘rsatkichidir (inson faoliyatining ma’lum bir sohasida, xususan – kasbiy faoliyatda).

So‘nggi yillarda ta’lim tizimi, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi, ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi, ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati[1] kabilar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27-iyuldagagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtiropini yanada

kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg‘unlashtirish, professor-o‘qituvchilarning tarbiyaviy mas’uliyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uyg‘unligini amalda ta’minalash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta’minalash” [3] kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta’lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish; davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliy ta’lim muassasalari tomonidan televide niye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e’tiboriga yetkazilishini ta’minalash [4] kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Ayniqsa, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq qator muhim yo‘nalishlar belgilab berildi:

- davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

- yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog‘lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarni kamol toptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

- talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo‘lida birlashtirish

maqsadida ta’lim-tarbiyaning ta’sirchan usullari, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e’tiborga olish va tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash;

“Maktab – ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i” konsepsiysi doirasida oliy ta’lim muassasalarining umumta’lim maktablari bilan o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish [5] va h.k.

Shiddatli modernizasiya sharoitida zamonaviy kasbiy-pedagogik ta’lim nafaqat o‘z kasbi va turdosh sohalarni yaxshi egallagan, balki doimiy ravishda kasbiy o‘sishga va mobillikka tayyor bo‘lgan mutaxassisni tayyorlashga qaratilgan.

Jamiyatning dolzarb ehtiyojlariga e’tibor qaratgan holda, kasbiy ta’lim bo‘lajak mutaxassisni tayyorlashda ustuvor vazifani belgilab olishi, o‘zini va o‘z kasbiy faoliyatini yaxshilaydigan, uzlusiz ravishda mustaqil bilim olishga qodir bo‘lgan shaxsni rivojlantirish uchun sharoit yaratishni yetakchi vazifa sifatida ilgari surishi kerak, chunki faqat yuqori idroklik, operativ tarzda bilmalarini yangilashga, malaka va ko‘nikmalarini kengaytirishga tayyorligi bilan ajralib turadigan mutaxassislar o‘z kasbiy funksiyalarini bemalol amalga oshirishlari mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishini tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratgan holda, voqyelik bilan o‘zaro munosabatlarning muayyan vaziyatlarida universal faoliyat usullaridan foydalanishga ongli munosabati shakllantirish asosiy vazifa bo‘lib, u kasbiy tayyorgarlik jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ushbu jarayonni tashkil etish usullari, shakllari va vositalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Insonning o‘z faoliyati va “hayot sohibi” sifatida o‘ziga nisbatan ongli munosabati refleksiya orqali shakllantiriladi, chunki aynan refleksiya anglab yetiladigan voqyelikka nisbatan o‘z munosabatini identifikasiyalashga yordam beradi.

Ilg‘or ta’lim masalasi birinchi galdeg'i vazifa deb hisoblansa, pedagogik tizimni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi yaxlit shaxsni rivojlantirish mexanizmi sifatida refleksiyaga bo‘lgan layoqatni shakllantirish g‘oyasini olg‘a suradi. Olimlar B.Z.Vulfov va V.D.Ivanov ichki nazoratning roliga katta e’tibor qaratishadi: “o‘zini

tahlil qilish, kasbni va u bilan yashash usullarini ongli ravishda tanlash”, bu yerda refleksiya “o‘z o‘rniga munosib bo‘lishning faol omili”dir, chunki u raqobatbardoshlikning erkinlik, moslashuvchanlik, belgilangan maqsadlarga erishishda qat’iylik kabi muhim sifatlarini rag‘batlantiradi. [41; 616-b]

Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarkib toptirish shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishsiz amalga oshmaydi. Aniq pozitsiyaning yo‘qligi shaxsni ziddiyatlar va qiyinchiliklar bilan ro‘baru etish orqali o‘zining ichki imkoniyatlarini namoyon bo‘lishiga to‘sinqilik qiladi. [12; 284-b]

Shaxsning ongli mustaqil faoliyatga tayyorligining asosi bo‘lgan shaxsning pozitsiyasini shakllantirish masalalari ko‘plab olimlar tomonidan yoritilgan, xususan: hayotiy pozitsiya (K.A.Abuxanova, G.M.Kodjapirova, N.Ye.Shurkova, Sh.Z.Taylanova), subyektiv pozitsiya (G.M.Aksanova, A.G.Gogoberidze, S.A.Nelyubov, M.Maxmudova), pedagogik pozitsiya (I.A.Zimnyaya, A.K.Markova, V.A.Slastenin, N.Egamberdiyeva), refleksiv pozitsiya (T.A.Bondarenko, L.V.Yakovleva, A.V.Xristeva, Ye.L.Yerina, D.Xakimova va boshqalar).

Yuqoridagi ishlar tahlili refleksiv pozitsiya shaxsning boshqa barcha nuqtai nazarlarini shakllantirish uchun asosdir, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Shu munosabat bilan, bo‘lajak o‘qituvchining aynan ushbu shaxsiy-mustaqlil ta’limini shakllantirish jarayonini tahlil etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ushbu pedagogik hodisaning yagona aniq ta’rifi mavjud emas, degan xulosa qilish mumkin. Refleksiv pozitsiyaning mavjud ta’riflari ilmiy tadqiqotlarning mohiyatidan kelib chiqqan holda tavsiflangan.

G.P.Shedrovskiy birinchilardan bo‘lib “refleksiv pozitsiya” tushunchasini individ amalga oshirilayotgan faoliyatga nisbatan uni tahlil qilish va kelgusi faoliyat rejasini tuzib chiqish maqsadida “tashqi” pozitsiyani egallash zarurligini his qiladigan vaziyat sifatida talqin qilgan, bunda u refleksiv jarayonlarga asoslangan. G.P.Shedrovskiy insonning tashqi olamga nisbatan nuqtai nazariyani refleksiv pozitsiya deb hisoblagan. [129; 125-b]

Refleksiv pozitsiya muammosi bilan qator olimlar shug‘ullanishgan. Jumladan, T.A.Bondarenko[35; 23-b] refleksiv pozitsiyani shaxsning refleksiv madaniyatining komponenti deb hisoblaydi; L.V.Yakovleva[133; 22-b] refleksiv pozitsiyani bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-qadriyatli yo‘nalganligini shakllantirish omili deb belgilaydi; V.N.Belonogova[32; 25-b] refleksiv pozitsiyani maktab va oilaning

o‘zaro munosabatini insonparvarlashtirish jarayonining samaradorligi sharti, subyektning hayotiy voqyelikni anglashga, ularni hayot tajribasi asosida ko‘rsatmalar, qarashlar, tasavvurlar bilan bog‘lash, munosabatlarning ushbu tizimini yangi faoliyat usullarida namoyon etish layoqati sifatida ta’riflagan; V.A.Metayeva[82; 21-b] refleksiv pozitsiyani qadriyatli-irodaviy sohaning dinamik namoyon bo‘lishi sifatida izohlagan; A.V.Xristeva[125; 200-b] refleksiv pozitsiyani o‘qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy sifatida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy yetuklikka erishishga intilishi, boshqa subyektlarga shaxsiy-qadriyatli munosabati orqali tavsiflaydi; Ye.L.Yerina [54; 199-b] refleksiv pozitsiyani subyektning atrofdagi voqyelikni va o‘zini o‘zi anglashga tayyorligi, o‘zini o‘zi rivojlantirishga qaratilgan bo‘lajak ongli faoliyatga tayyorligi sifatida talqin etadi; T.V.Belozerseva[31; 23-b] esa refleksiv pozitsiyani “Men” shaxsiy obrazi, boshqa odamlarning obrazining yaxlit, integrativ xususiyati sifatida, inson dunyoqarashi, tamoyillarini belgilaydigan o‘zaro munosabatlarga doir barcha vaziyatlarni tahlil qilish deb hisoblagan; D.Xakimova refleksiv pozitsiyani o‘qituvchining o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tahlil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili sifatida baholagan. [122; 171-b]

V.V.Davidov refleksiv pozitsiyani subyektning fikrlash darajasi bilan bog‘lab izohlaydi va u individual ongni mustaqil bilish faoliyati vositalariga yo‘naltirish; boshqa insonning ichki dunyosi va uning harakatlarining sabablari haqida tasavvurni shakllantirish; vaziyatni tushunish qobiliyatini o‘z ichiga olishini ta’kidlab o‘tgan. [48; 541-b]

Ilmiy ishlar tahlillari natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, aksariyat tadqiqotchilar shaxsning qobiliyati, tayyorgarligi, malakasi, fikrlash darajasi, samarali pedagogik jarayonni tashkil etish usuli va refleksiv jarayonlarni faollashtiradigan vaziyat sifatida refleksiv pozitsiyani shakllantirish zarurligini ta’kidlab o‘tishadi. Refleksiv pozitsiya tushunchasining izohlari, albatta ko‘rib chiqilayotgan hodisaning muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Ammo bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari tufayli kasbiy tayyorgarlik subyekti sifatida o‘z shaxsiga nisbatan refleksiv pozitsiya tushunchasiga aniqlik kiritish kerak. Shu munosabat bilan bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasining aniq ta’rifini kelgusida shakllantirish maqsadida refleksiv pozitsiya tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab, “refleksiv pozitsiya” tushunchasini aniqlashtirish uchun uning tarkibiy asosi hisoblangan “refleksiv” va “pozitsiya” atamalariga aniqlik kiritish lozim.

Refleksiya muammosi turli soha vakillari tomonidan ilgari surilgan va uning rivojlanishida sifat o‘zgarishlari yuz bergan. “Refleksiya” tushunchasi fanning ko‘plab sohalarida ishlataladi, bu esa ushbu atama bilan bog‘liq hodisa mazmunining ko‘p ma’noli ekanligi bilan izohlanadi.

Refleksiya (lot.reflexio – ortga qaytish, aks etish). 1. Kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli; 2) fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish; 3) o‘zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun qoidalarini fikrlashga yo‘naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli; 4) o‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, xayol surish, fikr yurgizish, uni tahlil qilishga moyillikni anglatadi. [94; 510-b]

Ushbu atama birinchi marta falsafada amaliyot, predmetli moddiy dunyo, madaniyatni yoki kognitiv faoliyatni aks ettirish va o‘rganish; insonning ma’naviy dunyosining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan mustaqil harakatlari va ularning ko‘rinishlari, o‘zini o‘zi anglash faoliyatini tushunib yetishga qaratilgan ijtimoiy rivojlangan insonning nazariy faoliyatining shakli sifatida foydalana boshlangan. [117; 136-b]

Refleksiya falsafiy nuqtai nazardan tushunib yetish, ongning o‘zini, o‘z qobiliyatlarini, holatini va namoyon bo‘lishini ko‘z oldiga keltirish qobiliyatidir, [12; 284-b] “nafaqat shunchaki bilib olish, balki o‘zligini bilish qobiliyati; shunchaki bilish emas, balki o‘zing kimligingni bilishing zarurligi” (P.Teyyar de Sharden) [117; 136-b]tarzida ifoda etiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida uning tadqiqot mavzusi sifatida refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish pedagogik va psixologik adabiyotlarda “refleksiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Ko‘plab pedagogik tadqiqotlarda refleksiyani fikrlash, o‘z-o‘zini kuzatish, [95; 528-b] insonning o‘z e’tiqodlari va qadriyatli munosabatlarini yangicha tushunish, baholash va asoslash uchun o‘z tajribasini mantiqiy ifoda etish, “xulosa, umumlashma, analogiya, taqqoslash va baholash layoqati; [98; 512-b] o‘z harakatlarining keltirib chiqarayotgan asoslarga murojaat qilish, yangi vazifani bajarish sharoitida avval foydalanilgan vosita va usullarning yetarli emasligini

aniqlash hamda yangi bilimlarni izlashda muvaffaqiyatli harakatlanish imkonini bermaydigan mavjud bilim va ko‘nikmalar doirasidan chetga chiqish qobiliyati ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Psixologik tadqiqotlarda ko‘pincha refleksiya insonning tug‘ma qobiliyati deb hisoblanadi, u bilimlar, insonning o‘z ichki dunyosi va shaxslararo munosabatlardagi o‘rni, shuningdek, bilish va o‘zgartirish kiritishga asoslangan faoliyat shakllari va usullariga murojaat qilishda namoyon bo‘ladi; [112; 192-b] bundan tashqari, individning o‘z ichki dunyosiga, fikrlash tajribasiga, kechimlalar va faoliyatiga, boshqacha qilib aytganda, u ko‘rgan, eshitgan, o‘qigan, o‘ylagan, his qilgan barcha narsalarga murojaat qilishi, qanday qilib, nima sababdan, nima uchun u bunday ko‘radi, harakat qiladi, o‘laydi, his qiladi kabi savollarga javob izlashini talab etadi. [124; 314-b]

Tadqiqotmiz uchun Q.Inoqov tomonidan taklif etilgan refleksiya ta’rifi juda muhimdir: “refleksiya – bu insonning o‘z faoliyatini tasavvur etishi, o‘zining muvaffaqiyatlari va xatolarini ko‘rish, ularni to‘g‘rilash va shu tarzda madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish, dunyoda o‘z o‘rnini aniqlash, o‘z imkoniyatlarini bilish qobiliyati bo‘lib, bu esa qadr-qimmatga ega bo‘lgan erkin shaxsni kamol toptiradi”. [62; 142-b]

“Refleksiv pozitsiya”ning mohiyatini aniqlash uchun yana bir muhim bo‘lgan “pozitsiya” atamasi ham tahlil qilinishi talab etiladi.

Zamonaviy fanda “pozitsiya” tushunchasini talqin qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. “Pozitsiya” falsafa, psixologiya, pedagogikada tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Faylasuf-olimlar “pozitsiya” tushunchasini insonning hayotga bo‘lgan qarashi va uning jamiyatga bo‘lgan munosabatlarining o‘ziga xos tavsifi sifatida izohlashadi. [119; 383-b]

Psixolog-olimlar pozitsiyani voqyelikning ayrim jihatlariga nisbatan inson munosabatlarining barqaror tizimi, faoliyat uchun asos bo‘lgan, o‘ziga xos xulq-atvor va xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladigan kichik guruhlarning rolli-maqomli tuzilmasidagi individning nuqtai nazarining ajralmas, eng umumlashtirilgan tavsifi sifatida e’tirof etishadi.

Yana shuni ham alohida ta’kidlash mumkinki, pozitsiya – bu rivojlanayotgan qarashlar yig‘indisi bo‘lib, u mukammal holatda qarama-qarshi bo‘lmagan va nisbiy barqarorligi bilan ajralib turadi.

A.A.Akramov pozitsiyani shaxs munosabatlarining ko‘p qirrali tizimi (o‘z o‘ziga, jamiyatga, o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan jamoalarga, mehnatga), motivlar va ustakovkalar tizimi sifatida keng qamrovli va mantiqiy izohga ega, shaxs o‘z faoliyati jarayonida unga va ushbu

faoliyat yo‘naltirilgan maqsadlar va qadriyatlar tizimiga amal qilishi ekanligi bilan bog‘lab talqin qiladi. [18; 282-b]

V.N.Myasishev munosabatlarni obyektiv voqyelikning turli jixatlari bilan individual, tanlangan, ongli shaxsiy aloqalarning yaxlit tizimi sifatida belgilaydi, ushbu voqyelik shaxsiy tajribani ifodalaydi va ichki harakatlar va kechinmalarni aniqlaydi. [86; 363-b]

Shaxsga dinamik, ijtimoiy ta’sir ostidagi, o‘zgaruvchan shakllanuvchi individ sifatida qaraladi. Insonning voqyelikka bo‘lgan haqiqiy munosabati faqat ma’lum bir vaqtgacha bo‘lgan potensial xususiyatlardir. Ularning to‘liq namoyon bo‘lishi inson o‘zi uchun subyektiv ahamiyatga ega bo‘lgan vaziyatlarda harakat qilishni boshlaganda yuz beradi, shu bilan faoliyat va alohida harakatlarning individual xususiyatini belgilaydigan faol pozitsiyani namoyish etadi.

“Pozitsiya” tushunchasi bo‘yicha pedagogik va psixologik yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish “pozitsiya” va “faoliyat” tushunchalari o‘rtasidagi yaqin aloqa bor deb xulosa qilish huquqini beradi. Shunday qilib, “pozitsiya – bu insonning qadriyatları va uning tashqi namoyon bo‘lish sharoitlarini bog‘laydigan usul” bo‘lib, u insonning rivojlanishi hamda uning faoliyati taraqqiyotini belgilab beradi. [30; 200-b]

Agar inson muayyan qadriyatlarga ega bo‘lsa, u faoliyatdagi voqyelikka o‘z munosabatini ko‘rsatishga doimo tayyor bo‘ladi. Ushbu tayyorlik muayyan obyektlar va faoliyat sharoitlari inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga bog‘liq bo‘ladi: agar kishi o‘z xohish-istaklarini ifoda etishga maqsadlar va faoliyat vositalarini tanlashga tayyor bo‘lsa, u amalda o‘zi uchun muhim va qadrli bo‘lgan narsani himoya qilishga tayyor bo‘ladi. Binobarin, pozitsiya faqat faoliyatda, haqiqiy harakatda namoyon bo‘ladi. Uni amalga oshirish uchun usullar, vositalar, sharoitlar zarurdir.

Insoniy qadriyatlarni ro‘yobga chiqarish va uni isbotini topish, o‘z faoliyatini aniqlash va rivojlantirish pozitsiya orqali sodir bo‘ladi, u orqali inson o‘zini faoliyat subyekti sifatida namoyon qiladi.

Pozitsiya faoliyatning zaruriy sharti bo‘lib, u orqali amalga oshiriladi, “inson amalga oshirishga ikkilangan hatti-harakatlarni” aniqlab, faoliyatda aks ettiradi. Tadqiqotchilar asosan pozitsiyani insonning aynan faoliyatda namoyon bo‘ladigan real voqyelikning turli jihatlariga munosabati sifatida izohlaydilar.

Shunday qilib, pozitsiya munosabat sifatida insonning u yoki bu faoliyat yo‘nalishini tashkil qiladi va ta’minlaydi. Shuning uchun

faoliyatsiz pozitsiyani shakllantirish mumkin emas. Tanlov bu pozitsiya birligidir. U qadriyatli yo‘nalganlikka asoslangan bo‘lib, subyektning mustaqilligi bilan belgilanadi. Harakat esa, faoliyat birligidir. Aynan tanlov va harakat birligida pozitsiya namoyon bo‘ladi, u vaziyatni tushunish, qaror qabul qilish va zarur harakatlarni amalga oshirishni o‘zida birlashtiradi.

“Pozitsiya” tushunchasini tahlil qilib, biz shaxs pozitsiyasini faoliyatda namoyon bo‘ladigan voqyelikning turli jihatlariga munosabatning subyektning barqaror ongli tizimi ekanligi haqidagi xulosaga keldik.

Shuni ta’kidlash kerakki, subyekt tomonidan refleksiv qobiliyatlarining maqsadli va mustaqil ravishda namoyon bo‘lishi, shuningdek, refleksiv qobiliyatlardan foydalanish (voqyelikni turli xil holatlarida yaxlit samarali faoliyatni ta’minalash uchun) subyektning refleksiyaga ichki anglangan tarzdagi tayyorgarligi bo‘lganda namoyon bo‘ladi, refleksiv pozitsiya shaxsning o‘z faoliyatiga va o‘z-o‘ziga barqaror, yaxlit, ongli munosabatlar tizimini aks ettiradi, u shaxsiy tajribani shakllantirish va boyitishga yordam beradi.

Refleksiv pozitsiya har qanday faoliyat turida o‘zini namoyon qiladi va shunga mos ravishda, u shaxsning boshqa pozitsiyalarining tarkibiy qismi bo‘lib, fundamental asosini esa, shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirib borishi tashkil etadi.

“Refleksiya”, “pozitsiya” tushunchalarini tahlil etish asosida bo‘lajak o‘qituvchining “refleksiv pozitsiya” tushunchasiga quyidagicha aniqlik kiritildi: refleksiv pozitsiya bo‘lajak o‘qituvchi o‘z o‘zi, pedagoglik kasbi, pedagogik munosabatlar subyektlari, “Pedagogika” faniga shaxsiy nuqtai nazarini ifoda etishning ongli tizimi bo‘lib, uning refleksiv tajribasiga asoslanadi hamda boyib boradi.

## **1.2-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari**

Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish mazkur jarayonning psixologik-pedagogik xususiyatlariga aniqlik kiritishni taqozo etadi.

Refleksiyani o‘rganishning umumiylarini yaxlit konsepsiysi ham, uni tadqiq etishda yagona yondashuv ham mavjud emas. A.V.Karpovning fikricha, zamonaviy fonda refleksiyani o‘rganishning o‘n bitta yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin: faoliyatli, tafakkur psixologiyasi

kontekstida refleksiyani o‘rganish, kommunikativ jarayonlarni tashkil etishning refleksiv qonuniyatlarini o‘rganish, hamkorlikdagi faoliyat tarkibida refleksiv fenomenlarni tahlil qilish, pedagogik yo‘nalish, shaxsiyatli yo‘nalish, genetik yo‘nalish, “tizimli fikriy faoliyatli” yondashuv, refleksiv jarayonlarni tadqiq etishdagi metakognitiv paradigma, refleksiyani o‘zini o‘zi bilish va o‘zini o‘zi tushunishning fundamental mexanizmi sifatida o‘rganish va nihoyat, boshqaruv faoliyatining refleksiv qonuniyatları va boshqaruv faoliyati mexanizmi sifatida tadqiq etishdan iborat.

Zamonaviy psixologik lug‘atlarda refleksiyaning o‘zini o‘zi nazorat qilish va boshqarish jarayoni bilan bog‘liqligi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Yangi psixologik lug‘atda esa, (V.B.Shapar): “Psixik o‘zini o‘zi boshqarish – bu tizim faolligini boshqarish darajasining biri bo‘lib, borliqni aks ettirish va modellashtirish, jumladan refleksiya vositalarini qo‘llashda namoyon bo‘ladi” deb yozilgan. [128; 808-b]

Psixologiyaning zamonaviy lug‘atida (V.V. Yurchuk): “refleksiv-irodaviy boshqarishning modellari – kondisiyalari – omillari o‘zini o‘zi boshqarishning asosiy tarkibiy asoslaridan biri sifatida o‘zini o‘zi nazorat qilishga asoslanadi”, [131; 704-b] deb ta’riflangan.

M.K.Tutushkinaning fikricha esa, refleksiyanı o‘zini o‘zi boshqarishning eng muhim mexanizmlaridan biri deb hisoblash mumkin. “Refleksiya – shaxsning muloqot va faoliyatdagi o‘zini o‘zi nazorat qilish hamda o‘zini o‘zi boshqarish asosida yotuvchi dunyoqarash va aniq vaziyat o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash tamoyili va shaxsiy mazmunini aks ettirish mexanizmidir. Aynan refleksiya insonni lahzalik vaqt makonidan chiqarib, bo‘layotgan hodisalarini ongida aks ettirishga imkon beradi”. [99; 368-b]

O‘zini o‘zi bilish va tushunishning fundamental mexanizmi sifatida refleksiya V.V.Znakov ishlarida ham tadqiq etilgan. O‘zini o‘zi tushunishning natijasi “insonning o‘z fikrlari, kechinmalari, xulq-atvor motivlarini izohlashi; xatti-harakatlari mazmunini aniqlash ko‘nikmasi; xarakteri, dunyoqarashi, o‘ziga va boshqa insonlarga munosabati, ular uni qanday tushunishlari haqidagi savollarga javob bera olishidir”. [59; 18-28-b] A.G.Asmolova va V.P.Zinchenkolarning fikricha, “Refleksiya insonning o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘zini o‘zi mushohada qilib ko‘rish, o‘zi haqida qayta-qayta fikr yuritish qobiliyati sifatida o‘zini o‘zi anglash jarayonini faollashtiradi, “Men-konsepsiyasini” boyitadi hamda shaxsning o‘zini o‘zi takomillashtirishining muhim omili hisoblanadi”. Ong tarkibida, V.P.Zinchenko fikricha, ikkita: borliq (hayotiy, turmush)

va refleksiv qatlam mavjud. “Mazmunni anglash ularni subyektning motivlari, dunyodagi subyektiv refleksiyalangan holati bilan moslash jarayonida amalga oshiriladi”, ya’ni “ongning refleksiv qatlamida shaxsiyatli (maxsus) xususiyatga ega jarayonlar qayta aylantiriladi”. [60; 304-b]

Subyektning muammoli-nizoli vaziyatda ijodiy vaziflarni hal etishi faqatgina refleksiya yordami bilan, shaxsiyatli stereotiplarni qayta anglash, o’z shaxsini qayta tuzish orqali amalga oshiriladi (A.G.Asmolov). O’ziga nisbatan refleksiv maqomga ega bo‘lish o’ziga va uni o‘rab turgan borliqqa munosabatini qayta fikrlashni taqozo etadi.

Ko‘pchilik zamонави psixologik va pedagogik lug‘atlarda “refleksiya” tushunchasi mavjud. Masalan, V.P.Zinchenko va B.G.Meshyeryakovlar tahriri ostidagi psixologik lug‘atda refleksiya – bu “o‘zini anglash; o‘z xatti-harakatlari, xulq-atvori, nutqi, tajribasi, histuyg‘ulari, holati, qobiliyati, xarakteri va munosabatlarini tushunish, tahlil qilishga yo‘naltirilgan fikrlash (rasional) jarayonidir”. [25; 367-b]

V.B.Shapar tahriri ostidagi eng yangi psixologik lug‘atda esa, refleksianing nafaqat tafakkur bilan bog‘liqligi, shu bilan birga “qarama-qarshilik va shubhalarga to‘liqligi”, “o‘z psixik holatini tahlil qilish” ekanligi ham ta’kidlab o‘tilgan. Shu bilan birga refleksianing ikkinchi mazmuni ham keltiriladi. Unga ko‘ra, refleksiya “subyekt tomonidan qanday vositalar yordamida va nima uchun muloqotdagi sherigida u yoki bu taassurotni qoldira olganligini” o‘zaro tushunish mexanizmidir. [128; 808-b]

Amaliyotchi-psixolog S.Yu.Golovin lug‘atida “refleksiya” tushunchasining ikki xil mazmuni keltirilgan:

- o‘zini bilish jarayoni. Muallif refleksiyani psixik bilish jarayonlari bilan bog‘laydi – “o‘z ruhining faoliyatiga e’tiborni alohida yo‘naltirishni taqozo etadi”. Shu bilan birga muallif, refleksianing vujudga kelishini – “subyektning yetuklikka erishuvi” deb ta’riflab refleksiyani ontogenezda paydo bo‘lishiga urg‘u beradi.

- o‘zaro tushunish mexanizmi. Bu mazmun refleksianing o‘ziga o‘zi hisobot berish, psixik holatlarini tahlil qilishini ifodalaydi.[44; 257-b]

Pedagogik lug‘atlarda refleksiya “subyekt tomonidan hayotiy tajriba asosida o‘zining ichki psixik harakatlarini bilish jarayoni”, [78; 368-b] “yangi tushunishga o‘tish maqsadida o‘z tajribasi haqida mulohaza yuritish, o‘z e’tiqodi va qadriyatli munosabatini baholash hamda asoslash qobiliyati. O‘z ichiga xulosa chiqarish, umumlashtirish,

analogiya, taqqoslash va baholashni qamrab oladi”. [98; 512-b] Shunday qilib, pedagogik lug‘atlarda refleksiya shaxsning eng muhim sifati, deb ta’riflanadi.

V.P.Zinchenko va B.G.Meshyeryakovalarning ko‘rsatishicha, refleksiya “o‘zini o‘zi kuzatish, introspeksiya, o‘zini o‘zi anglash bilan tushunchali, prosessual va funksional bog‘langan” dir. [100; 404-b]

S.Yu.Golovin, V.B.Shaparlarning psixologiya lug‘atida introspeksiya “Men” psixikasini, psixik jarayonlari va faoliyatini subyektiv kuzatish orqali o‘zini o‘zi kuzatish metodi sifatida qaraladi. Mualliflar tomonidan o‘zini o‘zi kuzatishni introspeksiyadan farqlashadi. Introspeksiya, ushbu mualliflarning fikricha, subyektiv metod, o‘zini o‘zi kuzatish – obyektiv, birgalikda refleksiyyada to‘g‘ridan to‘g‘ri bilish samarasi amal qiladi.[44; 257-b] Subyekt haqida ma’lumot olishda introspeksiyaning cheklanganligini e’tirof etib, mualliflar, introspeksiya jarayonning kechishiga emas, balki uning oqibatlari kuzatilishini ta’kidlab o‘tishgan. Bunda mualliflar introspeksiyani retrospeksiyaga yaqinlashtirishadi.[44;260-b] V.P.Zinchenko va B.G.Meshyeryakovalar retrospeksiyani (lot. retro – orqaga, specto – qarayman) kuzatilganlar va shaxsiy xatti-xarakatlari hamda ichdan kechinmalarni eslash, ular haqida hikoya qilib berishdan iborat, “o‘zini o‘zi kuzatish (introspeksiya) har doim retrospeksiyaning u yoki bu darajasidir”. .[44; 260-b] Introspeksiya deganda “insonning o‘z ongini bilish, bevosita uning fenomen va qonunlarini idrok qilishning o‘ziga xos tajribasi” tushuniladi.

V.V.Yurchukning zamonaviy psixologik lug‘atida ko‘rsatilishicha, “introspektiv tajriba minimum ikkita empirik modifikasiyalardan tuzilgan bo‘lib: a) immanent-refleksiv tajriba, tashqi (eksteromir) va ichki (intromir)ni bilishga yo‘naltirilgan gnostik harakatlarga turtki beradi; ) eksterorefleksiv tajriba yoki mexanizm, persepsiya modellar, sezgilar, analizatorlar tizimi bilan bog‘langan bo‘lib tashqi olamni atrof-borliqni bilish imkonini beradi...”.[131; 704-b]

Pedagogik lug‘atlarda (G.M.Kodjaspirova va A.Yu.Kodjaspirov) o‘zini o‘zi kuzatish va introspeksiya – sinonim tushunchalar bo‘lib, ular “shaxsiy psixik faolligini (his-tuyg‘ular, kechinmalar, fikrlar) kuzatishni ifodalaydi”. [68; 176-b]

Demak, refleksiya – bu shaxsiy fikr va kechinmalarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan mulohaza yuritish. Shaxsiy xatti-harakatlarni anglash, fikrni tahlil qilish, idrok etish va bilishning boshqa shakllari yordamida

biz dunyoni anglaymiz. Refleksiya tufayli inson bilish va faoliyatning asl subyektiga aylanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish bilan bog‘liqlikda refleksiyaning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Kooperativ refleksiya boshqaruvi pedagogikasi va psixologiyasiga taalluqli, shuningdek, sport va loyihalashni nazarda tutadi. Bunday refleksiya turida zarur pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo‘lish jamoaning loyihaviy faoliyatini ta’minlaydi va ularning faoliyatini birlashtirishda ularning birgalikdagi faoliyatini ta’minlaydi. Bunda refleksiyani subyektni o‘z faoliyatidan chiqarilishi deb hisoblanadi. Buning maqsadi hamkorlikdagi faoliyatda umumiy harakatlarni tushunish va muvofiqlashtirishni ta’minlashdir. Bunday hollarda, inson psixikasi mexanizmini namoyon qilish jarayonlariga emas, balki refleksiya natijalariga e’tibor qaratiladi.

2. Kommunikativ refleksiya ijtimoiy rivojlanish va muloqot muammolari bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy munosabatlarni o‘rganishda ko‘rib chiqiladi. U intellektual va rivojlangan muloqot, shuningdek shaxslararo hissiyotlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

3. Shaxs refleksiyasi subyekt xatti-harakati va insonning o‘z “Men”ini uning shaxsiy sifatlari nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi. Bunday tahlil shaxsiy ongi rivojlantirish, parchalanish va tuzatish muammolari va subyektning shaxsiy “Men”nini yaratish mexanizmi bilan bog‘lab olib boriladi. Shaxsiy refleksiyani amalga oshirishning bir necha bosqichlari mavjud. Bu ziddiyatlarni boshdan kechirish va qo‘yilgan vazifalarni anglash hamda inson oldida turgan hal qilib bo‘lmaydigan vaziyatlarni tushunish tajribasi, shaxs stereotiplari va faoliyatları, ularning diskreditasiyasidir. Bunda ziddiyat va muammo bo‘lgan shaxs stereotiplari va vaziyatlar tushuniladi. Bunday vaziyatda shaxs o‘zini o‘zi to‘liq anglab yetadi. Qayta fikrlab ko‘rish jarayonida insonning o‘ziga va o‘z “Men”iga munosabati o‘zgaradi. U shunga mos harakatlarda amalga oshiriladi. Ikkinchidan, subyektning o‘zi bajara oladigan va biladigan munosabatlarini o‘zgarishi bilan yuz beradi.

Bizning tadqiqotimiz uchun qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi ushbu mexanizm eng dolzarbdir, chunki jarayon amaliy-kasbiy ta’lim jarayoni subyektlari turli xil muammolarga duch keladi va o‘z refleksiv imkoniyatlarini rivojlantiradi. Refleksiya ilmiy-bilish va amaliy faoliyat usullarini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Biroq bu yondashuv refleksiyani rivojlanish jarayonida talabada nima yuz berishi haqidagi savollarga javob bermaydi.

4. Intellektual refleksiya biror obyekt va u bilan muloqot qilish usullari haqidagi bilimlar bilan tavsiflanadi. Intellektual refleksiya pedagogika va psixologiya fanlarida axborotni bilish va fikrlash hamda qayta ishlash jarayonlarini tashkil etish muammolari bilan birqalikda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, oddiy muammolarni hal qilishda ko‘rib chiqiladi. Subyekt quyidagilarni refleksiyalashi mumkin: hamkor jamoaviy tashkilotlar va ularning tuzilmaviy ahamiyatini bilish; boshqa odamning ichki dunyosini, uning harakatlari va ishlarining sabablarini tasavvur qilish; o‘z faoliyati va shaxsiy hamda individual “Men”i; biror obyektni va ularning muayyan vaziyatlarda o‘zaro ta’sir etish usullari haqida bilish.

5. Hozirda ekzistensial va sanogen refleksiya tushunchalari ham mavjud. Ekzistensial refleksiya uchun tadqiqot obyekti – shaxsning chuqur va ekzistensial fikrlari hisoblanadi. Muvaffaqiyatsizlik, ayb, uyat va g‘azab kabi qo‘rquvlarga olib keluvchi kechinmalar, hissiy vaziyatlarda paydo bo‘luvchi refleksiya shaxsiy azoblanishning kamayishiga olib keladi. Yu.M.Orlov uni sanogen deb hisoblaydi. Bunday refleksiyaning asosiy vazifasi inson ruhiy holatini tartibga solishdir.[68; 176-b]

Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarining muhim maqsadlaridan biri sifatida yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega, har tomonlama barkamol, butun hayot davomida o‘qib-o‘rganishga intiladigan, o‘zining bilimlar sohasini kengaytirib borishga qodir raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlashni ko‘zda tutadi. Talabalik davrining boshlanishi o‘spirinlik davri (16-17 – 20-21 yosh), katta, mustaqil hayotning boshlanishini qamrab oladi. [19; 228-b]

Talabalik yillari yoshlar hayotining eng muhim, rivojlanish davridir. Bu davrda yoshlar jismoniy va ma’naviy-ruhiy jihatdan kamolotga yetadilar, hayot ma’nosini chuqurroq, anglaydilar, jamiyatda o‘z o‘rnini topish yo‘lida izlalanadilar. Xuddi ana shu davrda yuksak ideallar uchun faol kurashchining xususiyatlari shakllanadi, tajribasi ortadi. Binobarin, talabalik davri – orzu va ishonchlar, kelajakka intilishlar, bo‘lajak rejalarining shakllanish davridir. Ana shu davrda yoshlar ijtimoiy mehnatni to‘g‘ri baholay oladigan, mamlakat oldidagi vazifalarni, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg‘unligini, jamiyat boyliklarining qiymatini, Davlatimiz belgilab berayotgan vazifalarni to‘g‘ri anglashga intiladigan barkamol shaxsga aylanadilar. Shu boisdan ham ijtimoiy taraqqiyot talaba-yoshlarning ijtimoiy faoliyatining

hamma sohalarida faol bo‘lishini, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlikni talab etadi.

Bugungi jamiyat talablari, ilmiy-texnika va texnologiya sur’atlari o‘sib borishi, talaba-yoshlar bajarayotgan ijtimoiy funksiyalarni yanada murakkablashtirmoqda. Bu ijtimoiy funksiyalar quyidagilardan iboratdir: jahon xalqlari hayotini, mamlakatimiz rivoji, taraqqiyotning O‘zbek modelining mohiyatini har tomonlama chuqur o‘rganish; fan-texnika va texnologiyalar asoslarini chuqur egallash; kasbga aloqador bo‘lgan professional va ijtimoiy ko‘nikmalarni mehnat bilan, siyosiy va axloqiy madaniyatni tinmay o‘stira borish yo‘li bilan hosil qilish; ijtimoiy-siyosiy faoliyatda o‘z mehnati bilan faol ishtirok etish; kelajakdagi mustaqil, ijodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan maxsus bilimlarni egallash, yangicha dunyoqarashni shakllantirish va hokazolar.

Bu xususiyatlar talaba-yoshlarning faol ijodiy mehnatida o‘z ifodasini topadi. Talaba-yoshlar bu davrda o‘z mehnat faoliyati turini, o‘zining ma’naviy idealini belgilashi, muayyan turmush tarzini hosil qilishi lozim. Binobarin, talaba mehnati o‘zining alohida xususiyatlariga ega bo‘lgan aqliy mehnat ekan, demak bu mehnat a’lo o‘qishda, ilmiy faoliyatda va fan asoslarini ijodiy o‘zlashtirishda o‘z ifodasini topadi.

Talabalik yillarida o‘quv-bilish faoliyatining rivojlanishi qator o‘ziga xosliklariga ega. Mazkur davrda o‘z-o‘zini tahlil etish qobiliyati va o‘zi haqidagi (o‘zining xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari, xulq-atvori, xarakteri) bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish ehtiyojining oshib borishi kuzatiladi. O‘zini ma’lum bir ideallar bilan qiyoslash yuzaga chiqadi, o‘z-o‘zini tarbiyalash imkoniyati faollashadi. O‘spirinlik davridagi fikrlash uslubi shaxsiy-emosionallik bilan ajralib turadi. Dunyoqarash va nazariy muammolarga qat’iy nuqtai nazar namoyon bo‘ladi (intellektual his-tuyg‘ular faol rivojlanadi). [71; 464-b]

Aynan ijtimoiy voqyelikka ochiq munosabat, ilmiy dunyoqarashga doir yondashuvlarga fundamental javob bera olish ishontirishning faol usullariga nisbatan irrasional ustanovkalarni shakllantirishga imkon beradi. Ta’lim jarayoni hamda o‘quv maqsad va vazifalarini amalga oshirishdagi shaxs xulq-atvori individual o‘quv uslubini o‘zida aks ettiruvchi barqaror tavsif va psixologik asoslarga ega.[104; 176-b]

Talabalik – shaxsning kasbiy shakllanishi va ma’naviy kompetentligining rivojlanishi nuqtai nazaridan muhim yosh davri. Mazkur yosh davri o‘zining alohida ehtiyojlari, shaxsning sifat jihatdan o‘zgarishi, psixik hayotning o‘ziga xosliklarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Biz o‘z tadqiqotimizda mazkur yosh davrining quyidagi

o‘ziga xosliklariga e’tiborimizni qaratdik: yoshlar o‘zlarining rejalarini tuzib, mustaqil hayot tarzini belgilab va biror-bir kasbni o‘zlashtirishga harakat qila boshlaydi. Yoshlar nafaqat o‘zini katta hayotga qadam qo‘yayotganligini tasavvur qiladi, balki unda haqiqattan ishtirok etadi.

Yoshlar uchun bo‘lg‘usi kasbiy intilish (kelajakni xayol, tasavvur va istaklar orqali tasavvur qilish) va emosional qoniqmaslikni yuzaga keltirib chiqaradigan mavjud holatga qo‘sila olmaslik xos hisoblanadi.[93; 240-b]

Yoshlik davrida axloqiy ongning shakllanishi nuqtai nazaridan biz G.S.Abramovaning “yechimi har bir insonning shaxsiy hayotidagi nozik masala bilan bog‘liq – “Men”i, ichki va tashqi erkinligi chegarasiga doir savollar”ga taalluqli hayotiy vazifalar sifatida ma’naviy o‘z-o‘zini anglash haqidagi g‘oyasiga e’tibor qaratdik.[11; 271-b]

Adolat, burch, aybdorlik hissi, o‘lim, mas’uliyat, taqdir, hayot mazmuni kabi savollar har qanday yosh insonni tashvishga soladi. G.S.Abramova mazkur masalalar mohiyatini quyidagi tarzda aniq ifoda etgan: “Yoshlikda ma’naviy o‘zlikni anglash uchun barcha – abstrakt fikrlash, boshqa kishilar bilan aloqadorlik va ulardan alohidalikdan qayg‘urish, hayotiy vazifalarni hal etish – yaxlit voqyelik sifatida hayotni tushunish predmeti sifatida xizmat qiladigan maqsad va vositalar haqidagi barcha shart-sharoitlar mavjud”. Oliy ta’lim muassasasida o‘qish jarayonida yoshlar “talaba ma’naviyati”ni o‘zida ifoda etadi.

G.S.Abramova yoshlarning ma’naviy o‘z-o‘zini anglashi bilan bog‘liq muammolarni bat afsil o‘rganib, mazkur jarayonni faol kechishi haqida yaqqol guvohlik beruvchi jihatlarni aniqlab bergen. Avvalambor, bu ma’naviy hamdardlik, ya’ni boshqa insonlar bilan umumiylilikni his qilish va ulardan mustaqil bo‘lish, boshqalarga (kamdan-kam hollarda befarq bo‘lishi mumkin), o‘ziga, do’stlikka (o‘spirin yaqin sirdosh izlaydi), muhabbatga (insonga in’om qilingan) nisbatan intilishning kuchliligi va olam bilan munosabatga kirishish bilan bog‘liqdir.

V.I.Slobodchikov va Ye.I.Isayev yoshlik davrini individuallashtirish pog‘onasi sifatida tavsiflab, yoshlarni axloqqa alohida munosabat bildirishiga e’tibor qaratishgan. Ular individuallashtirish darajasini inson hayotining shaxsiy dunyoqarashni shakllantirish, individual o‘ziga xoslik va betakrorlik bilan bog‘liq asosiy bosqichlardan iborat deb hisoblashgan. “Yoshlarning asosiy muammozi ijtimoiy borliq, submadaniyat va zamonga individual, haqiqiy shaxsiy munosabatlarini izlab topishdir”. [113; 384-b]

Yoshlar uchun jamiyatda o‘z o‘rnini topish, boshqalar bilan yangi munosabatlarni o‘rnatish, hayot mazmuni, o‘z taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan hayajonli, biroq mavhum kechinmalarni tushunish juda muhimdir. Bu barcha masalalar ekzistensial xusiyatga ega bo‘lib, xuddi ana shu asosdan ma’naviy-axloqiy muammolar, o‘z-o‘zini anglash va tushunishga qiziqish kelib chiqadi. Ajoyib ichki dunyo shakllanadi, axloqiy mezonlarni qabul qilish yoki rad etish yuz beradi, axloqiy refleksiya barcha jarayonlarni diqqat bilan kuzatib boradi.

Yoshlarning ekzistensial muammolari nuqtai nazaridan S.L.Bratchenkoning individual hayotiy tanlovlar, o‘zining shaxsiy o‘rnini belgilash, qadriyatlar, ya’ni hayot va o‘lim, erkinlik va mas’uliyat, hayot mazmuni va uning yo‘qotilishi, muloqot va yolg‘izlik haqidagi g‘oyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Umumiy ko‘rinishda bu hayotiy qadriyatlar ekzistensialdir, yoshlar uchun bu qadriyatlar axloqiy tanlov uchun asos, muayyan sharoitda, jumladan, kasbiy vaziyatlarda shaxsiy mas’uliyat me’yori sifatida xizmat qiladi. Inson hayotining mazkur o‘z-o‘zini aniqlashtirish davrida shaxsning o‘z-o‘ziga munosabati (o‘zidan qo‘rqish, o‘zini tan olmaslik, o‘z kuchidan shubhalanish, o‘ziga ishonch, hurmatni, yaratishga qodirlikni namoyish qila olmaslik, muomala munosabatlarining cheklanganligi, shixslararo ziddiyat, ijtimoiy ochiqlik va boshqalar). [38; 197-b]

Shaxsning “hayot subyekti”ga aylanishi oson emas. Biroq shaxslarning ijod sohasida yaratgan durdonalarini tahlil qilib S.L.Rubinshteyn hayrat bilan, ushbu durdona ijodkor hayotining cho‘qqisi bo‘lsa-da, u hayotning ma’lum bir onidir, hayotning qolgan paytlari “hyech qanday e’tiborsiz, past darajada kechadi” - deb yozadi. [13; 299-b] Demak, hayot, hatto insoniyat uchun ideal bo‘lgan shaxslar misolida ham, kerakli saviyada, kerakli mahsuldarlikda va ma’naviy darajada kechavermaydi, hayot bilan ideal o‘rtasidagi qarama-qarshilik inson uchun hayotni, yashashni muammoga aylantiradi. Inson “hayot subyekti” bo‘lishi uchun ushbu qarama-qarshilikni u pozitiv hal etishi, ya’ni “hayotni yaratish va qurishga” o‘tishi lozim. Shaxsning “hayot subyekti”ga aylanishi, eng avvalo, uning hayotiy maqsadida o‘z aksini topadi.

Ijtimoiy-falsafiy va pedagogik-psixologik adabiyotlarda shaxs hayotini bir-biriga dialektik bog‘liq jarayonlar – bolalik (go‘daklik), yoshlik, yetuklik va keksalikka bo‘lib o‘rganish keng tarqalgan. Ushbu jarayonlarni tahlil qilgan va ularga xos xususiyatlarni aniqlagan B.G.Ananyev har bir hayotiy bosqich ma’lum bir qadriyatlarni hayotiy

maqsad qilib qo'yishini ta'kidlaydi. U yoshlarda ta'lim va ilm olish, muloqot asosiy qadriyatlar sifatida kelishini va ular hayotiy maqsadini ushbu qadriyatlar orqali belgilashini asoslaydi.[23; 282-b]

Talabalar, shu jumladan, bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishda o'quv-bilish jarayoni hamda mazkur holatda subyektivlikning namoyon bo'lishi ham muhim o'rin tutadi.

O'quv faoliyatining muhim komponenti subyektning o'zi bilan bog'liqlikda sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'zlashtirish darajasini baholashga doir xatti-harakatni ifoda etadi. Mazkur harakat orqali talaba qo'yilgan o'quv vazifasi to'g'ri amalga oshirildimi, kelgusida ko'plab nazariy vazifalarni hal etishda qo'llash bilan bog'liq o'quv harakatlari usullarini o'zlashtirgan yoki o'zlashtirmaganligini aniqlay oladi.[69; 377-b] O'quv faoliyati nazariy bilimlarni va o'quv-bilish faoliyati usullarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan. O'quv faoliyati o'zida quyidagi komponentlarni aks ettiradi: maqsad qo'yish, o'z-o'zini yo'naltirish, o'z-o'zini baholash, rejalashtirish, qaror qabul qilish, nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, korreksiya, motivasiya, o'zlashtirish.[87; 32-b] Yaxlitlikda o'quv faoliyati o'zaro birgalikdagi nazorat yoki refleksiya yordamida amalga oshiriladi.[104; 176-b]

G.P.Shyedroviskiyning konsepsiyasida ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni sifatida o'qish-o'rganish va o'quv-bilish faoliyati farqlanadi. O'qish-o'rganish – bu to'liq anglanmagan o'zlashtirish, o'quv-bilish faoliyati – bu o'quv vositalarini qo'llash bilan bog'liq maxsus tashkil etilgan o'zlashtirish. O'quv-bilish faoliyati: mazmun, o'quv faoliyati natijasi, faoliyatni tashkil etish jarayonlari, psixik funksiyalar, qobiliyatlar va o'zlashtirish jarayonlaridan tashkil topadi.[110; 227-b]

V.D.Shadrikovning ta'kidlashicha, o'rganish – bu insonning atrof-muhit bilan o'zaro harakati va unga layoqatlilik, borliqdagi jarayonlarni bilishga yo'naltirilgan ijodiy jarayon emas, "insoniyat tomonidan to'langan madaniyatni o'zlashtirish, "o'zlashtirish" yoki "qabul qilish"dir.[127; 320-b]

S.Yu.Jdanovaning ta'kidlashicha, o'quv-bilish faoliyati faoliyatning alohida turlarida natija olish uchun emas, o'z-o'zini o'zlashtirishga yo'naltirilgan nazariy va amaliy faoliyat sifatida yuzaga chiqadi hamda faoliyat komponentlari haqidagi bilimlarni, ularni amalga oshirishga doir bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda o'zining natijaviyligiga ega.[55; 212-b]

A.M.Mityayeva o‘quv-bilish faoliyati tuzilmasi deganda, xilma-xil o‘zlashtiriladigan o‘quv materiallari, bilim, ko‘nikma va malakalar, intellektual faoliyat, o‘z o‘quv faoliyatini tashkil etish usullari yig‘indisini tushunadi.[84; 175-b]

N.A.Kiselevskaya “o‘quv-bilish faoliyati” tushunchasini “ma’lum bir hajmdagi bilim, ko‘nikma va malakalar, faoliyat turlari va xulq-atvor shakllarini ongli tarzda o‘zlashtirish maqsadi boshqariladigan inson xatti-harakatlari” sifatida talqin etadi.[65; 124-b]

Professor M.G.Davletshin rahbarligida bu muammo yangicha ilmiy asosda o‘rganilgan. M.G.Davletshinning fikricha, yoshlar har xil sohalar mazmuniga o‘zlarining ongli ravishda yondashuvlari orqali ularda ilm olishga nisbatan to‘g‘ri va oqilona tasavvurlar ertaroq hosil bo‘ladi.[49; 81-b]

Taniqli olim E.F.Foziyev o‘z tadqiqotlarida mustaqil tafakkurning rivojlanishi, bilim jarayonining qiziqarli tashkil etilishi talabalar faoliyatida yangi muvaffaqiyatlarga erishishning ijodiy manbai, deb hisoblaydi.[142; 244-b] E.G‘oziyev tadqiqotlarida talabalarning o‘quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari, o‘quv faoliyatini rejalashtirish, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, o‘zini-o‘zi baholash, inson faoliyatini aniqlash, o‘quv faoliyatini rejalashtirishni aniqlash, maqsad qo‘ya olishni aniqlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilishni aniqlash, bo‘s sh vaqt ni aniqlash kabi tushunchalar haqida mulohazalar yuritiladi. Olim mazkur tushunchalarga aniqlik kiritish maqsadida o‘quv faoliyatini boshqarishning diagnostik metodini ishlab chiqib, psixologiya fanining kam o‘rganilgan sohalaridan biri bo‘lgan o‘qish faoliyatini boshqarish muammosining nazariy va amaliy tomonlarini yoritib beradi. Bu tushunchalarni aniqlash uchun olim shu tushunchalarga mos anketalardan foydalandi. Har bir anketada o‘ndan ortiq savol bo‘lib, ba’zan qo‘srimcha savollar ham berilgan. Bunda, albatta, o‘quvchilarining individual xususiyatlari hisobga olingan. Suhbatlarda esa, tushunchalarning etimologiyasiga katta ahamiyat berilgan. Bunday tadbirlar o‘quv faoliyatini boshqarishning tarkibiy qismlari bilan tanishtirishni osonlashtirgan. Yana mazkur tadqiqotlarda o‘qish va o‘qitish jarayoni uchun tavsiyanoma ishlab chiqilgan va o‘z-o‘zini anglash bosqichlari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. [143; 124-b] R.I.Sunnatova o‘z ilmiy tadqiqotlarida talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish jarayonidagi fikrlash faoliyatlarini o‘rganadi. Olima o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarining fikrlash faoliyatiga ta’sir etish xususiyatlarini quyidagicha izohlagan. Bir tomondan, talabalarning o‘z-

o‘zini boshqarish jarayonlarida qator o‘zgarishlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, talabalarda o‘quv faoliyatiga nisbatan qiziqishning oshib borishi hamda o‘z-o‘zini boshqarish jarayonida bilim olishga nisbatan yangicha qarashlarning shakllanganligi ham ko‘rinadi. Shuningdek, talabalar o‘z-o‘zini boshqarish jarayonida o‘z-o‘zlarini tarbiyalash va o‘z qobiliyatlarini takomillashtirishga harakat qilganliklari ham kuzatiladi. [114; 41-b]

Z.T.Nishanova talabalarning mustaqil-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar majmuini ishlab chiqqan. Bu mashg‘ulotlarda asosiy diqqat tafakkur operasiyalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lsada, ijodiylikning tezligi, aniqligi, originalligi kabi xususiyatlarini rivojlantirish masalasi ham chetda qolmagan.[88; 391-b]

Yana bir olima E.Z.Usmonovaning ilmiy tadqiqotlarida esa intellektual nizolar sharoitida tafakkurni motivasion hissiy boshqarish muammolari o‘rganilgan. E.Z.Usmonovaning ta’kidlashicha, tafakkurni shakllantirish uchun ta’limning mazmuniga, tashkil etilishiga, uning erkin bo‘lishiga hamda ijodiy topshiriqlarni yechishning turli usullarini ishlatishi o‘quvchilarda faollik, tanqidiylik, samaradorlik va tafakkur o‘tkirligini ta’minlaydi.[118; 104-b]


Talabalik yillarida kasbiy tarbiya va shaxsning muvaffaqiyatlari ijtimoiylashuvini ta’minlaydigan omillar o‘rtasida aniq vazifalar nuqtai nazaridan dolzarblik kasb etuvchi o‘quv fanlari, metod, usul va vositalar muhim sanaladi. Pedagogik-psixologik fanlar nafaqat talabalarni bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga tayyorlash, balki uni shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashda alohida o‘rin tutadi. Yuqoridagi fikr bilan bog‘liqlikda bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlarning ta’sirini nazariy asoslash talab etiladi.

Pedagogik-psixologik fanlar mazmunini o‘zining mohiyatiga ko‘ra, insonning hayotiy maqsad va mo‘ljallarni to‘g‘ri belgilash uchun muhim hisoblangan axborotlar tashkil etadi. Bu axborotlar hayot mazmuni, insonning undagi o‘rni, insonparvar qadriyatlarni o‘zida ifoda etadi. Bu fanlar talabaga yaxshilik va yomonlik, burch va mas’uliyat, ya’ni ma’naviy yo‘nalganlik nuqtai nazaridan boshqa kishilar bilan munosabatlarni tushunish orqali dunyoni ko‘rishga imkon beradi.


Shunday qilib, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida, bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasi tuzilmasi motivasion-qadriyatli, bilishga va faoliyatga doir tarkibiy asoslarni o‘z ichiga qamrab oladi (1.2.1-rasmga qarang), degan xulosaga kelindi.

Bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasining motivasion qadriyatli komponenti uning barcha komponentlarini tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. S.L.Rubinshteyn fikriga ko'ra, "har bir harakat motivdan kelib chiqadi, ya'ni, harakatga undaydi, muhim narsani boshidan o'tkazadi va bu individ harakatga mazmun beradi". Motiv – bu faoliyat nima uchun amalga oshirilayapti degan savolga javobdir. Faoliyat mazmuni motivga asoslanadi. [102; 233-b] O'quvkasbiy faoliyat "tegishli motivlarga asoslangan bo'lishi kerak. Ular faqat uning mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'lgan motivlar bo'lishi mumkin, ya'ni harakatning umumiyligini usullarini o'zlashtirish uchun yoki, sodda qilib aytganda o'sish, yangilanish uchun motivlar bo'lishi mumkin". [132; 596-b]


### **Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish komponentlari**



### **Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish funktsiyalari**



### **Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyaning rivojlanganlik darajasi**



#### **1.2.1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish tuzilmasi va tavsifi**

“O‘qishga motivasiya maqsadlar, ehtiyojlar va motivlar tizimini o‘z ichiga oladi, ular insonni bilim va bilish usullarini egallash, o‘qishga ongli ravishda munosabat bildirish, o‘quv faoliyati mos bo‘lishga undaydi”. [45; 182-b]

O‘qish uchun motivasiya – ta’lim oluvchilarning bilish faolligi manbai, shuningdek o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish shartidir. O‘quv faoliyati birinchi navbatda, ichki motiv, ijobiy emosional ohang bilan tavsiflanadigan bilishga bo‘lgan ehtiyoj, shuningdek tashqi motivlar (burch, o‘z-o‘zini tasdiqlash, nufuzlilik va boshqalar) bilan amalga oshadi.

D.I.Feldshteyn ta’kidlashicha, “faoliyatning faol pozitsiyasi yangi motivlarni shakllantirishda, ularni maqsadli ravishda qayta qurishga asoslanadi”. [120; 672-b]

O.S.Grebenyuk o‘quv faoliyatining motivation asosiga urg‘u beradi, u buni “u butun o‘quv faoliyatini mustahkamlaydi” degan fikr bilan asoslaydi. Muallifning ta’kidlashicha, “o‘quv faoliyatning motivation asosi – bu butun faoliyatni doimiy ravishda rag‘batlantiradigan, uning uzlusizligi va barqarorligini ta’minkaydigan motivation holatlarning ma’lum bir ketma-ketligi” hisoblanadi.[46; 94-b]

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quv faoliyatining motivation asoslari besh qismdan iborat: o‘quv vaziyatiga e’tibor qaratish; bo‘lajak faoliyatdan xabardor bo‘lish; ma’lum bir motivni ongli ravishda tanlash; maqsadni belgilash; tanlangan maqsadga erishishga intilish, ya’ni o‘quv faoliyatini amalga oshirish; tanlangan o‘quv harakatlarining to‘g‘riligiga ishonchni anglash, ya’ni muvaffaqiyatga intilish; faoliyat jarayoni va uning natijalarini mustaqil baholash.

Motivni ongli ravishda tanlash bizning tadqiqot uchun muhimdir. Faoliyatning ushbu bosqichi (motivni tanlash) mavjud ehtiyojni anglash va o‘rganish motivini tanlashdan iborat. Tashqi motivlar mashg‘ulotda shaxsni muayyan harakatlarini amalga oshirishga undaydigan ehtiyojni keltirib chiqaradi, ammo harakat qilish to‘g‘risida qaror talaba tomonidan qabul qilinadi. Mazkur jarayonda pedagogik munosabatlarning ta’siri katta: talaba o‘z ehtiyojlarini anglaydi va natijada bo‘lajak o‘qituvchi muayyan vaziyatda u uchun ahamiyatli bo‘lgan motiv bilan harakat qiladi. Ideal holda talaba barcha motivlardan o‘quv-kasbiy faoliyatning zarur motivlarini tanlaydi. Va agar u unga taklif qilingan harakat usullarini faol ravishda o‘zlashtirish zarurligini anglasa, u dolzarb motivni tanlaydi va bu daqiqani uning faoliyatga

qo'shilgan payt deb hisoblash mumkin. Natijada, motivni tanlash bevosita ehtiyojni anglashga bog'liq.

Oliy pedagogik ta'linda bo'lajak o'qituvchining ehtiyojli-motivasion sohasini rivojlantirish "talaba hayotining umumiyl negizida – qiziqishlar yo'nalihi, hayotiy rejalar, qadriyatli yo'nalihsilar, shaxsnинг ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun ta'lim mazmunini tushunishda yuz berishi kerak", [72; 128-b] chunki ushbu bosqichda o'quv-kasbiy faoliyat shakllanishi kelgusi mustaqil kasbiy faoliyat qanchalik muvaffaqiyatli bo'lishini aniqlaydi. Yana bir muhim jihat yaxlit faoliyatning shakllanishi, faoliyatning ushbu turiga bo'lgan qadriyatli munosabatning shakllanishi bilan belgilanadi.[76; 12-19-b]

Shunday qilib, faoliyatga bo'lgan motivasiya shaxsnинг qadriyatli yo'nalihsilar bilan belgilanadi, deb hisoblaymiz. Kasbiy yo'naltirilgan o'quv faoliyatida bo'lajak o'qituvchi o'zining o'quv-kasbiy yo'nalihi bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarni amalga oshiradi. Bunday faoliyat bilish, ta'lim, o'z-o'zini rivojlantirish, hamkorlik, faoliyatni amalga oshirish, muvaffaqiyatni atrof-muhit tomonidan tan olinishi va boshqalarni o'zida aks ettiradi. Demak, agar o'quv-kasbiy faoliyatga nisbatan shakllangan qadriyatli munosabat mavjud bo'lsa, yaxlit faoliyatni shakllantirish mumkin.

O'quv-kasbiy faoliyat samarali va natijali ravishda amalga oshiriladi va agar o'qituvchi talaba faoliyatining motivasion asoslarini hisobga olsagina, amalga oshirilayotgan faoliyatning qadriyatlarini anglashni o'z ichiga olgan faoliyatga refleksiv munosabatni rivojlantirish mumkin.

Mazkur tadqiqotda motivasion komponent bo'lajak o'qituvchining o'ziga bo'lajak professional sifatida, o'zining bo'lajak kasbiy faoliyatiga, bolalarga, o'rganilayotgan "Pedagogika" faniga nisbatan ijobjiy munosabati va qiziqishi, shuningdek, refleksiv bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj, refleksiv faollikka motivasiyani o'z ichiga oladi: shaxsiy Men bilan o'zaro munosabatga tayyorlik, shaxsiy va kasbiy-ahamiyatli hayotiy vaziyatlarda o'z-o'zini tahlil qilish, o'z Meni bilan o'zaro munosabat jarayoniga emosional kirish, o'zini tavsiflash doirasining kengligi, hayotiy qadriyatlar va Men – bo'lajak o'qituvchi qadriyatlar transformasiyasi, shaxsiy Menga ongni qaratish.

Bo'lajak o'qituvchida refleksiv pozitsiyaning motivasion komponenti mavjudligining ko'rsatkichlari qo'yidagilardan iborat: shaxsiy-kasbiy o'z-o'zini baholash va innovasion salohiyatning yetarli darjasи; bo'lajak kasbiy faoliyatga ijobjiy munosabat; bolalarga o'ziga

hos shaxsiy xususiyatlari bilan kasbiy yo‘naltirilgan faoliyat obyekti, subyekti sifatida qiziqish; “Pedagogika” fanini o‘zlashtirishga yetarli darajada qiziqish.

Shunday qilib, rag‘batlantiruvchi va mazmunga doir funksiyani bajargan holda, motivation komponent bo‘lajak o‘qituvchining qadriyatli yo‘nalishlari, motivlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va munosabatlar tizimini birlashtirgan shaxsiy, kommunikativ, intellektual va pedagogik refleksiyaga yo‘naltirilganlikni aks ettiradi, ular uning o‘quv-kasbiy faoliyati va pedagogik munosabatlardagi xatti-harakatlarini tartibga soladi.

Qadriyatli komponentning namoyon bo‘lishi qadriyatli ustanovkalarning pozitsiyada namoyon bo‘lishi bilan bevosita bog‘liqdir. Qadriyatli ustanovkani shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchining maqsad va faoliyat vositalarini tanlashda asosiy jihatlarni belgilab olishga tayyorligini bildiradi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, qadriyatli komponentni refleksiv pozitsiyaning tuzilmasiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

M.T.Gromkovaning ta’kidlashicha, “Qadriyat emosional reaksiya bilan birga kechadi. Ya’niki, unga inson befarq emas, bee’tibor emas, qaysiki tashvishga soladi, xavotirlantiradi...”. [47; 123-b]

M.G.Yanovskaya ta’kidlaydiki, “qadriyatlar mantiqiy tushunish bilan emas, balki kechinmalar bilan birga o‘zlashtiriladi”. [135; 167-b]

Tadqiqotimizda yo‘naltiruvchi funksiyasini bajaradigan qadriyatli komponent qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati sharoitida o‘z qobiliyatları, ehtiyojlari, holatlari va imkoniyatlarini munosib baholay olish;

- kelgusi kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar tizimi; bolalarning kechinmalariga xozirjavoblik va bolalarni subyektiv idrok etish, ularning ichki dunyosiga kirib borish, ularning kechinmalari, fikrlari va hissiyotlari, ya’ni empatiyasini tushunish;[101; 447-b]

- “Pedagogika” fani imkoniyatlarini yetarlicha baholashga munosabati.

Yo‘naltiruvchi funksiyasini bajaruvchi qadriyatli komponentning shakllanish darjasini qo‘yidagilarni o‘zida aks ettiradi: boshqalarini tushunish qobiliyati, verbal va noverbal vositalarning moslashuvchanligi, qat’iy hukm chiqarmaslikka bo‘lgan qobiliyatlarga asoslangan kasbiy-yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatidagi tolerantlik hatti-harakatining namunalari; bolalarning ichki dunyosiga kirish, ularning kechinmalari, fikrlari va hissiyotlarini tushunishga tayyorlik;

o‘qitiladigan fanning o‘ziga xos xususiyatlarini yetarli darajada idrok etish.

Bo‘lajak o‘qituvchining ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatli yo‘nalishlarini qondirish va rivojlantirishga imkon beradigan axborot funksiyasini bajaradigan refleksiv pozitsiyaning kognitiv komponenti bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari, qobiliyatlar, ehtiyojlari, holatlari va imkoniyatlari to‘g‘risidagi refleksiv bilimlar tizimini o‘z ichiga oladi. Bunda ushbu bilimlar o‘quv-kasbiy faoliyatning har bir o‘ziga xos holatida alohida dolzarblik kasb etadi: bo‘lajak o‘qituvchining kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bilimlar; ma’lum bir yosh guruhidagi bolalar rivojlanishining psixologik xususiyatlari va o‘quvchilar bilan pedagogik o‘zaro munosabatlariga mos usullarni qo‘llay bilish; bo‘lajak o‘qituvchining “Pedagogika” fani bo‘yicha bilimlarni egallaganlik darjasini.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasi tuzilmasidagi kognitiv komponentning tarkib topishi quyidagilar bilan ajralib turishi mumkin:

- bo‘lajak o‘qituvchining kelajakdagi faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘zining kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarini taqqoslash, tushunish va farqlarini anglash orqali tahliliy va tashkiliy qobiliyati, ehtiyojlari, xolatlari va imkoniyatlarini munosib baholash to‘g‘risida xabardorligi;

- bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy vaziyatda oqilona yo‘l tutish, o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish usullari to‘g‘risida ma’lumotga egaligi;

- barcha yoshdagagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi maxsus tashkil etilgan muloqot sifatida tegishli pedagogik munosabatdan xabardorligi.

Amaliy funksiyani bajaradigan faoliyatli komponent quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini amalga oshirish uchun bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy kasbiy-ahamiyatli sifatlari, qobiliyat, ehtiyoj va imkoniyatlaridan ongli foydalanishi;

- kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etish usullarini ongli ravishda tanlash;

- bo‘lajak o‘qituvchining bolalar bilan psixologik jihatdan yetarli darajada shaxslararo va pedagogik munosabati;

- pedagogika fanini uning o‘ziga hosligini hisobga olgan holda, boshqa o‘quv fanlari bilan to‘liq, ongli, yetarlicha aloqadorligini ta’minlash.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasining faoliyatli komponenti quyidagi refleksiv ko‘nikmalar majmuini aniqlashga imkon berdi: kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati jarayonida shaxsning kasbiy-ahamiyatli sifatlarini belgilash va qo‘llash qobiliyati; o‘quv jarayonini mustaqil ravishda tashkil qilish qobiliyati; kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini nazorat qilish va baholashni ta’minlash qobiliyati; o‘quvchilar bilan shaxslararo aloqalarni o‘rnatish va kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati jarayonida ijobiy pedagogik munosabatni ta’minlash qobiliyati; “Pedagogika” fanining o‘ziga hos xususiyatlari haqidagi bilimlarini qo‘llash va ularni uning xususiyatlariga moslashtirish orqali yangi maqsadli o‘quv dasturlarini yaratish qobiliyati.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish mazkur jarayonga xos psixologik-pedagogik xususiyatlarni hisobga olish, refleksiv pozitsiyani qaror topishi uchun zarur komponentlar hamda ular bajaradigan funksiyalarini aniq belgilashni taqozo etadi.

### **I bob bo‘yicha xulosa**

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ushbu pedagogik hodisaning yagona aniq ta’rifi mavjud emas, degan xulosaga kelindi. Chunki refleksiv pozitsiyaga berilgan qator ta’riflar ilmiy tadqiqotlarning mohiyatidan kelib chiqqan holda tavsiflangan.

1. Ilmiy ishlar tahlillari aksariyat tadqiqotchilar shaxsning qobiliyati, tayyorgarligi, malakasi, fikrlash darajasi, jarayonni samarali tashkil etish usuli va refleksiv jarayonlarni faollashtiradigan vaziyat sifatida refleksiv pozitsiyani shakllantirish zarurligini ta’kidlab o‘tishadi. Refleksiv pozitsiya tushunchasiga berilgan mazkur izohlar, albatta mazkur fenomenning muhim xususiyatlarini aks ettiradi. Ammo bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy-pedagogik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari kasbiy tayyorgarlik subyekti sifatida o‘z shaxsiga nisbatan refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish masalasiga aniqlik kiritishni takozo etdi.

2. “Refleksiya”, “pozitsiya” tushunchalarini tahlil etish asosida bo‘lajak o‘qituvchining “refleksiv pozitsiyasi” tushunchasiga quyidagicha aniqlik kiritildi: refleksiv pozitsiya bo‘lajak o‘qituvchi o‘z o‘zi, pedagoglik kasbi, pedagogik munosabatlar subyektlari, “Pedagogika” faniga shaxsiy nuqtai nazarini ifoda etishning ongli tizimi

bo‘lib, uning refleksiv tajribasiga asoslanadi hamda uzluksiz boyib boradi.

3. Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida, bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasi tuzilmasi va motivasion-qadriyatli, bilishga va faoliyatga doir tarkibiy asoslari aniqlashtirildi:

- motivasion komponent bo‘lajak o‘qituvchining o‘ziga bo‘lajak professional sifatida, o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyatiga, bolalarga, o‘rganilayotgan “Pedagogika” faniga nisbatan ijobiy munosabati va qiziqishi, shuningdek, refleksiv bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj, refleksiv faollikka motivasiyani o‘z ichiga oladi;

- qadriyatli komponent qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi: kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati sharoitida o‘z qobiliyatları, ehtiyojlari, holatlari va imkoniyatlarini munosib baholay olish; kelgusi kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar tizimi; “Pedagogika” fani imkoniyatlarini yetarlicha baholashga munosabati;

- kognitiv komponentning tarkib topishi quyidagilar bilan belgilandi: bo‘lajak o‘qituvchining kelajakdagi faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘zining kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlarini taqqoslash, tushunish va farqlarini anglash orqali tahliliy va tashkiliy qobiliyati, ehtiyojlari, xolatlari va imkoniyatlarini munosib baholash to‘g‘risida xabardorligi; bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy vaziyatda oqilona yo‘l tutish, o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish usullari to‘g‘risida ma’lumotga egaligi; barcha yoshdagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi maxsus tashkil etilgan muloqot sifatida tegishli pedagogik munosabatdan xabardorligi;

- faoliyatli komponent quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oldi: kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini amalga oshirish uchun bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy kasbiy-ahamiyatli sifatlari, qobiliyat, ehtiyoj va imkoniyatlaridan ongli foydalanishi; kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etish usullarini ongli ravishda tanlash; bo‘lajak o‘qituvchining bolalar bilan psixologik jihatdan yetarli darajada shaxslararo va pedagogik munosabati; pedagogika fanini uning o‘ziga hosligini hisobga olgan holda, boshqa o‘quv fanlari bilan to‘liq, ongli, yetarlicha aloqadorligini ta’minlash.

## **II BOB. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA REFLEKSIV POZITSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI**

### **2.1-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishda pedagogik-psixologik fanlarning deontologik imkoniyatlari**

Pedagogik ta’lim bugungi kunda jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda, ularning asosiy maqsadi ta’limdagi vaziyatlarni oqilona baholay oladigan, pedagogik jarayonni loyihalashtirish va ijodiy amalga oshirishga qodir yangicha fikrlashga qodir o‘qituvchini tayyorlashdir.[56; 140-b]

Pedagogik ta’limni modernizasiya qilish masalasi keng muhokamalarga sabab bo‘lmoqda.[64; 5-10-b]

Pedagogik ta’limning zamonaviy modellarini yaratish sharti bilan “yangi qiyofa kasb etuvchi” o‘qituvchilarini tayyorlash mumkin. Ushbu modellardan biri (kelajakda bu modelning “yetakchi” turi) – pedagogik va an’anaviy universitet ta’limi integrasiyasi – Samarqand davlat universitetida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Samarqand davlat universiteti huzurida O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining tashkil topishi buning yorqin namunasidir. Bunday ta’limning afzalliklari bo‘lajak o‘qituvchilarni fundamental nazariy va amaliyatga yo‘naltirilgan tayyorlashning uyg‘unligidir; talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvorligi; ta’lim muhitining aks etgan tarbiyaviy-rivojlantiruvchi va professor-o‘qituvchilar jamoasining yuqori salohiyatga egaligi; talabalarning o‘quv va kasbiy faoliyatini tashkil etish uchun zamonaviy o‘quv texnologiyalari; ularning auditoriyadan tashqari faoliyatining zamonaviy shakllari (pedagogik klublar, ijodiy ustaxonalar, volontyorlik faoliyati va h.k.) va boshqalar. Universitetda yaratilayotgan barcha tashkiliy, pedagogik va ijtimoiy-psixologik sharoitlar “yangi o‘qituvchi” tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, ularsiz ta’lim va umuman jamiyatni modernizasiya qilish muammolarini hal qilishning imkonи yo‘q. “Innovasiyalar va bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish bo‘yicha loyihalarni ushbu loyihalarni hayotga tadbiq eta oladigan, o‘quvchini rivojlantirish va o‘qitish hamda uning kompetensiyalarini shakllantirish vazifalarini samarali hal qila oladigan “yangi o‘qituvchi”ning beyevosita ishtirokisiz amalga oshirib bo‘lmaydi”. [79; 47-67-b]

O‘qituvchiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, yuqorida aytib o‘tilganidek, kasbiy talablarga bevosita bog‘liq bo‘lgan o‘qituvchining malakaviy xususiyatlarini tavsiflaydigan Davlat ta’lim standartlarida aks ettirilgan. [97; 29-b]

Oliy ta’lim tizimidagi ta’lim jarayoni nafaqat texnologik, amaliyatga yo‘naltirilgan tayyorgarlikni, balki talabalarda jamiyatda ro‘y berayotgan jarayonlar mohiyatini chuqur anglashni shakllantirish, ijtimoiy-madaniy hodisalarni o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish, turli xil ijtimoiy-kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorlikni ham nazarda tutadi”. [53; 364-b] Ya’ni, pedagogik ta’limni modernizasiya qilish turli maqsadlarga ega bo‘lgan kasbiy va ta’lim standartlari nisbati muammosini hal qilishni o‘z ichiga oladi. Bu muammoni hal qilish, o‘z navbatida, quyidagilarni nazarda tutadi: asosiy ta’lim tayyorlash dasturining (ATTD) modulli (mavzuli emas) tuzilishi; pedagog tayyorlash professionalizasiyasi, ya’ni o‘qitish bosqichidan boshlab mehnat faoliyatini egallashni ta’minlaydigan shunday tayyorlash modelini yaratish;[80; 105-126-b] bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda mehnat harakatlarini ajratib ko‘rsatish tartibini ishlab chiqish.[53; 364-b] Bunday holatda, A.A.Margolis ta’kidlaganidek, belgilangan vazifalarni soddallashtirilgan usulda tushunish bilan bog‘liq ma’lum “xavflar” mavjud: ta’limga tayyorlashning utilitar-metodik tarkibiy qismlarining tadqiqot-nazariy qismi zarariga ustun kelishi; yaxlit pedagogik faoliyatni alohida mehnat harakatlariga sun’iy “dekompozitsiya” qilish va muayyan mehnat harakatlariga “tortish”; o‘qituvchining kasbiy hamjamiyatga tobora “kirib borishi”, ta’lim jarayoni boshqa subyektlari bilan o‘zaro aloqa o‘rnatib borishi uchun zaruriy tayyorgarlikning yo‘qligi (pedagogik faoliyat va undagi o‘zaro munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadigan “madaniy vositalar” – me’yorlar, qoidalar, qadriyatlar egallangan taqdirda, oxirgi “xavf”ning oldi olinishi mumkin). [80; 105-126-b]

Shu bilan birga, o‘qituvchiga zamonaviy talablar to‘g‘risidagi savolga javob berayotganda, ta’limning obyektiv maqsadi va mazmuni, uning asosiy yo‘nalishi haqida unutmaslik kerak. “O‘qituvchi – shogird” munosabatlari tizimida o‘qituvchi shaxs va madaniyat dunyosi o‘rtasida vositachi (ta’limning yo‘naltiruvchi funksiyasi;[73; 400-b] bundan tashqari, avtoritar pedagogikada an’anaviy ravishda ajralib turadigan boshqarish funksiyasi), qadriyatlarni uzatuvchi va tarbiyalanuvchi bilan muloqotda ularni amalga oshiruvchi, qadriyatli muhit va qadriyatli tanlov holatlarini yaratuvchi vazifasini bajaradi. Shu munosabat bilan,

pedagogik faoliyat va muloqotning obyektiv mazmuni va maqsadi o‘quvchiga, tarbiyalanuvchiga uni insoniyat madaniyati dunyosi bilan tanishtirishda, uning shaxsini rivojlantirishda, voqyelikning turli jihatlariga qadriyatli munosabatlar tizimini o‘rnatishda yordam ko‘rsatish kabi tavsiflanishi mumkin. Bunday traktovka pedagogik faoliyatni insonga ma’lum bir yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan boshqa amaliy faoliyatlar bilan birlashtiradi.

Zamonaviy ta’limning shaxsiy yo‘nalganligi ta’lim maydonidagi shaxsiy resurs aktualizasiyasi uchun sharoit yaratish kerakligini anglatadi, buni faqat shaxsiy resurslar aktualizasiyasi bo‘yicha haqiqiy tajribaga ega bo‘lgan kishi, ya’ni shaxs sifatida rivojlangan o‘qituvchi amalga oshirishi mumkin. A.I.Subetto ta’kidlaganidek, “ta’lim jarayonidagi insonning sifati – bu ta’lim sifatining aksidir”. [115; 72-b] Zamonaviy sharoitda ta’limda “o‘qituvchilarning to‘laqonli shaxsi talab qilinadi, chunki o‘qituvchining asosiy mehnat quroli – bu o‘zgaruvchan ishlab chiqarish sharoitida eng maqbul yechimlarni topishga imkon beradigan uning shaxsidir”. [77; 272-b] D.A.Beluxin bolalarning o‘qituvchilarda birinchi navbatda ularning shaxsiy fazilatlarini qadrlashlarini tasdiqlaydigan empirik tadqiqot natijalarini keltiradi. “Sevimli o‘qituvchiga aylanish uchun siz avval Inson bo‘lishingiz kerak”. [33; 128-b] Bunda zamonaviy pedagogik ta’limning maqsad va vazifalari faqat o‘qituvchining shaxsiy salohiyatini ohib berishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ba’zi bir umummadaniy kompetensiyalarda aks etadi.

Quyidagi jadvalda zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yiladigan asosiy malaka talablari tavsifini keltirib o‘tamiz (2.1.1-jadvalga qarang).

### **2.1.1-jadval**

#### **O‘qituvchiga qo‘yiladigan an’anaviy va zamonaviy talablarning qiyoziy tahlili**

O‘qituvchiga shaxsiga qo‘yiladigan an’anaviy talablar	O‘qituvchiga shaxsiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar
1	2
<b>O‘qituvchining qadriyatli-maqsadli yo‘nalganligi</b>	
Ma’lum bir fan sohasidagi bilimlarni uzatishga yo‘nalganlik	O‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo‘nalganlik
<b>O‘qituvchining kompetentliligi</b>	
Ta’lim jarayonidagi nisbatan oddiy vazifalarni yechishga imkon beradigan muayyan fan	Keng doiradagi masalalarga doir kompetentlik (kompetensiyalarning keng doirasi, jumladan, umummadaniy

sohadagi qobiliyati (bilim sohasi va fanni o‘qitish metodikasini egallash).	kompetensiyalar - instrumental, shaxslararo, shaxsiy va kasbiy); kasbiy kompetensiyalarni mehnat vazifalari va harakatlari tizimi orqali o‘qituvchilarni o‘qitishning ta’lim natijalari sifatida aniqlashtirish. Murakkab masalalarni hal qilish qobiliyati va unga tayyorligi.
Pedagogik faoliyat “maydoni” va o‘qituvchining rolli “maqomi”	
Pedagogik faoliyat “maydoni” ta’lim, tarbiya kabi asosiy funksiyalar bilan cheklangan. Rollarning an’anaviy “to‘plami”: o‘qituvchi, metodist, tashkilotchi, tarbiyachi, murabbiy.	Pedagogik faoliyatning “maydoni” “rivojlantiruvchi faoliyat” mehnat funksiyasi va o‘qituvchi ilmiy mehnati tavsifini kiritish orqali kengaytirildi. “Maqom”ning yanada kengayganligi: o‘qituvchi, tarbiyachi, tyutor, moderator, fasilitator, psixolog, ijtimoiy ish xodimi.
Pedagogik faoliyatda ijodkorlik	
Ko‘pincha namuna bo‘yicha, odatga aylanib qoladigan algoritm bo‘yicha harakatlarni bajarish. Pedagogik faoliyatga munosabat odatdagি vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.	Ta’limiy vaziyatlarni baholash, pedagogik jarayonni loyihalash va ijodiy amalga oshirishga qobiliyatlilik va tayyorlik. Pedagogik faoliyatga ijodiy munosabat, kasbiy-shaxsiy o‘sish, izlanish va ilmiy tajriba o‘tkazish predmeti sifatida munosabatda bo‘lish
Ijro va subyektiv sifatlar nisbati	
Tashqi omillarga bog‘liqlik, rasmiy talablarning pedagogik faoliyatning mazmunli jihatni oldida ustuvorligi, faoliyatning borishi va natijalari uchun javobgarlikni tashqi omillarga bog‘lash.	Tashqi omillardan nisbatan mustaqillik, pedagogik faoliyatning mazmunli jihatlarining rasmiy talablar oldida ustuvorligi, faoliyatning borishi va natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olish.
O‘quvchiga bo‘lgan munosabat	
Funksional (obyektga oid, baholovchi, shartli) munosabat: o‘quvchi pedagogik talablar va ularga muvofiqlik darajasi “prizmasi” orqali qabul qilinadi.	Qadriyatli (subyektga oid, nisbatan bahosiz va shartsiz) munosabat: o‘quvchi pedagogik talablarga muvofiqlik darajasidan qat’iy nazar, uning shaxsiy sifatlari “prizmasi” orqali qabul qilinadi.

OTMda pedagogik-psixologik ta’limni takomillashtirishga doir turli yondashuvlarini o‘rganib shunday xulosaga kelindiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish umumiyl va maxsus (o‘quv-analitik, qadriyatga yo‘nalganlik va refleksiv-faoliyatli) pedagogik-psixologik fanlarning ommalashuvi, talabalar o‘quv faoliyati usullarining faollashuvi va o‘qituvchining boshqaruv faoliyati takomillashuvi hisobiga amalga oshadi. Shu bilan birga, pedagogik-psixologik fanlarning ushbu salohiyati yuqorida sanab o‘tilgan komponentlar birligini ko‘zda tutuvchi tizim sifatidagina samarali tatbiq etilishi mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari pedagogik-psixologik fanlarning deontologik imkoniyatini ro‘yobga chiqarishning o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi uch yo‘nalishini ajratib ko‘rsatishga asoslandi. Birinchi yo‘nalish – pedagogik-psixologik fanlarning deontologik asoslarini keng ommalashtirish; ikkinchi – talabalar o‘quv faoliyatini deontologik (kasbiy-ma’naviy tavsifdagi ma’lumotlar bilan boyitish; uchinchi – avvalgi ikki bosqichni tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish. Quyida mazkur yo‘nalishlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Pedagogik-psixologik fanlarning deontologik imkoniyatini ro‘yobga chiqarishning birinchi yo‘nalishi ushbu kurslarning kasbiy-ma’naviy yo‘naltirilgan tarkibiy asoslarini keng joriy etish, ya’ni ommalashtirish bilan bog‘liq. Ommalashtirish deganda, biz ushbu fanlarning kasbiy-ma’naviy asoslarini talaba tomonidan bo‘lg‘usi kasbiy-pedagogik faoliyatda qo‘llash maqsadida o‘zlashtirilishini nazarda tutamiz, ya’ni mazkur fanlardagi o‘quv materiallarining amaliy faoliyatini kuchaytirishni taqozo etib, bu obyektiv kasbiy-axloqiy bilimlarning yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan subyektiv bilimga “aylanishi”ni anglatadi.

Pedagogik jarayonlarga deontologik yondashuv va pedagogik-psixologik fanlarning antroposentrik vazifalarini aniqlashga qaratilgan pedagogik refleksiyani yorituvchi ilmiy adabiyotlarni o‘rganish asosida ushbu soha fanlarining deontologik asoslarini tanlashning quyidagi tamoyillarini aniqlashtirdik: umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarga muvofiqlik; zamonaviy sharoitda refleksiv bilimlarning ahamiyati; eydetik reduksiya (ma’naviy hodisaning har qanday tanqid va baholashdan ozod etilishi, uning shaxsiy mazmunining belgilanishi); qadriyatli-mazmunli yo‘nalganlik (har bir talabaning mustaqil ta’lim mohiyatini anglashi, ma’lumotlarning hamma uchun ochiqligi);

fenomenologik reduksiya (muayyan qadriyatni ajratib olish va unga e'tiborni qaratish, o'quv materialini boyitish uchun foydalanish mumkin bo'lgan, yagona talqinga ega bo'limgan, talabaning ijodkorligini rivojlantiradigan fenomenal dalillarni qo'shish).

Pedagogik-psixologik fanlar, kurs, bo'lim, mavzularning deontologik imkoniyatiga talabalar e'tiborini qaratish uchun biz kasbiy-ma'naviy tavsifdagi o'quv materiallarini ishlab chiqdik. Bular esa, hikmatli so'zlar, ertak, afsona, maqollar, maxsus savollar, pedagogik va badiiy asarlardan parcha, tasvir, video-audio materiallardan iborat.

Pedagogik-psixologik fanlarni biz quyidagi guruhlarga ajratdik: asosiy kurslar ("Umumiy pedagogika" va "Umumiy psixologiya"); integrasiyalashgan kurslar ("Tarbiya", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Ijtimoiy pedagogika", "Ijtimoiy psixologiya"); mini-kurslar ("Pedagogik aksiologya", "Amaliy pedagogika", "Muloqot psixologiyasi", "Ijod psixologiyasi").

Bundan tashqari, biz tajriba-sinov ishlari jarayonida tadqiqotchilikka doir shakllarni ham ko'zda tutdik (autodiagnostika, individual va jamoaviy ma'ruzalar tayyorlash, tadqiqot ishlari himoyasi).

Malakaviy pedagogik amaliyot oldi konferensiyasida pedagogik-psixologik fanlarni o'qib tugatgan 4-kurs talabalariga (180 nafar) qator savollarga javob berish taklif etildi:

1. Mazkur fanlarni o'qib-o'rgangandan so'ng, pedagogik-psixologik fanlarning ta'limiy va bilishga doir ahamiyati o'z kuchini saqlab qoladimi? a) shubhasiz, saqlab qoladi; b) qisman saqlab qoladi; v) deyarli saqlab qolinmaydi; g) javob berishga qiynalaman.

2. Pedagogik-psixologik fanlarni o'rganish natijalari bo'yicha o'zingiz uchun qanday aniq xulosalar chiqardingiz: a) umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda o'zining ma'naviy-axloqiy xulq-atvorini ongli boshqarish; b) qiziqarli ishlarni bajarishda ma'naviy-axloqiy tanlov vaziyatini boshqarish; v) shaxsiy axloqiy me'yorlar ustidan nazorat o'rnatish; g) sharoitga qarab harakat qilish.

3. Olamga va boshqa kishilarga munosabat xarakteriga ko'ra pedagogik-psixologik fanlar qanday yo'nalanlikka ega: a) ma'naviy (hayot mazmunini izlab topishga intilish); b) integral (boshqalarga qadriyatli munosabatda bo'lish, yaxshilik qilishga intilish); v) guruhiy yo'nalanlik (ma'lum bir guruhga mansublikni ifoda etadi); g) pragmatik (o'zining foydasini ko'zlash, naf ko'rishga harakat qilish).

4. Siz o'zingizni qaysi guruhga mansub deb hisoblaysiz:

a) insonparvar (inson farovonligiga xizmat qilish, ma'naviy-ijodiy qadriyatlarga egalik); b) guruhiy faoliyatga yo'nalgan (guruuhning ehtiyojlari, qiziqishlarini qondirishga intilish); v) egosentrist (faqat o'zini o'yash, o'zi haqida qayg'urish); g) javob berishga qiynalaman.

5. Sizning shaxsiy rivojlanishingizni qaysi sohasiga pedagogik-psixologik fanlarni o'rganish katta ta'sir ko'rsatdi: a) anglash, o'z-o'zini anglash (oliy qadriyatlarga yo'nalanlik – go'zallik, yaxshilik, haqiqat); b) xulq-atvor (o'z xulq-atvorini boshqarish qobiliyati, umumahamiyatli qadriyatlar asosida o'z xulq-atvorini boshqarish); v) empatik histuyg'ular (emosional holatini boshqa kishilar bilan o'rtoqlashish); g) javob berishga qiynalaman.

Mazkur savollarga berilgan javoblar bitiruvchi kurs talabalarining pedagogik-psixologik fanlarning aksilogik ahamiyatini anglay olishini ko'rsatdi, biroq har bir savolga o'qituvchining tushuntirishi orqali javob berishdi. Turli variantlar orasidan tanlangan javoblar mazkur fanlarning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Umuman olganda savollarga berilgan javoblar bitiruvchi kurs talabalariga xoslikni ifoda etdi. Ma'naviy qadriyatlarni ular amaliy ahamiyatlilik bilan bog'lab izohlashdi, ya'ni quyidagi fikrlarni bildirishdi: tartib-intizomga rioya qiladigan odamlarni qadrlaydigan va qabul qiladigan kishilar bilan muloqot qilish oson; yordamga shay turadigan do'stlar ko'payadi; yashash osonlashadi, vijdon qiyalmaydi.

Yuqriddagi singari savollar shunday xulosaga kelishga imkon berdiki, pedagogik-psixologik fanlarni o'rganish jarayonida talabalar tomonidan egallangan bilimlar mazkur kurslar mazmuni maxsus tashkil etilgan sharoitda shaxsiy ahamiyat kasb etadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, professor-o'qituvchi va talabalarning o'zaro aloqador va o'zaro bog'liq, shuningdek, ta'lim oluvchilarning atrof-olam va boshqa kishilarga tashabbuskor, faol, yetakchi, yo'naltiruvchi shaxsiy-qadriyatga yo'naltirilgan munosabati tizimi sifatida mazkur fanlar mazmuni bilan ishlashga muvofiq keluvchi pedagogik mexanizm zarurdir.

Pedagogik-psixologik fanlar mazmuni bilan ishslashning dastlabki bosqichida ularning deontologik imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish nuqtai nazaridan va yuqorida sanab o'tilgan funksiyalarni hisobga olib, o'rganilayotgan materialning kasbiy axlobi bilan bog'liq jihatlariga tizimli ravishda e'tibor qaratishga imkon beruvchi savollar ishlab chiqildi. Bu esa, shuningdek, talabalarga o'rganilayotgan materialning axloqiy mohiyatini anglay olishi hamda kasbiy-ma'naviy bilimlarning

shaxsiy ahamiyat kasb etishiga yordam beruvchi aniq savollar ustida ishslash zaruratini yuzaga keltirdi. Pedagogik-psixologik fanlarning turli bo‘lim (modul) va mavzularini ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar jarayonida o‘rganish uchun qo‘llaniladigan universal savollar ishlab chiqildi:

1. Mazkur mavzuni (modul) o‘rganish jarayonida Siz tomoningizdan egallangan bilimlar qanday ta’limiy va bilishga doir ahamiyatga ega?
2. Mazkur mavzularni (modul, o‘quv savollari) o‘rganganingizdan keyin Sizda inson haqidagi qanday tasavvurlar paydo bo‘ldi?
3. O‘rganilgan mavzu asosida Abdulla Avloniyning yaxshi va yomon xulqlarga doir fikrlarini tushuntirib bering.
4. Quyidagi fikrlarning uzluksiz ma’naviy tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuv bilan qanday aloqadorligi mavjud: “Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi”.
5. Mavzuni o‘zlashtirish jarayonida Siz qanday ma’naviy qadriyatlar haqida fikr yuritdingiz?
6. Mazkur mavzular mazmuni insonga o‘zining xulq-atvorini mustaqil baholash va boshqarish ehtiyojini hosil qiladimi?
7. Sizning fikringizcha, pedagog umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lashi va o‘zining pedagogik faoliyatida “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur” hikmatli so‘ziga amal qilishi kerakmi?
8. Mazkur mavzu mazmuni kasbiy yoki biror bir faoliyatning insonparvar, qadriyatli munosabatni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadimi?
9. Sizning fikringizcha, umuminsoniy qadriyatlar bilan o‘zaro uyg‘un bo‘lish uchun qanday shaxsiy ehtiyojlar (ijtimoiy, ma’naviy) ham mavjud bo‘lishi zarur?
10. Mazkur mavzular mazmuni olamga va insoniyatga nisbatan qanday munosabatlarni paydo qiladi? a) ma’naviy (hayot mazmunini izlab topishga intilish); b) integral (boshqalarga qadriyatli munosabatda bo‘lish, yaxshilik qilishga intilish); v) guruhiy yo‘nalganlik (ma’lum bir guruhga mansublikni ifoda etadi).
11. O‘rganilgan mavzular mazmuni Sizga o‘quvchilar oldidagi ma’naviy burchni anglash imkonini beradimi?
12. Bo‘lajak pedagog sifatida Siz o‘zingizni qaysi guruhga mansub deb hisoblaysiz? a) insonparvar (inson farovonligiga xizmat qilish, ma’naviy-ijodiy qadriyatlarga egalik); b) guruhiy faoliyatga yo‘nalgan

(guruhnning ehtiyojlari, qiziqishlarini qondirishga intilish); v)  
egosentrist (faqat o‘zini o‘ylash, o‘zi haqida qayg‘urish).

13. Sizning fikringizcha, faqat o‘zi haqida o‘ylash, o‘zi to‘g‘risidagina qayg‘urishni egosentrism deb hisoblamaslik mumkinmi?

14. Mazkur mavzuning qanday mazmun bilan aloqador komponentlari oliy qadriyatlar – Go‘zallik, Ezgulik, Haqiqatni anglash imkonini beradi?

15. Mazkur mavzularni o‘rganish jarayonida o‘zlashtirilgan axborotlar Sizga o‘z xulq-atvoringizni boshqarish, umumahamiyatga ega qadriyatlar asosida xatti-harakatlaringizni mustaqil tartibga solishga qandaydir ta’sir ko‘rsatadimi?

Mazkur savollardan o‘rganilayotgan mavzuga mos ravishda foydalanildi. “Pedagogik mahorat” modulining “Pedagogik nizolar” mavzusini o‘rganish jarayonida ulardan ikkitasi tanlab olindi: 1. Bo‘lajak pedagog sifatida Siz o‘zingizni qaysi guruhga mansub deb hisoblaysiz? a) insonparvar (inson farovonligiga xizmat qilish, ma’naviy-ijodiy qadriyatlarga egalik); b) guruhiy faoliyatga yo‘nalgan (guruhnning ehtiyojlari, qiziqishlarini qondirishga intilish); v) egosentrist (faqat o‘zini o‘ylash, o‘zi haqida qayg‘urish). 2. Mazkur mavzularni o‘zlashtirish jarayonida o‘zlashtirilgan axborotlar Sizga o‘z xulq-atvoringizni boshqarish, umumahamiyatga ega qadriyatlar asosida xatti-harakatlaringizni mustaqil tartibga solishga qandaydir ta’sir ko‘rsatadimi? Biroq seminar mashg‘ulotlari jarayonida bir nechta savollar muhokamasiga e’tibor qaratildi.

“Tarbiyaviy ishlar metodikasi” fanining “Tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish yo‘llari” mavzusi bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlarida quyidagi savollardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblandi:

1. Mavzuni o‘zlashtirish jarayonida Siz qanday ma’naviy qadriyatlar haqida fikr yuritdingiz?

2. O‘rganilgan mavzular mazmuni Sizga o‘quvchilar oldidagi ma’naviy burchni anglash imkonini beradimi?

3. Mazkur mavzular mazmuni insonga o‘zining xulq-atvorini mustaqil baholash va boshqarish ehtiyojini hosil qiladimi?

Professor-o‘qituvchilarning fikricha, biz tomonimizdan taklif etilgan universal savollardan barcha pedagogik-psixologik fanlarni o‘rganishda, shu jumladan “Umumiy psixologiya” fanining “Idrok”, “Xotira”, “Tafakkur” kabi murakkab mavzularini ham o‘zlashtirishda samarali foydalanish mumkin. Jumladan, mazkur mavzularni o‘rganish

jarayonida quyidagi savollarni muhokama qilish taklif qilindi:

1. Mazkur mavzularni (modul, o‘quv savollari) o‘rganganingizdan keyin Sizda inson haqidagi qanday tasavvurlar paydo bo‘ldi?

2. Mazkur mavzular mazmuni insonga o‘zining xulq-atvorini mustaqil baholash va boshqarish ehtiyojini hosil qiladimi?

3. Mazkur mavzularni o‘zlashtirish jarayonida o‘zlashtirilgan axborotlar Sizga o‘z xulq-atvoringizni boshqarish, umumahamiyatga ega qadriyatlar asosida xatti-harakatlaringizni mustaqil tartibga solishga qandaydir ta’sir ko‘rsatadimi?

Shundan so‘ng, pedagogik-psixologik fanlarning aksilogik salohiyatini maxsus algoritm asosida amalga oshirish bo‘yicha faoliyatni tashkil etish rejalashtirildi, u mazkur fanlarning aksilogik salohiyatini ro‘yobga chiqarishning pedagogik mexanizmini o‘zida aks ettirdi (2.2.1-jadvalga qarang).

### **2.1.1-jadval**

#### **Pedagogik-psixologik fanlarning deontologik imkoniyatlarini hisobga olish asosida professor-o‘qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish algoritmi**

Faoliyat mazmuni	Algoritmik qadamlar ketma-ketligi	Ma’naviy-informasion kompetentlik
1. Biror-bir mavzu ustida ishlaganda bilish predmeti mohiyatini tushunib oling, umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan uning o‘ziga xosliklarini ajrating	Reprezentativ	Tanishuv-tahliliy
2. Mazkur mavzu mazmunida aks etgan ma’naviy-axloqiy me’yorlar va umuminsoniy qadriyatlarni aniqlang	Evristik	Qadriyatli yo‘naltirilgan
3. Umumqabul qilingan me’yorlar, o‘rnatilgan qoidalar, ichki inoni-ixtiyorga asoslangan holda u yoki bu o‘rganilayotgan hodisa, xatti-harakat va xulq-atvorga baho bering	Baholovchi	Qadriyatga yo‘naltirilgan
4. Mavzu mazmunida aks etgan ma’naviy-axloqiy tavsifga ega ahborotning ijtimoiy yoki kasbiy nuqtai nazaridan qanchalik ahamiyatli ekanligini aniqlang, o‘zingizga hammaslak toping.	Refleksiv	Refleksiv-faoliyatga doir

5. Ma'naviy-axloqiy jihatga ega muammo paydo bo'lsa, uni hal etish, shaxsiy va kasbiy qadriyatlar asosida maqsadga erishish yo'lini toping.	Prognostik	Refleksiv-faoliyatga doir
---	------------	---------------------------

Pedagogik-psixologik fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ushbu algoritmdan doimiy ravishda foydalanish ijtimoiy-madaniy va ta'limiy, ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yuzaga chiqarish imkonini berdi. Bu algoritm barcha seminar va amaliy mashg'ulotlarda qo'llanildi hamda talabalarga muayyan fanning birinchi mashg'ulotlarida eslatma sifatida taklif etildi va daftarga jadval ko'rinishida qayd etib qo'yildi. Bu orqali esa, algoritmning barcha bosqichi (reprezentativ, evristik, baholovchi, refleksiv, prognostik) turli material bilan ishslash jarayonida butun mashg'ulot davomida ketma-ketlikda amalga oshirildi.

Biz tomonimizdan taklif etilgan algoritm mashg'ulotlarda dialog, polilog vaziyatlarni tashkil etishga imkon berdi. Talabalar alohida qiziqish bilan o'rganilayotgan mavzularning mazmuni, uning ma'naviy asoslar bilan boyitilganligi ustida fikr yuritishdi. Ayrim mavzular bo'yicha mazkur algoritm bilan mustaqil ishslashning turli variantlari taklif etildi. Masalan, "Ijtimoiy pedagogika" fanida bolaning sosiumda rivojlanishi bilan bog'liqlikda u yoki bu sosiumga xos qiziqish va qadriyatlarni guruhshtirish taklif etildi.

Shuningdek, ta'limiy tajriba-sinov ishlari jarayonida o'rganilayotgan mavzuning refleksiv pozitsiyaga doir mazmuni uch blok-modulga ajratib olindi: yo'naltiruvchi, baholovchi va amaliy.

Yo'naltiruvchi blok talabalarning ma'naviy-kasbiy ehtiyojlarini faollashtiradi. Mazkur blokka insonparvar qadriyatlar nuqtai nazaridan kasbiy faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq umumiyligi pedagogika, ijtimoiy pedagogika, tarbiyaviy ishlar metodikasi kiritildi.

Ikkinci – baholovchi blokka ongli ma'naviy-kasbiy tanlov asosida shaxsda qadriyatli munosabatni tarkib toptirishga imkon beruvchi pedagogik-psixologik fanlardagi mavzular kiritildi.

Uchinchi – amaliy blokda subyekt faolligini oshirishga (o'rganilayotgan fanlar bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish) e'tibor qaratildi.

Mazkur paragrafdagi materiallarni umumlashtirish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Pedagogik-psixologik fanlarni o'rganish jarayonida ularning

deontologik imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish universal pedagogik usul va vositalardan foydalanishni talab etadi.

2. Mazkur fanlarning imkoniyatini ro‘yobga chiqarishning uch yo‘nalishi aniqlashtirildi:

birinchi: pedagogik-psixologik fanlarning kasbiy-axloqiy mazmunini kengaytirish. Ularning deontologik jihatlarini aniqlash uchun quyidagi tamoyillar belgilab olindi: umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg‘unligi, zamonaviy sharoitda kasbiy-ma’naviy bilimlarning ahamiyati, fenomenologik reduksiya (ongning tabiiy ustakovkalardan xoli bo‘lishi), eydetik reduksiya (dalillardan shaxsiy anglangan mohiyatga o‘tish), qadriyatga yo‘nalganlik;

ikkinchi yo‘nalish pedagogik-psixologik fanlar mazmunida aks etgan kasbiy ma’naviyatga doir axborotlar ustida ishlashga doir talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtirish bilan bog‘liq tarzda amalga oshirildi. Buning uchun istalgan mavzuni o‘zlashtirish, ham professor-o‘qituvchi, ham talaba tomonidan o‘rganilayotgan materialning kasbiy ma’naviyat bilan aloqador mazmunini anglash imkonini beruvchi universal savollar ishlab chiqildi. Pedagogik-psixologik fanlarning deontologik imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha ishni tashkil etish algoritmi talabalarning e’tiborini ijtimoiy-madaniy va ta’limiy, ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarning o‘zaro aloqadorligiga jalb etishga to‘liq imkon berdi;

uchinchi yo‘nalish maxsus ishlab chiqilgan algoritm asosida pedagogik-psixologik fanlarning deontologik imkoniyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha professor-o‘qituvchining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishni ko‘zda tutdi. O‘rganilayotgan mavzuning kasbiy ma’naviyatga doir mazmunida uch integrallashgan blok (yo‘naltiruvchi, baholovchi, amaliy) ajratib olindi.

## **2.2-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish modeli**

“Model” atamasi pedagogik adabiyotlarda ma’lum darajada yaqqol, definitiv, ko‘rib chiqish va amaliy harakatlar uchun oson bo‘lgan aniq tuzilma; xayolan tasavvur qilingan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim, ya’ni u tadqiqot obyekti o‘rnini shunday o‘zgartirishga qodirki, uni o‘rganish orqali obyekt haqida yangi ma’lumotlarga ega bo‘ladi; betakror tizimning muhim xususiyatlarini ifoda etadigan hamda ilmiy o‘rganish jarayonida aslini o‘rnini bosadigan obyektlar va belgilar

tizimi sifatida ta’riflanadi. Model asl mavjudning tuzilmasini takrorlaydi, uni soddalashtiradi, eng asosiy jihatlarini o‘zida aks ettiradi; u hodisaning umumlashgan aksi bo‘lib xizmat qiladi; [98; 512-b] sun’iy ravishda yaratilgan chizma, ramziy ifodalar va formulalar ko‘rinishidagi namuna hamda o‘rganilayotgan obyekt yoki hodisaga yaqin bo‘lgan holda, ushbu obyekt elementlarining tuzilishi, xususiyatlari, o‘zaro aloqa va munosabatlarini soddalashtirilgan shaklda aks ettiradi; bilimning ma’lum bir sohasidagi dalillar, narsa-hodisalar va munosabatlarni eng ko‘rgazmali moddiy tuzilma shaklida aks etadi.[50; 21-26-b]

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, model o‘rganilayotgan hodisani amaliyatda ideal tarzda amalgalashuvdan maqsadida tadqiq qilinayotgan voqyelik obyektlari to‘plamini (ya’ni uni tizimda ko‘rsatish) ko‘rgazmali va oshkora namoyish etishga imkon beradi.

Modellashtirish – bu modellarni yaratish jarayoni bo‘lib, “o‘rganilayotgan hodisalarni aniqlash uchun yaqqollikning eng yuqori va o‘ziga xos shakli”; “jarayon va holatlarni ularning haqiqiy yoki ideal modellaridan foydalangan holda o‘rganishning nazariy usuli” deb tushuniladi. [98; 512-b]

Binobarin, modellashtirish jarayon va hodisalarni bilvosita o‘rganish usuli sifatida qaraladi, bunda belgili, abstrakt modellar nazariy, narsa-buyumli modellar empirik daraja tarzida qo‘llaniladi.

Modellashtirish tizimli tahlilning to‘rt, ya’ni morfologik, tuzilmali, funksional, genetik turlarini amalgalashuvdan imkon beradi va ular bosqichma-bosqich amalgalashuvdan tizimning rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Tadqiqotda S.I.Arhangelskiy tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar asosida bo‘lajak o‘qituvchilar refleksiv pozitsiyani rivojlantirish modelini ishlab chiqish maqsad etib belgilandi. Asosiy tamoyil sifatida yaxlitlik belgilab olindi, u tashkiliy-tasviriy va belgili-ramziy ifodaviylikni aks ettirishga xizmat qiladi.


Didaktik model ta’lim nazariyasining asosiy qonuni – mazmunli, jarayonli va faoliyatli jihatlarning birligi va o‘zaro aloqadorligi hamda umumdidaktik qonuniyatlar bilan uyg‘un bo‘lib, ular uning tarkibiy asoslari orasidagi obyektiv qonuniyatlarga asoslangan bog‘liqlik munosabatlarni belgilaydi.[24; 368-b]

Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqish uchun tizimli yondashuvdan foydalanildi. Mazkur jarayonda o‘zida metodologik vositalar majmuasini aks

ettiruvchi tizimli yondashuv vositasi sifatida xizmat qilib, murakkab tizimlarni o‘rganish va ularni modellar ko‘rinishida taqdim etish uchun foydalaniladi. Tizimli yondashuv har qanday tizimni uch bosqichda loyihalashni nazarda tutadi (2.1.1-rasmga qarang).

Birinchi bosqichda tizimning o‘zi tahlil qilinadi. Tadqiqot obyektini o‘rganish amalga oshiriladi, uning natijasi ko‘rib chiqilayotgan jarayonning kognitiv modeli hisoblanadi. Ushbu bosqichga doir faoliyatning mazmuni tizimni alohida ajratib olish; maqsad va vazifalarni aniqlashtirish; tizimni tarkibiy asoslar majmui sifatida taqdim etish, shuningdek, tarkibiy asoslarning har birini va ular o‘rtasidagi aloqadorlikni tekshirishdan iborat.

Ikkinci bosqichda modelning birlashtirish amalga oshiriladi. Mazkur jarayonning mohiyati metodologik qoidalarni belgilashdan iborat bo‘lib, natijada modelni loyihalashtirish jarayoni umumlashadi va yaxlit ko‘rinish kasb etadi. Shuningdek, mazkur bosqichning yana bir jihatni alohida komponentlarning xususiy modellar, ularning o‘zaro aloqalarini hosil qilish va ketma-ket tarzda loyihalashtirilayotgan jarayonning yaxlit modeliga o‘tishdan iboratdir. Ushbu bosqich yakunida jarayon modeli aniqlashtiriladi.



**2.1.1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini loyihalash bosqichlari**

Uchinchi bosqichda modelning tizimga muvofiqligi tekshiriladi. Ushbu jarayon modelni ishlab chiqishning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Bosqichning maqsadi – model va o‘rganilayotgan tizimning muvofiqligini ta’minlashdan iborat bo‘lib, u ko‘rib chiqilayotgan jarayonning samarali faoliyatining belgilangan sharoitda tavsiflashning aniqligiga erishish uchun zarurdir. Tadqiqotning mazkur bosqichida ishlab chiqilgan modelni majmuaviy pedagogik shart-sharoitlarni amaliyotga joriy etish orqali tajribada sinovdan o‘tkazdik.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini loyihalashtirish quyidagi algoritmga muvofiq amalga oshirildi:

- 1) modellashtirilayotgan tizim doirasini aniqlash;
- 2) modelni loyihalashtirish maqsadini belgilash, jarayonning maqsad va vazifalari bilan uyg‘unligini ta’minlash;
- 3) ko‘rib chiqilayotgan jarayon subyektlarini belgilash;
- 4) bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish uchun zarur tamoyillarni asoslash;
- 5) bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning mazmuni, metod va vositalarini aniqlash;
- 6) modelni amalga oshirish orqali erishiladigan natijani rejulashtirish, uning diagnostik metod va vositalarini asoslash;
- 7) maqsadga erishish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish.

Modellashtirilayotgan tizim chegaralarini belgilash tartibi uning obyekti va predmetini tanlashga tenglashtiriladi. Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modellashtirish obyekti bo‘lib, ushbu jarayon modeli esa, uning predmeti bo‘lib xizmat qildi.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini loyihalashtirishda tizimli tahlil etish tamoyiliga asoslanildi. Chunki har qanday obyektni yaratish maqsadni aniqlash va rivojlantirish bilan boshlanadi. Maqsadni aniqlash loyihalashtirishda muhim jihat hisoblanadi, chunki maqsad bu boshqa tarkibiy asoslarga nisbatan yo‘naltiruvchi asosdir. Maqsad shuningdek, tizim tarkibiy asoslari mohiyatini yoritib berishda ham asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Maqsad rivojlanish va o‘zgaruvchanlik o‘rtasidagi aloqadorlik, ko‘zda tutilayotgan natijani aniq tushunishni taqozo etadi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini yaratish uchun maqsad, natija aniqlashtirilishi,

unga erishish yo'llari (mazmuni, shakl, metod, vositalari) belgilab olinishi lozim.

Yuqoridagi jihatlar bilan bog'liq holda, bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelining quyidagi bloklari aniqlashtirildi: maqsadli, nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonli va natijaviy. Mazkur bloklarning har biri bir qancha jihatlarni o'z ichiga olib, quyida ularning mohiyatini yoritib beramiz. Taklif etilayotgan model 2.1.2-rasmda o'z ifodasini topgan (2.1.2-rasmga qarang).

Birinchi – maqsadli blok deb nomlangan bo'lib, mazkur jarayonni tavsiflashga imkon beruvchi asosiy, istiqbolli va tezkor maqsadlar belgilab berilgan.


Model mazmuni va uning komponentlarining o'zaro aloqasi asosiy maqsad, ya'ni bo'lajak o'qituvchisining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish bilan aloqadorlikda aniqlashtirildi. Refleksiv pozitsiyaning rivojlanganligi deganda, uning barcha tarkibiy asoslarining (motivasion-qadriyatli, kognitiv va faoliyatli) qaror topganligini tushuniladi. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyasining rivojlanganligini baholash mezonlari va darajalari esa, natijaviy blokda o'z aksini topgan.

Refleksiv, tizimli, aksiologik, shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonining metodologik asosi hisoblanib, ular asosida refleksiv pozitsiya rivojlanadi.

Refleksiv pozitsiya shaxsiy tajribaga asoslangan va faoliyatda namoyon bo'ladigan shaxslararo munosabatlar tizimidir. Shuning uchun mazkur jarayonni amalga oshirish bo'lajak o'qituvchiga shaxsiy tajribani namoyon etish imkonini beradigan bir-birini to'ldirib boruvchi metodologik yondashuvlarga asoslanishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda refleksiv, tizimli, aksiologik, shaxsiy-faoliyatga doir yondashuvlardan majmuaviy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Quyida mazkur metodologik yondashuvlarga to'xtalib o'tamiz.

Refleksiv yondashuv quyidagi xususiyatlari bilan tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etadi: refleksiv yondashuv, bir tomondan, o'rganilayotgan voqyelikning moddiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlasa, boshqa tomondan, uni muayyan maqsadlarga erishish va amaliy vazifalarni hal qilish uchun texnologik jihatdan o'zlashtirish hamda ma'lum bir faoliyat orqali o'zgartirishga imkon beradi; refleksiv yondashuv tahlil etish singari voqyelikni o'rganishni ta'minlaydi va bu borada olingan bilimlarni bo'lg'usi pedagogik faoliyatda qo'llash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi;



## 2.1.2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish modeli

refleksiv yondashuv – bu refleksiya va amalga oshirilgan jihatlar tahliliga asoslangan, ya’ni nimaga ega bo’lganligi (bilim, tajriba) va qanday natijaga erishilganligini taqqoslash, shuningdek, ushbu natijaning shaxs uchun ahamiyatini hisobga oladigan yondashuvdir; refleksiya haqidagi falsafiy, psixologik, pedagogik jihatlarni tayanch atama sifatida o’zida mujassam etgan zamonaviy ilm-fanning metodologik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, refleksiv yondashuv insonning o‘zi, uning ichki dunyosi va boshqalar bilan munosabatlarda o‘z o‘rnini belgilash kabi tug‘ma qobiliyatga yo‘naltirilgandir; faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun individual ongning mavjudligi va uni shaxs tomonidan faol ravishda qayta o‘zlashtirish; bajarayotgan faoliyatiga nisbatan “tashqi” pozitsiyani egallash va kelgusi faoliyat rejasini keyinchalik loyihalashtirish orqali natijani tahlil qilish imkoniyati; boshqa odamning fikrlari, hissiyotlari va harakatlarini o‘rganish va tushunish; refleksiv jarayonlarni faoliyatdan ajralmagan holda tahlil qilish; voqyelikka insonning shaxsiy baholovchi munosabatini rivojlantirish; individning axloqiy sifatlarini rivojlantirish, boyitish va mustahkamlash, uning qadriyatlarga ongli munosabati; natijalar uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan faoliyat markazi sifatida o‘ziga nisbatan ongli munosabat; umuman shaxsning rivojlanishi va uning olam bilan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatishi orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun sharoitlarni ta’minlash; sabab-natija aloqasining o‘rnatalishi bilan chuqur hamda to‘laqonli tahlilni o‘tkazish uchun ortga nazar solish va turli xil pozitsiyalarni egallahsga imkon beradigan o‘z-o‘zini anglash mexanizmining mavjudligi.[101; 447-b]

Tizimli yondashuv ham tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u o‘zaro teng o‘rinni egallagan holda, boshqa yondashuvlarning amalga oshishini belgilab beradi.

Tizimli yondashuv bu obyektni tizim sifatida namoyish etish, o‘rganish va tashkillash bilan bog‘liq zamonaviy ilm-fanning metodologik yo‘nalishidir.

Tizimli yondashuv tadqiqot obyektini ma’lum bir yaxlitlik, barqarorlik va uning ichki tashkil etilishini belgilaydigan tuzilmaviy komponentlar, funksional aloqalar va munosabatlar yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Tizimli yondashuvning asosiy tushunchalari tizim, aloqa, munosabat, tuzilma, yaxlitlikdir. “Tizim” va “tuzilma” tushunchalari ham mazkur tadqiqot uchun o‘ziga xos metodologik ahamiyatga ega. Chunki bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv

pozitsiyasi bu ma'lum bir tuzilishga ega bo'lgan tizimdir. Buning uchun quyidagi qoidaga asoslanildi: "Tizim – bu ma'lum xususiyatlar asosida tanlangan, umumiylar faoliyat maqsadi, boshqaruv birligi bilan birlashtirilgan va atrof-muhit bilan ajralmas birlik sifatida o'zaro aloqaga kirishadigan o'zaro aloqador unsurlarning tartiblangan yig'indisidir".

Tizimli yondashuvning yana bir tushunchasi – bu "tuzilma" sanalib, u olimlar tomonidan ma'lum tartiblilik, tarkibiy asoslari o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni tashkil etish sifatida izohlanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, agar tizim o'zaro bog'liq elementlarning majmui bo'lsa, unda tuzilma unsurlarning o'zaro aloqalari va munosabatlari yig'indisi bo'lib, bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasi ta'rifida o'z aksini topadi. Tuzilmaning ta'rifi tizim unsurlari o'rtasidagi aloqa va munosabatlarning tadrijiy yig'indisi sifatida biz uchun eng dolzarbdir.

Tizimli yondashuv bo'lajak o'qituvchi shaxsini o'z-o'zini anglash va o'z- o'zini namoyon qilish shartlarini maxsus modellashtirishga imkon beradi. Bu esa, tadqiqotning maqsad va vazifalariga mos keladi.

Tadqiqot uchun aksiologik yondashuv muhim ahamiyatga ega, chunki u bo'lajak o'qituvchini shaxs sifatida rivojlantirishga imkon berib, pedagogika faniga, ularni o'rganish jarayoni, pedagogik texnologiya va mahoratga qiziqish va ijobjiy munosabatni rivojlantirish imkoniyatlarini izlab topishni ustuvor maqsad sifatida belgilaydi.

Aksiologik yondashuvning asosini o'zaro hamkorlikka asoslangan dunyoning insonparvarlik tushunchasi tashkil etadi. Insonning ichki dunyosi yaxlit olam manzarasini ifoda etib, u jamiyatning eng yuqori qadriyati, uning rivojlanish mazmuni va maqsadi hisoblanadi.

Shaxsiy-faoliyatga doir yondashuvga doir tadqiqotlarni tahlil qilish uning bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga egaligini ko'rsatdi.

Shaxsiy-faoliyatga doir yondashuv eng avvalo, faoliyat usullarini samarali rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchining shaxsini maqsadli tarzda rivojlantirishga yordam beradi: refleksiya va o'z-o'zini boshqarishga xizmat qiladi, o'z-o'ziga ijobjiy munosabat hamda o'z-o'zi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarni tarkib toptiradi. Shu bilan birga shaxsnинг qat'yo nuqtai nazarini ham qaror toptirishga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayoni ham tashqi (o'qituvchining o'rgatuvchilik ishi), ham ichki (mustaqil bilish faoliyati) tavsifga ega bo'lishi mumkin. Bizningcha, ikki

yoqlama faoliyat jarayonini hisobga olish maqsadga muvofiq. Chunki ularning o‘zaro hamkorlik mexanizmi boshqaruvchanlik tavsifiga ega bo‘lib, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi birgalikdagi faoliyat hamda o‘zaro aloqalarning murakkab yig‘indisi shakl, metod va vositalari tizimi orqali amalga oshiriladi.

Shaxsiy-faoliyatga doir yondashuv shaxslararo munosabatni refleksiv tarzda boshqarishni talab qiladi. O‘zaro hamkorlikning mohiyati shundan iboratki, o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini tartibga olish, o‘z-o‘zini nazorat qilish ehtiyoj va qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir.[40; 204-b]

Shaxsiy-faoliyatga doir yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy sifatlarini shakllantirilisha e’tiborni qaratishni nazarda tutadi hamda uni amalga oshirish o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tuzilmasi sifatida tushuniladi, uning asosini subyekt-subyekt munosabatlari tashkil qilib, kasbiy yo‘naltirilgan o‘quv-bilish faoliyati sharoitida muammolarning yechimini birgalikda izlash bilan ham bog‘liqdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv pedagogik faoliyatning maqsadi sifatida subyetga munosabatni shakllantiradi, tashqi pedagogik ta’sirning bilvositaligini hisobga oladi, uning faolligiga (o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tashkillash, mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini boshqarish) tayanib, insonning shaxsiy ichki shartlari va individualligi orqali yangicha mazmun kasb etadi. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik bo‘lajak o‘qituvchilar tomonidan mazkur mexanizmlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilganligi uni shaxsga yo‘naltirilgan jarayon sifatida tavsiflaydi.

Shaxsiy funksiyalarini faollashtirish uchun yaratilgan va o‘rganilayotgan subyekt kechinmalarining shaxsiy tajribasiga asoslangan shart-sharoitlar shaxsga yo‘naltirilgan tayyorgarlik mohiyatini ochib beradi. Olimlar shaxsiy tajribani insonning umumiy xususiyati sifatida o‘ziga xos shaxsiy jihatlariga ega, dolzarb va rivojlanib boradigan holat sifatida baholashadi. Mohiyatni ochib berish bilan bog‘liq ichki aloqadorlikka ega bunday tajriba ta’lim mazmunining o‘ziga xos tarkibiy asosni ifoda etadi va “u har doim shaxsdan ajralmagan holda qadriyatli ustakovkalar, kechinmalar, qayta anglash va boshqalar ko‘rinishida mavjud bo‘lib turishi bilan tavsiflanishi mumkin, bundan tashqari, inson o‘zi uchun ahamiyatga ega hodisa va voqyeaga duch keladigan vaziyatni avvaldan aniq belgilab bo‘lmaydi”. [70; 244-b]

Shaxsiy tajribani narsa-buyum bilan bog‘liqlikda mantiqiy yoki verbal shaklda qabul qilib bo‘lmaydi, chunki u tahlil qilinishi, idrok etilishi, undan xulosa chiqarilishi kerak bo‘lgan holat sifatida mavjuddir.[108; 152-b]

A.V.Zelensova o‘z tadqiqotida shaxsiy tajribani shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunining komponenti sifatida talqin qiladi va tarkibiy asoslari o‘rganilayotgan predmet materiallari bilan belgilanmaganligini, balki o‘quv jarayoni subyektlarining shaxsiy rivojlanishining ichki anglanishi bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. [58; 187-b] Bunday tajribani o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tushunchalar, tasavvurlar, usullar, harakatlarni bajarish qoidalari, emosional kodlardan (stereotiplar, shaxsiy fikrlar, ustakovkalar) iborat.[134; 31-41-b]

A.K.Osniskiyning fikricha, subyektiv tajriba shaxsiy faollikni amalga oshirishni ta’minlaydigan zaruriy shart-sharoitdir. Subyekt ushbu faollikni mustaqil ravishda rivojlantiradi, tashkil etadi va nazorat qiladi.

A.K.Osniskiy subyektiv tajribaning quyidagi komponentlarini ajratib ko‘rsatadi:

1. Qadriyatga yo‘naltirilgan tajriba. Bunday tajriba qiziqishlar, axloqiy me’yorlar, ideallar, e’tiqodlar, imkoniyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq.

2. Refleksiya tajriba. Inson ushbu tajribani o‘z imkoniyatlari va moddiy olamdagи ehtimoliy o‘zgarishlar haqidagi bilimlarni faoliyat talablari hamda undagi hal qilinayotgan vazifalar bilan taqqoslaydi.

3. Odatdagidek faol tajriba. Bunday tajriba dastlabki tayyorgarlik, o‘zgaruvchan ish sharoitlariga tezkor moslashish, sa’y-harakatlarni aniqlash va muvaffaqiyatga erishishning o‘ziga xos darajasiga tayanish bilan bog‘liq.

4. Jarayon bilan bog‘liq tajriba. Ushbu tajriba kasbiy bilim va malakalar, shuningdek, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

5. Hamkorlik tajribasi. Ushbu tajriba hamkorlikdagi faoliyatning boshqa ishtirokchilari bilan muntazam o‘zaro aloqalarni kengaytirish orqali shakllanadi.[90; 265-b]

Yuqorida komponentlarning o‘zaro aloqalari boshqa kishilarning sa’y-harakatlari bilan insonning ongli, maqsadli, faol, tartibga solinadigan nuqtai nazarini qaror toptirishga xizmat qilishini hisobga olib, tadqiqot doirasida shaxsiy yondashuv g‘oyalarini bo‘lajak

o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayonining metodologik asosi sifatida qabul qilish o‘rinli bo‘ladi.

I.S.Yakimanskaya “ta’limdagi subyektivlik” tamoyilini taklif etgan. Ushbu tamoyil shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining mazmuniga qo‘yiladigan quyidagi didaktik talablar orqali amalga oshiriladi: o‘quv materialining mazmuni orqali o‘quvchining predmetli tajribasi mazmunini aniqlashni ta’minalash, o‘quvchining avvalgi o‘quv tajribasini hisobga olish; bilimlarni uning ko‘lamini kengaytirish, strukturalash, integrasiyalash, predmetli mazmunni umumlashtirish, har bir o‘quvchining shaxsiy tajribasini o‘zgartirishga yordam beradigan usullar bilan bayon qilish; o‘quvchining tajribasini berilayotgan bilimlarning ilmiy mazmuni bilan tizimli ravishda muvofiqlashtirish; o‘quvchini mustaqil ta’lim olish, o‘z ustida ishlashi, o‘z fikrini bildirishga qo‘llab-quvvatlovchi ta’limiy faoliyatni o‘zi tomonidan baholashga undash; o‘quv materialini o‘quvchining topshiriqlarni bajarish, o‘quv vazifalarini yechish orqali tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladigan tarzda tashkil etish; o‘quvchilarini o‘quv materialini ishlab chiqishning eng muhim usullarini mustaqil tanlash va ulardan foydalanishga undash; ularning shaxsiy rivojlanishidagi funksiyalarini hisobga olgan holda o‘quv ishlarining umummantiqiy va maxsus predmetli usullarini ajratib ko‘rsatish; o‘quv jarayoni (o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshirilgan o‘quv-bilish faoliyati) va uning natijasini nazorat qilish va baholashni ta’minalash. [134; 31-41-b] Ushbu talablarga muvofiq, o‘quvchining predmetli tajribasini rivojlantirish va o‘zgartirish jarayoni, albatta, faoliyatda amalga oshiriladi. Harakat usullari va yo‘llarini o‘zlashtirish shaxsiy tajribani rivojlantirishning muhim komponentidir. Shaxsga yo‘naltirilganlik faoliyatli yondashuvning o‘zaro bog‘liq tamoyillariga asoslanadi.

Shaxsiy-faoliyatli yondashuvning faoliyatga doir komponentining asosini mazkur jihatning psixologik nazariyasi bilan bog‘liq qoidalar tashkil etadi: faoliyat subyektga nisbatan ham, faoliyat predmetiga nisbatan ham birlamchi hisoblanadi; subyektni rivojlantirishning asosiy doirasi – bu interiorizasiya, ya’ni tashqi moddiy-hissiy faoliyat shakllari ichki tomonga o‘zgartiriladi; faoliyatni amalga oshirish madaniyat predmeti kabi tabiiy obyekt bilan birga sodir bo‘ladi; inson predmetlar bilan faoliyat shakllarini faqat boshqalarning yordami bilan amalga oshirishi mumkin; faoliyat har doim maqsadga yo‘naltirilgan va produktiv tavsifga ega bo‘ladi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning mohiyatini quyidagilar tashkil etadi: uning ehtiyojlari, motivlari, maqsadlari, harakatlari, nazorat qilish usullari, erishilayotgan natijalar nazorati va tahlili. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv – bu shaxsning rivojlanishi uning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasi, shuningdek ta’lim va tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarning o‘zini ijodiy faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy sinalgan usullarni o‘zlashtirish yo‘llari sifatida sodir bo‘lishini tan olishdir.

G.A.Atanov faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: o‘qituvchi o‘quv jarayonida “o‘quvchilarda faoliyatni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish masalasini hal qilishi” kerak.[26; 160-b]

Quyidagi qoidalar ta’limning faoliyatga yo‘naltirilgan nazariyasining mohiyatini aks ettiradi:

1. O‘qitishning yakuniy maqsadi – bu harakatlar usulini rivojlantirish (muayyan turdagি vazifalarni hal qilishni ta’minlaydigan operasiyalar tizimi).

2. Agar maxsus o‘quv faoliyati sifatida tashkil etilgan bo‘lsagina, harakatlar usulini faqat faoliyat natijasida rivojlantirish mumkin.

3. O‘qitish mexanizmi – bu bilimlarni yetkazib berish emas, o‘quv faoliyatni boshqarishdir.

Shunday kelib chiqqan holda, mazkur tadqiqot uchun quyidagi jihatlar muhimdir: o‘qitishning yakuniy maqsadi – bu harakatlar usulini rivojlantirishdir, shuning uchun ushbu faoliyatni loyihalashtirishni bilimlar tizimini rivojlantirishdan emas, balki kelgusi faoliyatni psixologik tahlil qilishdan boshlash kerak; yakuniy bosqichda bo‘lajak o‘qituvchiga faoliyatning barcha komponentlarini anglashi uchun sharoit yaratish zarur.

Yuqoridagi qoidalar tadqiqot uchun juda muhimdir, chunki ular bo‘lg‘usi kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradi. O‘rganilayotgan hodisa tuzilmasiga maqsadga erishish uchun o‘quv-kasbiy faoliyatning turli vaziyatlarida foydalanish mumkin bo‘lgan faoliyat usullarini kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Tanlangan yondashuvlar o‘z navbatida, bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish tamoyillarini ham belgilab olishni taqozo etadi. Ana shu sababli tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan modelni amaliyatga joriy etish tamoyillariga quyidagilar kiritildi:

1. Refleksiv faollik tamoyili. Ushbu tamoyil o‘z-o‘zini anglash (o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholash), o‘z-o‘zini loyihalashtirish hamda o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarini jalb qilish yordamida bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy mazmunga ega nuqtai nazaridan foydalanishga imkon beradi.

2. Tizimlilik tamoyili. Mazkur tamoyil har qanday pedagogik hodisani aniq belgilangan elementlarga ega tizim sifatida pedagogik jihatdan talqin qilishni nazarda tutadi, ularning o‘zaro aloqalari esa jarayon natijasini belgilaydi.

3. Aksiologik tamoyil. U qadriyatlarning ichki anglanish jarayoniini belgilaydi. Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasi tuzilmasida qadriyatga yo‘naltirilgan tarkibiy qismni hisobga olish orqali, bo‘lajak o‘qituvchining o‘quv-kasbiy faoliyatga qadriyatli munosabatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Subyektivlik tamoyili. Ushbu tamoyil insonga nisbatan bilim, iroda va munosabat tashuvchisi sifatida o‘z huquqini tan olish, erkin tanlov qilish hamda amalga oshirilgan va bajarilgan harakatlarni tushunishni nazarda tutadi. U har bir shaxsning o‘z nuqtai nazarini rivojlantirish va himoya qilish imkoniyatini nazarda tutadi.

5. Faoliyatga yo‘naltirilganlik tamoyil. Ushbu tamoyilga ko‘ra, inson shaxsi faqat faoliyatda shakllanadi, chunki faqatgina faoliyat uning atrof-muhitga munosabati, olamga (odamlar, narsalar, jamiyat, me’yorlar va h.k.) munosabatini ifodalashning faol shakli sifatida har doim o‘zining samarali tarzda namoyon bo‘lish shakllariga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayonining mazmuni mazkur jarayonni motivasion-qadriyatli, kognitiv va faoliyatli tarkibiy qismlar majmui sifatida talqin qilishni taqozo etadi. Rivojlanishning asosi bo‘lib esa, bo‘lajak o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi xizmat qiladi.

Motivasion-qadriyatli komponent bu bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyani rivojlantirish ehtiyojlari, motivlari, ya’ni shaxsning kasb egasi sifatida o‘z-o‘ziga, kasbiy faoliyatga, o‘quvchilarga, pedagogika faniga bo‘lgan munosabatlar tizimidir.

Refleksiv pozitsiyaning motivasion-qadriyatli komponenti bo‘lajak o‘qituvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan vazifalarni hal qilish va ular uchun dolzarb bo‘lgan, ularning o‘z shaxsiy va kasbiy sifatlariga qaratilgan muammolarni muhokama qilish jarayonida shakllanadi; kasbiy dunyoqarashni kengaytirish istagi; kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj (“o‘zib ketish”ga intilish, shaxsiy

o'sish tendensiyalarini amalga oshirish, yanada yaxshiroq natijalarga erishish istagi, o'z mahoratini oshirish, o'zi uchun muhim bo'lgan kasbiy sifatlarni egallash, bo'lajak o'qituvchining idealiga yaqin ijobiy o'zgarishlarga intilish); kasbiy o'z-o'zini anglash zarurati (o'z kasbiy faoliyatni bilan uyg'unlik tuyg'usini ega bo'lish istagi; eng oddiy vazifalarni hal qilishda ham ijodiy yondashish qobiliyati; bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ularning ijobiy Men-konsepsiyasini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishish; o'z-o'zini namoyon etishga qodir shaxs bo'lish istagi, ya'ni har tomonlama, hayotning barcha sohalarida baxtli inson bo'lish); psixologik qulaylikka bo'lgan ehtiyoj; o'quvchilar bilan muloqotga qiziqish (pedagogik munosabatlar); pedagogika faniga qiziqish.

Motivatsion-qadriyatli komponent bo'lajak o'qituvchining o'quv-kasbiy faoliyatining ahamiyatini anglash, uni boshqa har qanday faoliyat turining asosi sifatida tushunish jarayonida shakllanadi. Faoliyatning ijobiy emosional muhiti qadriyatli munosabatni rivojlantirishning zaruriy sharti bo'lib, u faoliyat jarayoniga, o'z qobiliyatlari, ehtiyojlari, o'quv-kasbiy faoliyati sharoitidagi holati va imkoniyatlariga, pedagogika faniga ijobiy munosabatni rivojlantirishga yordam beradi.

Bunga shaxsning qiziqishlari, uning qadriyatlari, irodasi, histuyg'ulari kiradi, ular birgalikda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishga psixologik munosabatni, shuningdek, bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishga psixologik tayyorgarligini aks ettiradi. Ushbu komponent bo'lajak o'qituvchisining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning boshlang'ich nuqtasidir.

Refleksiv pozitsiyaning kognitiv komponenti bo'lajak o'qituvchining ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatli yo'nalishlarini qondirish va rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu komponentning tuzilmasi bo'lajak o'qituvchining psixologik-pedagogik va metodik bilimlari, pedagogik salohiyatining birligini anglatadi.

Refleksiv pozitsiyaning kognitiv komponenti shaxs tomonidan o'zining ichki kuch va imkoniyatlari haqida bilimlarning shakllanishi orqali tarkib topadi. Ya'ni, shaxs o'quv-kabsiy yo'naltirilgan faoliyatning aniq vaziyatlarida o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlarini anglab yetadi; o'quv-kasbiy faoliyatda turli xil masalalarni hal qilishda qo'llaniladigan harakatlarning umumiy usullari; ma'lum bir yosh guruhidagi bolalarning rivojlanishining psixologik hususiyatlari va ular bilan pedagogik munosabatlarga kirishishning mos usullari anglanishini ifoda etadi.

Bo'lajak o'qituvchi refleksiv pozitsiyasining faoliyatli komponenti egallangan bilim va qobiliyatlarni real xatti-harakatlarga aylantirishga imkon beradi, bular kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonning bevosita o'zida aks etadi.

Yuqoridagi barcha ko'nikmalarni tarkib topganligi bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishga amaliy tayyorgarlikni ta'minlaydi. Uning doimiy kasbiy o'sishga qay darajada tayyorligi ushbu komponentning rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, refleksiv pozitsiya bu motivasion-qadriyatli, kognitiv va faoliyatli komponentlarni o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. Har bir komponent tarkibiy elementlar majmuini o'z ichiga oladi, pedagogik munosabat ishtirokchilari uchun o'ziga xos barqarorlik hamda rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish zaruratiga ega bo'lgan o'z-o'zini yo'naltiruvchi, maqsad sari intiluvchi, o'z-o'zini rivojlantiradigan tizim hisoblanadi.

Taklif etilgan modelagi bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish mexanizmi bu refleksiv, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, loyiha, modulli ta'lim texnologiyasi, interfaol o'qitish metodlaridan foydalanish asosida tashkil etilgan o'qitish amaliyoti hisoblanadi. Mazkur metod va texnologiyalar refleksiv va shaxsiy-faoliyatga doir yondashuv qoidalariga mos keladi hamda pedagogika ta'lim sohasi amaliyotida sinovdan o'tgan va bo'lajak o'qituvchilarga o'z shaxsiy qobiliyat va ehtiyojlarini anglash, ongli kasbiy "Men konsepsiya"sinи tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchisining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish uch darajani o'zida ifoda etadi: rivojlanmagan, qisman rivojlangan va rivojlangan. Bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasi darajalariga muvofiq mezonlarni belgilashda refleksiv pozitsiya – bu shaxsnинг faoliyatda namoyon bo'ladigan ongli munosabati qoidasiga tayanildi. Demak, bo'lajak o'qituvchining o'z-o'ziga, pedagogik jarayon ishtirokchilari, "o'qituvchilik" kasbiga, pedagogika faniga ongli munosabati qay darajada shakllanganligi; uning o'quv-kasbiy faoliyati qanchalik mustaqil, ichki motivasiyaga ega ekanligi asosiy mezonlar bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur paragrafda bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasining rivojlantirish modelini loyihalashtirishning asosiy beshta komponenti mohiyati yoritib berildi. Mazkur bobning

uchinchi paragrafda taklif etilgan modelning maqsadiga erishish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

### **2.3-§. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari**

Pedagogik jarayonga shaxsiy yo‘nalganlik, har bir individda tabiatan in’om qilingan layoqat, qobiliyatlarni izlash va rivojlantirish, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik tizimlarni ishlab chiqish bugungi kunda ta’limga qo‘yiladigan talablar, bo‘lajak o‘qituvchilarda metodologik madaniyatni rivojlantirish maqsadida ta’limga an’anaviy yondashuvga o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Pedagogika sohasidagi Davlat ta’lim standartlarini yangilashning asosiy sababi standartlashtirish obyektini o‘zgartirishda aks etadi: o‘qitish mazmuniga qo‘yiladigan minimum talablardan xuddi shunday darajadagi natijalarga erishish zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilarda metodologik madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqot doirasida mazkur jarayonga ta’sir ko‘rsatadigan, shu bilan birga uning samaradorligini ta’minlaydigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi. Ancha yillar ilgari L.S.Vigotskiy “ular hali mustaqil vazifani bajarishga tayyor bo‘lmasada, tegishli psixik xususiyatlarni rivojlantirish uchun avvaldan sharoit yaratishi zarur” ligini qayd etib o‘tgan. [39; 352-b]

“Shart-sharoit” tushunchasi bizning tadqiqotimizda nimagadir bog‘liq holat, biror-bir jarayon amalga oshadigan muhit sifatida talqin qilinadi.[92; 1376 -b]

Demak, pedagogik shart-sharoit ta’lim maqsadiga erishish uchun professor-o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro birgalikdagi faoliyatiga asoslangan maxsus tashkil etilgan muhitni aks ettirishi lozim. “Pedagogik shart-sharoit” tushunchasi bilan birga tadqiqotchilar “tashkiliy-pedagogik sharoit”, “didaktik shart-sharoit”, “psixologik-pedagogik shart-sharoit” atamalarini ham qo‘llashadi. Shuningdek, ko‘pchilik tadqiqotlarda “shart-sharoit” tushunchasi bilan birga “imkoniyat” so‘zini qo‘llash ham ko‘p ko‘zga tashlanadi. Masalan, S.Zoxidova o‘z tadqiqotida “boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy ijtimoiylashtirishning didaktik imkoniyatlari” tushunchasi auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini loyihalashtirish, interfaol ta’limga ustuvorlik berish asosida kasbiy-didaktik moslashuvni

jadallashtirish, innovasion kompetentlikni qaror toptirish mazmuni, samarali shakl, metod va vositalari majmuini o‘zida ifoda etishi haqidagi xulosaga kelgan. [61; 166-b]

Pedagogik shart-sharoit “tizimning shaxsiy va jarayon bilan bog‘liq jihatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi ta’limiy va moddiy-makonga yo‘naltirilgan muhit imkoniyatlari majmui hamda uni samarali tashkil etish va rivojlantirishni ta’minlovchi” pedagogik tizim komponentidir.[63; 8-14-b]

N.V.Ippolitov pedagogik shart-sharoitlarning quyidagi tasnifini ajratib ko‘rsatgan:

- ta’limiy vazifalarni hal etish uchun o‘quv jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar;
- pedagogik jarayon subyektlari shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik shart-sharoitlar;
- o‘quv jarayonining texnologiya, shakl, metod va vositalarini aniqlab beruvchi didaktik shart-sharoitlar.[63; 8-14-b]

Muallifning fikriga qo‘shilgan holda tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik shart-sharoitlarni pedagogik shart-sharoitning komponentlari sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

N.M.Boritko pedagogik shart-sharoit deganda, pedagog tomonidan ongli ravishda tizimlashtirilgan, ma’lum bir natijaga erishishni ko‘zda tutuvchi pedagogik jarayonni amalga oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi jihatni tushunadi..[36; 181-b]

Xuddi shunday M.Siprob mazkur yaxlit model “tarbiyaviy vositalar shkalasini soddalashtirish, unda shaxsning haqiqattan shakllanishida alohida ta’sir ko‘rsatadigan eng asosiyalarining minimal miqdorini aniqlab berishi” lozimligini ta’kidlab o‘tgani. .[126; 71-b]

V.V.Serikov pedagogik muloqot ishtirokchilarining subyektlashuv (insonparvar yo‘nalishlar) darajasiga asoslanib, vaziyatni rivojlantirish bosqichlari sifatida pedagogik shart-sharoitlarni belgilash mantig‘ini ishlab chiqqan.[109; 272-b]

Ye.A.Ganin pedagogik shart-sharoit deganda, shaxsda zaruriy sifatlarni shakllantirishni ta’minlovchi zamонавиу axborot texnologiyalaridan foydalangan holda maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini yaratishga doir o‘zaro aloqador jihatlar yig‘indisini tushunadi..[43;]

U o‘zining tadqiqotida ta’lim amaliyotida maxsus shart-sharoitlarni yaratish psixologik-pedagogik jihatlar bilan bog‘liq ekanligini qayd etib

o‘tadi. Psixologik jihat o‘rganilayotgan hodisa, maqsadga muvofiq ravishda ta’sir ko‘rsatish maqsadida shaxs ichki olamiga tegishli hodisalarni modellashtirishni o‘rganishni talab etadi. Pedagogik jihat psixologik mazmunni jarayon, hodisa, xususiyatlarni kutilganidek rivojlantirishni ta’minlaydigan omillar va mexanizmlar bilan bog‘laydi; u samarali ta’sir ko‘rsatishga doir holatlarni aniqlash va yaratishni talab etadi. Shuning uchun Ye.A.Ganin masalaning pedagogik jihatil ilmiytadqiqot va mustaqil ta’lim faoliyati vositasi sifatida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llashning muhim maqsadga yo‘naltirilgan ustakovkalarni amalga oshirishga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlash zarurligini qayd etib o‘tgan..[43]

I.A.Fedyakova ta’lim tizimiga tatbiqan akmeologik yondashuvni amalga oshirish nuqtai nazaridan “psixologik o‘ziga xosliklar, zaruriy holatlarda faoliyatning produktiv va samarali usullarini hisobga olib, shaxsning subyektiv xususiyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonining o‘zaro aloqador chora-tadbirlari”, pedagogik o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning aniq usullari tushunilishini qayd etib o‘tgan..[121]

Shuning uchun “psixologik-pedagogik shart-sharoit” tushunchasi “pedagogik jarayon” atamasi bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki shart-sharoit pedagogik jarayonda namoyon bo‘ladi va uni maqbullashtirish maqsadida yaratiladi.

V.I.Andreyev pedagogik shart-sharoit o‘zida “qo‘yilgan maqsadga erishish uchun o‘qitish mazmuni elementlari, metod(usul)lari, shuningdek, tashkiliy shakllarini maqsadga muvofiq tanlash, tizimlashtirish va qo‘llash” natijalarini aks ettiradi, deb hisoblaydi. [22; 608-b]

T.V.Minakova pedagogik shart-sharoitlarni chet tilni kasbiy yo‘naltirib o‘qitishda bo‘lajak mutaxassisning bilish mustaqilligini rivojlantiruvchi mavjud holatlar sifatida talqin qilgan va quyidagilarni ajratib ko‘rsatgan:

1) kognitiv:

- o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini jadallashtirish;
- bo‘lajak mutaxassis faoliyati nuqtai nazaridan o‘qitish mazmuni variativligini ta’minlash;

2) aksiologik:

- chet tilni o‘zlashtirishda yutuqlarga erishish motivatsiyasini rag‘batlantirish;

- kasbiy yo‘naltirilgan chet tilni o‘rganishga talabalarda qadriyatli ustanovkalarni shakllantirish;

3) amaliy:

- izlanishga doir, lingvistik, informasion tahliliy, kreativ, refleksiv kabi intellektual bilish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida o‘quv jarayonida mustaqil bilishga doir vaziyatlarni modellashtirish;

o‘quv jarayonini individuallashtirish va o‘quv hamkorligini amalgalashirish vositasida subyektlararo munosabatlarni faollashtirish..[83; 214-b]

Maqbul pedagogik vositalar va shart-sharoitlar tizimini izlab topishga kuchli rag‘bat sifatida mazmunli modelning alohida elementlarini empirik jihatdan izlash, sinovdan o‘tkazish alohida o‘rin egallaydi. Qoidaga muvofiq, bunday izlanish nazariy tahlil bosqichida boshlanadi, qanchalik tajribani anglash, kasbiy refleksiya yorqin namoyon bo‘lsa, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga kuchli rag‘bat bo‘ladi.

N.M.Boritkoning qayd etishicha, samarali vosita va shartlarni tanlash pedagogda turli ko‘rinishdagi mualliflik dasturlarini yaratishda aks etadigan nisbatan mukammal pedagogik tizimlarni ishlab chiqishni rag‘batlaydi..[37; 107-110-b]

Tadqiqotda pedagogik shart-sharoit – bu ta’lim va tarbiya mazmuni, tashkiliy shakl, metod va vositalarni o‘z ichiga olgan, o‘z navbatida talabaning ichki dunyosi bilan o‘zaro munosabatlarga yo‘naltirilganligini anglatadigan pedagogik jarayonning muhim komponentidir, degan qoidaga tayanildi..[105; 279-b]

Ushbu yondashuv pedagogika fanida mavjud bo‘lgan “shart-sharoitlar” tushunchasining boshqa talqinlari bilan uyg‘un kelishi ham muhimdir.

Shunday qilib, tadqiqot doirasida pedagogik shart-sharoitlar muayyan pedagogik maqsadga erishishni ta’minkaydigan pedagogik tizimning amaldagi elementlari sifatida talqin qilindi.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlar majmuini aniqlashtirishda mazkur jarayonga ta’sir ko‘rsatadigan omillarning ta’siri; bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini shakllantirish xususiyatlari va imkoniyatlari; taklif etilgan modelining tizimli-funksional xususiyatlari; refleksiv, tizimli, aksilogik va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlarni amalgalashirish zaruriyati hisobga olindi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili hamda oliy ta’lim tizimidagi mavjud tajribalar bo‘lajak o‘qituvchilarining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish, agar ushbu jarayon quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni hisobga olgan holda tashkil etilsa, samarali bo‘ladi, degan farazni olg‘a surildi: mashg‘ulotlarni muammoli-variativ tarzda tashkil etish orqali bo‘lajak o‘qituvchisining refleksiv hayotiy tajribasini tarkib toptirish; bo‘lajak o‘qituvchini refleksiv topshiriqlarni hal qilish jarayonida pedagogik faoliyatga jalb qilish; refleksiv algoritmni ishlab chiqishda interfaol metodlardan foydalanish.

Quyida mazkur pedagogik shart-sharoitlar mazmuniga to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchi pedagogik shart-sharoit mashg‘ulotlarni muammoli-variativ tarzda tashkil etish orqali bo‘lajak o‘qituvchisining refleksiv hayotiy tajribasini tarkib toptirishdan iborat. Ushbu shart-sharoitni aniqlashtirishda refleksiya qonuniga tayanildi. Unga ko‘ra rivojlanishning asosini insonning bilim va hayotiy tajribasi tashkil qiladi. Refleksiya uchun ichki-tabiyy (genetik) va tashqi (vitagen, ya’ni hayotiy bilim va tajriba) tamoyillar muhimdir.

A.S.Belkin hayotiy tajribani “vitagen ma’lumot” tushunchasi bilan bog‘liq holda quyidagicha talqin qilgan: “vitagen ma’lumot inson boshidan o‘tkazgan va o‘zi uchun yetarli qiymatga ega bo‘lgan fikrlar, his-tuyg‘ular, harakatlar majmuidir. U aql, his-tuyg‘ular, xulq-atvor xotirasi bilan bog‘liq”.[34; 121-b]

Shu bilan birga, olim shaxsning mulkiga aylanmagan, lekin faqat hayot va faoliyatning turli jihatlarini anglash bilan bog‘liq bo‘lgan va u uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lmagan vitagen ma’lumotlarning mavjudligini (hayot tajribasi) ta’kidlaydi. Olim o‘quv jarayonining aksariyat ta’lim texnologiyalari aynan vitagen-axborot darajasida amalga oshirilishiga alohida urg‘u berib o‘tadi.

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayoni – bu ko‘p qirrali va yo‘nalishga ega o‘zaro munosabatdir: talaba va o‘qituvchi, talaba-talaba, shaxslararo munosabat. Pedagogik o‘zaro munosabatlar an’anaviy ravishda subyekt-obyekt (S-O) deb ta’riflangan bo‘lib, bu yerda subyekt o‘qituvchi bo‘lib, u bilimlarni uzatib, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi, obyekt esa, talaba bo‘lib, u ta’lim oluvchi va tarbiyalanuvchidir. Zamonaviy ta’lim tizimini insonparvarlashtirish bilan bog‘liq holda, pedagogik o‘zaro munosabatga doir yo‘nalishlar o‘zgardi va subyekt-subyekt (SS) tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ya’ni, “Tarbiya nuqtai nazaridan insonparvarlashtirish, avvalo, hamkorlik va birgalikda

ijod qilish bo‘yicha pedagogik g‘oyalarni rivojlantirish, o‘zaro ishonch va talabchanlikka doir shart-sharoitni yaratishni talab qiladi. Gap o‘qituvchining nuqtai nazarini o‘zgartirish to‘g‘risida ketmoqda, ya’ni u “o‘quvchidan yuqori” turish holatidan, “o‘quvchi bilan yonma-yon” bo‘lish pozitsiyasiga o‘zgaradi”. [21; 320-b]

Binobarin, ikkala subyektning teng faolligi, ularning teng huquqliligi va bir-biriga o‘zaro ta’siri, ya’ni ularning hamkorligini alohida ta’kidlash mumkin.

A.S.Belkin o‘qitishda an’anaviy yondashuvlarda o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar o‘rtasida hamkorlik aloqalariga erishib bo‘lmaydi, deb hisoblaydi, chunki talabalar tayyor bilimlarni qabul qilish asosida harakat qilishadi va o‘qituvchi singari kommunikator rolini o‘ynashmaydi. Talaba qabul qilib oluvchi rolini kommunikator-bilim tashuvchisi (o‘qituvchi qabul qiluvchiga aylanganda) roliga o‘zgartirish uchun o‘qituvchiga noma'lum bo‘lgan ma'lumotlar zarur bo‘ladi. Bu talabaning hayotiy tajribasi. Uning tajribasi kam yoki ko‘p bo‘lishi muhim emas.

Ana shu tarzda ta’lim oluvchining hayotiy tajribasini faollashtirish zarurati yuzaga keladi, chunki aynan shu narsa egallangan bilimlarni qadriyatga aylantirishga imkon beradi.[34; 121-b]

Tadqiqotda refleksiv hayotiy tajriba o‘z-o‘zini anglash sohasi, odamlar va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlar davomida shakllanish jarayoniga tegishli hayot tajribasining bir qismi sifatida tushunildi.

Shaxsning hayotiy tajribasi, uning intellektual-psixologik salohiyatidan foydalanishga asoslangan “vitagen ta’lim” (A.S.Belkin) tushunchasi mazkur tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega.

Ushbu pedagogik shart-sharoitni amalga oshirishda, vitagen ma'lumotlarning hayot tajribasiga o‘tkazish bosqichlari va darajalari hisobga olindi:[34; 121-b]

1) vitagen ma'lumotni ajralmagan va tabaqlashtirmagan tarzda idrok etish;

2) baholash va filrlash bosqichi, unda egallangan ma'lumotlarning ahamiyati birinchi navbatda – umuminsoniy, gnostik, so‘ngra shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan nuqtai nazarlar bilan bog‘liqlikda aniqlanadi;

3) yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish bosqichi, u taxminiy xotirada saqlash muddati bilan ma'lumotni yodlash uchun o‘z-o‘zidan yoki ongli ustyanovkani yaratishni o‘z ichiga oladi. U axborotning ahamiyati, uning hayotiy va amaliy yo‘naltirilganligiga bog‘liq bo‘lib, shuningdek vitagen ma'lumotni o‘zlashtirish darajasini ham belgilaydi: operasion – xotirada

yomon saqlash (“har ehtimolga qarshi” yodlash) ustanovkasi bilan bog‘liq; funksional – tanlash vaziyatlari uchun muhim sanalib, axborotni uzoqroq xotirada saqlash muddatiga qarab belgilanadi; tayanch – uzoq muddatli yodda saqlash uchun ustanovka; ta’lim jarayonida o‘z-o‘zini anglash uchun muhimdir.

A.S.Belkin fikriga ko‘ra, proyeksiyaning golografik usuli vitagen ta’limni amalga oshirish vositasidir. Olim unga o‘rganilayotgan materialni hajmli va ko‘p o‘lchovli tarzda taqdim etishga qaratilgan ta’lim texnologiyalari tizimi sifatida qaraydi. Tizim atrof-olamni idrok etishning ko‘p o‘lchovli xususiyatlariga va hayotiy tajriba zahiralariga mos keladi. [34; 121-b] Usul – bu markazga yo‘naltirilgan vektorlar bilan uchta proyeksiyani o‘z ichiga olgan o‘rganilayotgan bilimlarning mazmuni, holatlarini hajmli ravishda oolib berish jarayonidir: vitagen proyeksiya – bu o‘qituvchilar tomonidan yangi bilimlarning taqdim qilishga tayyorlash uchun o‘qitish jarayonida foydalanadigan vitagen ma’lumot; stereoproyeksiya – ta’lim oluvchilarning hayotiy tajribasidan foydalangan holda o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan ma’lumotlar; golografik proyeksiya – ba’zi bir qo‘sishma manbalardan (boshqa odamlar, ommaviy axborot vositalari) olingan va taqdim etiladigan ma’lumotlar.

Vitagen ta’lim – shaxsning aqliy va ruhiy salohiyatlarini o‘quv maqsadlari uchun yo‘naltirish hisoblanadi.

Professor R.Safarova ilmiy rahbarligida yaratilgan pedagogik ensiklopediyada vitagen ta’lim texnologiyasi tushunchasiga quyidagicha aniqlik kiritilgan: vitagen ta’lim – didaktikaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ta’lim oluvchilarda mavjud bo‘lgan ijtimoiy tajribalarni dolzarblashtirish asosida tashkil etiladi. Bunda shaxsning vitagen tajribasidan ta’limiy maqsadlarda bosqichma-bosqich foydalanish ko‘zda tutiladi.[96; 320-b]

Vitagen ta’lim – shaxsning hayotiy tajribasini dolzarblashtirishga qaratilgan o‘qitish tizimi bo‘lib, uning intellektual-ruhiy quvvatlaridan ta’limiy maqsadlarda foydalanishni nazarda tutadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish mazkur masalaga doir bir qator talablarni ajratib ko‘rsatishga imkon berdi: bo‘lajak o‘qituvchining individualligini tan olish va rivojlantirish; har bir bo‘lajak o‘qituvchining mavjud refleksiv tajribasini qo‘llash uchun pedagogik muloqotni yo‘naltirish; refleksiv hayotiy tajribani refleksiv kasbiy yo‘naltirilgan vazifalar mazmuni bilan moslashtirish; xatti-harakatlar strategiyasini, ushbu muammolarni hal qilish usullarini

tanlash imkoniyatini taqdim etish; o‘z fikrini hamkasblar, shuningdek umuminsoniy qadriyatlar bilan o‘zaro bog‘lash imkoniyatini ta’minlash; refleksiv muammolarni hal qilish usullarining amaliy va hayotiy ahamiyatiga e’tibor qaratish; refleksiv ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonida ushbu yo‘nalish bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchi o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini namoyon etishni faol ravishda rag‘batlantiradi.

Shart-sharoitlarni amalga oshirish bo‘lajak o‘qituvchining individualligiga murojaat qilish, har biridagi yashirin imkoniyatlarni izlab topish, hayotiy refleksiv tajribasini boyitib, o‘z “Men” ini topishga imkon beradi.

Biz bo‘lajak o‘qituvchining hayotiy tajribasini dolzarblashtirish eng yaxshi tarzda mashg‘ulotlarni muammoli-variativ tarzda tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin, degan farazga tayandik. Ya’ni, muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilishda bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi. Buning natijasida kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalar ijodiy o‘zlashtiriladi, eng muhimi, bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv qobiliyatları rivojlanadi.

Mashg‘ulotlarning muammoli-variativ tarzda tashkil etishga oid masalalar muammoli ta’lim bilan bog‘liqdir. Muammoli ta’limning mohiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchilarga bajarish usuli noma’lum bo‘lgan muammoli topshiriqlar taklif etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchi mavjud bilim va ko‘nikmalariga tayanib, yechimni topishi kerak. Binobarin, bo‘lajak o‘qituvchi oldiga qo‘yilgan yoki o‘zi mustaqil ravishda belgilab olgan vazifa qarama-qarshilikka ega bo‘lib, uni yengib o‘tish unga yangi bilim beradi. Muammoli topshiriqning o‘zi ma’lum qiyinchiliklarni bartaraf etish, bilish faoliyati va ruhiy jarayonlarni safarbar qilish, ijodiy fikrlash va nutq faoliyati elementlarini kiritish bilan bog‘liq. Bu nafaqat yangi bilimlarni egallah va ularni o‘zlashtirish usullari, balki bo‘lajak o‘qituvchining ruhiy, ayniqsa, ularning ijodiy va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydi.[57; 208-b]

G.K.Selevko muammoli o‘qitish – bu o‘qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlar yaratilgan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va ta’lim oluvchilar ularni mustaqil ravishda hal etishidir, deb hisoblaydi. Bunday faoliyat natijasida kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar ijodiy o‘zlashtiriladi, shuningdek, fikrlash qobiliyatları rivojlaniriladi.[106; 236-b]

Muammoli vaziyatlar ma’lumotlarning nomuvofiqligi, mazmunning noaniqligi, muammolilik darajasi va metodik xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi.[106; 236-b]

Tadqiqot doirasida G.K.Selevkoning tasnifiga rioya qilindi, unga ko‘ra muammoli vaziyatlar quyidagicha turkumlashtirildi:

- *noma'lum X mazmuniga ko'ra*: X – maqsad, X – faoliyat obyekti, X – faoliyat usuli, X – faoliyatni bajarish sharti;

- *muammolilik darajasi bo'yicha*: usuldan qat’iy nazar paydo bo‘lishi; o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan va hal qilinadigan; o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan, ta’lim oluvchi tomonidan hal qilinadigan; muammo va yechimni mustaqil shakllantirish;

- *ma'lumotlarning nomuvofiqligi turi bo'yicha*: kutilmagan holat, ziddiyat, taxmin, rad etish, nomuvofiqlik, noaniqlik;

- *metodik xususiyatlariga ko'ra*: tasodifiy, maqsadli, muammoli bayon qilish, evristik suhbat, muammoli namoyishlar, tadqiqot laboratoriyasi ishlari, muammoli ommaviy eksperiment, fikran muammoli eksperiment, topshiriqlarni muammoli yechish, muammoli vazifalar, o‘yinli muammoli vaziyatlar.

Muammoli vaziyatlar o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida, ya’ni chaqiriq, anglash va refleksiya paytida ham yaratilishi mumkin.

Muammoli vaziyatni yaratish bo‘lajak o‘qituvchilarni uni yechimini topishga yo‘naltiradi. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchi o‘zi o‘rganayotgan subyekt pozitsiyasiga o‘tib qoladi va yangi bilimlar, harakat usullarini o‘zlashtiradi. Muammoli ta’limni boshqarishning murakkabligi muammoli vaziyatning yuzaga kelishi subyektivlik bilan bog‘liq. Shuning uchun o‘qituvchidan tabaqlashgan va individual yondashuvdan foydalanish talab etiladi.

Tadqiqotda muammoli vaziyatlarni yaratishda G.V.Yeyger va I.A.Rapport tomonidan taklif etilgan metodik usullarga tayanildi: o‘qituvchi talabalarni ziddiyatli vaziyatga jalb etadi va uni bartaraf etish yo‘lini taklif qiladi; amaliy faoliyatda turli ziddiyatli vaziyatlar bilan to‘qnashtiradi; bir masala yuzasidan turli xil qarashlarni taqdim etadi; bo‘lajak o‘qituvchilarga hodisani turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqishni taklif qiladi (masalan, o‘qituvchi pozitsiyasidan, u bo‘lajak o‘qituvchi sifatida o‘z-o‘ziga va pedagoglik kasbiga bo‘lgan munosabatni shakllantirishga yordam beradi; taqqoslash, umumlashtirish, vaziyatdan kelib chiqib xulosa chiqarish, dalillarni taqqoslashga undaydi; mantiqiy asoslab berish, aynanlashtirish, mantiqiy fikr yuritishni so‘raydi); muammoli nazariy va amaliy tavsifga ega topshiriqlarni taklif qiladi; muammoli vazifalarni belgilaydi (masalan, boshlang‘ich ma'lumotlarning yetishmasligi yoki haddan tashqari ko‘pligi, savolni

qo‘yishda ba’zi bir noaniqliklar, ma’lumotlar nomuvofiqligi, atayin qilingan xatolar, yechim uchun vaqtini cheklash va h.k.).[52; 17-22-b]

Shuni yodda tutish kerakki, muammoli ta’lim texnologiyasini amalga oshirish uchun dolzarb, muhim topshiriqlarni tanlash; kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning turli bosqichlarida muammoli o‘qitishning o‘ziga xosliklarini aniqlash; muammoli o‘qitishning maqbul tizimini yaratish, o‘quv, uslubiy qo‘llanma va ishlanmalar yaratish; talabaning bilish faolligini oshiradigan o‘qituvchining shaxsiy yondashuvi va mahoratiga e’tibor qaratish zarur.

Muammoli o‘qitishning izlanishli va tadqiqotchilikka doir metodlaridan foydalanilganida talabalar muammolarni mustaqil izlaydi, ijodiy yondashuv bilan bilimlarni qo‘llaydilar va egallaydilar.[106; 236-b]

Ikkinci pedagogik shart-sharoit – bo‘lajak o‘qituvchini refleksiv-kasbiy muammolarni hal qilish jarayonida pedagogik faoliyatga jalb qilish.

Muammoli ta’lim mazmunini tashkil etuvchi asosiy o‘quv birligi topshiriq bo‘lganligi sababli, u muammoli vazifalar tizimi bilan ifodalanishi mumkin. Mazkur tadqiqot uchun refleksiv topshiriqlar muhim sanalib, ularning yechimi talabalarni bo‘lg‘usi pedagogik faoliyatga jalb qilishda o‘z hissasini qo‘shadi. Bunday vazifalarga obrazli-mantiqiy, kognitiv-izlanishli, ijodiy, baholovchi-tuzatishga doir kabilarni kiritish mumkin.

Tadqiqotda refleksiv topshiriqlar M.Sitnikova tasnifi asosida quyidagicha turkumlashtirildi: aniq muammolar bo‘yicha turlicha qarashlarni tahlil qilish va baholashga doir; muayyan muammo bo‘yicha materialni tahlil qilish va baholashga doir; muammoni hal qilish uchun tanlangan taktikani asoslashga doir; muayyan muammoga nisbatan o‘z pozitsiyasini aniqlashga doir; o‘z faoliyati va uning natijalarini tanqidiy tahlil qilish va baholashga doir (to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlil qilish va baholash; teskari tahlil va baholash; oraliq bosqichlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari tahlil qilish va baholash); motivlarning ahamiyati va ularga erishish imkoniyatlarini tahlil qilishga doir; yangilikni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan vaziyatni tahlil qilishga doir; o‘z-o‘zini anglashga doir; faoliyat jarayonida jamoaviy refleksiyaga “ko‘tarilish”ga doir; metod, shakl va vositalarini tanish va nomini ayta olish hamda modellashtirilgan vaziyatni aniqlashga doir; metodik harakatlar ketma-ketligini ko‘paytirish hamda foydalanilgan metodlar, didaktik vositalarini farqlash va taqqoslashga doir; sabab-oqibat munosabatlarni

o‘rnatish va uslubiy xatolarni aniqlash, ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini asoslashga doir; darslarni metodik jihatdan tahlil qilish va talqin qilishga doir; o‘quv materialini tanlash va ularni yiriklashtirish, mustaqil qarorlar qabul qilishga doir.[111; 244-b]

Mazkur topshiriqalar bo‘lajak o‘qituvchida tanqidiy, dialogik fikrlash, o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash, kuzatish, o‘z o‘rnini belgilash, o‘z-o‘zini tashkillash, boshqarish, anglash va odatiy holatlardan uzoqlashish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berib, refleksiv pozitsiyaning mavjudligini ko‘rsatuvchi indikator vazifasini bajaradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning birinchi bosqichida refleksiv topshiriqlardan foydalanish mumkin. Chunki mazkur jarayon muntazamlilik tavsifiga egadir: bo‘lajak o‘qituvchi ushbu jarayonning texnikasi va algoritmlarini qanchalik tez o‘zlashtira olsa, bir bosqichdan boshqasiga o‘tish shunchalik samarali bo‘ladi.

O‘qitishning topshiriqli shakli asosida bo‘lajak o‘qituvchi muayyan harakatlarni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan muammoli vaziyatni yarata olishi kerak: axborot maydonining xilma-xilligini aniqlash; ushbu sohadagi mavjud yutuqlarni qayta ko‘rib chiqish; o‘z nuqtai nazarini mavjud bo‘lganlari bilan taqqoslash; muammoni hal qilish uchun fikrlash faoliyati bilan bog‘liq vositalarni ishlab chiqish. Ushbu harakatlarni amalga oshirib, bo‘lajak o‘qituvchi tezkor ravishda o‘zining dastlabki qarashlarini qayta ko‘rib chiqadi va shu orqali rivojlanadi.

Topshiriqli o‘qitish shaklining bunday talqini bo‘lajak o‘qituvchi qanday qilib muammoli vaziyatni tushunishi va natijada unga nisbatan o‘z qarashlarini o‘zgartirishi mumkinligini faraz qilishga imkon bermaydi.

Muammoli vaziyat har doim ishlab chiqilayotgan yechim nuqtai nazaridan ochiq tavsifga egadir. Shu nuqtai nazardan, kasbiy-refleksiv vazifalardan foydalangan holda, o‘qitishni qat’iy nazorat qilish haqiqatdan yiroq holatdir. Ta’lim jarayonining ushbu modelini tekis yoki chiziqli deb hisoblamaslik kerak: o‘qituvchi ham ishtiroy etadigan jamoaviy jarayon davomida bosqichma-bosqich umumlashtirish va tushunishning keyingi darajasiga o‘tish amalga oshiriladi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonini tashkil etishning ushbu shakli ijrochilik, loyihibiy, analitik va tadqiqiy fikrlash faoliyatining uyg‘unligini ta’minlaydi. Muammoli vaziyatga asoslangan o‘quv faoliyatini tashkil etish texnologiyasi (Yu.V.Gromiko tomonidan taklif etilgan atama) boshqa odamlarning qarashlari yoki yuzaga kelgan nizo sabablarini

tushunish yoki qabul qilish qobiliyati; nizoli vaziyatning mohiyatini aniqlash; rasmiy yoki mazmunli, ikkinchisidagi holatdagi farjni aniqlashtirish; raqiblarning pozitsiyasi va o‘z nuqtai nazarlarini aniqlashtirish va oydinlashtirish uchun diskursiv hamda strategik ko‘nikmalardan foydalanish; uning rivojlanishi jarayonida vaziyatning turli tarkibiy qismlaridagi o‘zgarishlarni refleksiyalash va tizimlashtirish) [106; 236-b] mavjud vaziyatni maqbul ko‘rinishda muhokama qilishga imkon beradi.

Refleksiv pozitsiyani shakllantirish modelini amalga oshirishning uchinchи zaruriy pedagogik sharti – refleksiv algoritmi ishlab chiqishda interfaol metodlardan foydalanish.

Ma’lumki, har qanday tizim ma’lum mexanizmga asoslanadi. Shu sababli, kasbiy-pedagogik faoliyat tajribasini o‘zlashtirishni ta’minalashga refleksiya mexanizmi xizmat qiladi. U bir qator refleksiv-fikrlash harakatlarini nazarda tutadi. Natijaga erishish uchun bunday harakatlarni amalga oshirish algoritmi talab qilinadi. Bu esa, bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Muammo bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, refleksiv-fikrlashga doir faoliyati mexanizmining mohiyati olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan.

N.G.Alekseyev quyidagi fikrlash operasiyalarini ajratib ko‘rsatgan:

1) refleksiyaga ehtiyoj sezilgan harakat va yoki fikrlashni ixtiyoriy to‘xtatish. O‘tmishdagi harakatlarni xaotik eslashni to‘xtatish, darhol amalga oshirilgan harakatlarga tuzatishlar kiritish (masalan, bu yerda men buni qilishim kerak edi va hokazo). Avval qo‘yilgan maqsad haqida o‘ylashni to‘xtatish va o‘z fikrlash vositasini tahlil qilishga o‘tish;

2) harakatni muhim nuqtalar bilan bog‘liqlikda aniqlash. Amalga oshirilgan harakatlarni to‘xtatish yetarli emas, ularni faqat asosiy fikrlar va sabab-oqibat aloqadorligi bilan bog‘liqlikda saqlab qolish kerak. Qayd etish yozma tarzda bajarilishi kerak;

3) obyektivlashtirish, ya’ni turli xil chizmalar orqali ifoda etilgan qaydlarni qayta ishlash (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish). Qaydlar odatda xaotik va ko‘p qirrali bo‘lganligi sababli, refleksiya qilinayotgan narsalarni umumiyl ko‘rish va tushunish uchun ularni yaxlit shaklga keltirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yaxlitlik keyinchalik olingan natijalardan tadqiqot va o‘z faoliyatini tashkillashtirish uchun foydalanishga imkon beradi.[20; 552-b]

Ushbu mexanizmning harakati faqat quyidagi sharoitlarda muvaffaqiyatli amalga oshishi mumkin: refleksiya jarayoni qadriyatli munosabatlardan chetlashtiriladi; refleksiya mazmuni saqlanib qoladi, chunki aynan u refleksiya obyekti hisoblanadi.

F.Korthagen [149; 312-b] bo‘lajak o‘qituvchi refleksiv faoliyatining quyidagi tuzilmasini taklif qilgan:

1. Faoliyat. Refleksiya davriyligi ma’lum bir harakat yoki tajribadan boshlanadi, u elementar (doskada so‘z yozish) yoki murakkab (ma’lum bir o‘quv fani bo‘yicha dars yoki hatto bir nechta darslar o‘tish) bo‘lishi mumkin. Harakatning maqsadi, tashqaridan aniq va tushunarli bo‘lmagan holda, uning o‘zi bilan bog‘liq.

2. O‘tmishdagi faoliyatga nazar tashlash. Tahlil faoliyat yakuni yoki uni amalga oshirish jarayonida boshlanishi mumkin. Bunday tahlilga faoliyat g‘ayrioddiy ko‘rinishga ega bo‘lsa yoki belgilangan maqsadga oddiy erishib bo‘lmaydigan holatda ehtiyoj tug‘iladi.

3. Faoliyatning muhim jihatlarni anglab yetish (ta’kidlash). Mazkur bosqich faoliyatning turli jihatlariga urg‘u berish, ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash bilan tavsiflanadi.

4. Faoliyatni amalga oshirishning muqobil usullarini ishlab chiqish. Buning uchun avval aniqlashtirilganidan butkul farq qiladigan o‘ylangan maqsadlarga erishish yo‘llarini izlab topiladi va tanlanadi. Nafaqat muqobil shakl, metod va vositalari, balki ularning muayyan vaziyatga mosligi ham muhimdir. Mazkur bosqichda ta’lim jarayonining boshlanishida belgilangan shakl va metodlarning imkoniyatlari yetarli bo‘lmagan holatda, yangi ma’lumotlar olish mumkin. Yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyoj mavjud bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish, boyitish va tuzatishlar kiritishga ham yordam beradi.

5. Yangi faoliyatning afzalligini tekshirib ko‘rish. Yangi vaziyatda qaytadan belgilangan maqsadga erishishga harakat qilinadi. Davriylik takrorlanadi. Refleksiv faoliyat modellari shu kabi xatti-harakatlarni nazarda tutib, quyidagi qadamlar ketma-ketligidan iborat bo‘ladi: harakatni mavhumlashtirish; harakatlar ketma-ketligini qayd etish; butun harakatning muhim sabab-oqibat aloqadorligini ajratib ko‘rsatish; haqiqiy harakatlarni real standartlar yoki muqobil harakatlar bilan taqqoslash; o‘xshash yangi modelni maqbul tarzda rejalshtirish.

F.Korthagen tomonidan taklif qilingan va qisman Ye.N.Solovova:[116; 196-b] tomonidan tuzatish kiritilgan bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv faoliyati chizmasi ularning kasbiy

kompetentligini rivojlantirish sharoitida zaruriy xatti-harakatlar ketma-ketligini hisobga oladi, refleksiv harakatlar algoritmi va uni yangi bosqichga ko‘tarish imkoniyatini aniq kuzatish imkonini beradi. O‘qituvchi va o‘quvchilar nuqtai nazaridan refleksiyaning ikkinchi bosqichini amalga oshirish chizmasi bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini shakllantirish mexanizmini namoyish etadi:

1. O‘qituvchi qanday faoliyatni amalga oshirdi? – (o‘quvchilar)?
2. O‘qituvchida – (o‘quvchilarda) qanday xohish-istak namoyon bo‘ldi?

3. O‘qituvchi – (o‘quvchilar) nima to‘g‘risida fikr yuritdi?
4. O‘qituvchi – (o‘quvchilar) qanday his-tuyg‘ularni boshdan kechirdi?. [116; 196-b]

Ushbu refleksiv harakat algoritmini ishlab chiqish o‘qitishning interfaol shakl va metodlaridan foydalangan holda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini oshirish va jadallashtirish asosida yanada samarali kechadi.

Pedagogika fanida interfaol metod o‘zaro aloqa, suhbat rejimida talaba, o‘qituvchi, kompyuter faol muloqotni anglatadi. Interfaol metodlar talabalarning faolligini oshiribgina qolmasdan, ularning fikrlashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O‘qituvchig interfaol mashg‘ulotlarda moderator rolini bajarib, o‘qitish maqsadiga erishish uchun talabalarning faolligini oshirishga erishishi zarur. Tadqiqotda interfaol metodlardan foydalanish zaruriyati quyidagilar bilan asoslandi:

1) interfaol ta’lim – identiv o‘quv maqsadlarini oydinlashtirish, kutiladigan natijalarini oldidndan belgilash, o‘qituvchi va talabaning mashg‘ulot bosqichlaridagi vazifalarini aniq belgilashning maqbul shakl, metod va vositalarini tanlab olishni ko‘zda tutuvchi bilish faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli. Natijada, talabalar o‘zaro birganlikdagi hamkorlik asosida o‘quv faoliyati yutuqlari, intellektual rivojlanishdagi muvaffaqiyatlarni izchil his qiladi, o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash va rivojlantirish hamda korreksiyalashga zamin yaratadi;[47; 123-b]

2) o‘qitishning interfaol shakl va metodlari dialogik ta’limning tarkibiy asoslariga taalluqli bo‘lib, talaba-o‘qituvchi, talaba-talaba o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarni amalga oshirish, aniq maqsadni belgilash asosida refleksiv algoritmni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi;

3) interfaol shakllardan foydalanganda o‘qituvchi asosiy markaziy o‘rinni egallamaydi: u jarayonni tashkil etadi, tartibga soladi, mashg‘ulot

uchun zarur topshiriqlar, kichik guruhlarda muhokama qilish uchun savollar yoki mavzularni shakllantiradi, maslahatlar beradi, vaqtini belgilaydi va jarayonni nazorat qiladi. Talabalar hayotiy va refleksiv tajribaga bevosita murojaat qilishadi. Mazkur jarayonda ular bir-birlari bilan muloqot qilishlari, topshiriqlarni birgalikda bajarishlari, nizoli vaziyatlarni samarali hal etish, umumiy bog‘liq jihatlarni izlab topishi va murosasoz bo‘lishlari kerak;[107; 241-b]

4) interfaol ta’lim – bu ikki tomonlama o‘zaro axborot almashinuvini ta’minlash orqali bilimlarni samarali o‘zlashtirish, bir-biriga o‘rgatish, bir-birini nazorat qilishga yo‘naltirilgan o‘qitish subyektlari va obyektlarining birgalikdagi hamkorlik faoliyati;

5) o‘qitishning interfaol shakl va metodlari bo‘lajak o‘qituvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirish, o‘z-o‘zi bilan muloqotga kirishishni rag‘batlantirish, axborotni to‘liq o‘zlashtirishni ta’minlash, pedagogik jarayondagi o‘zaro birgalikdagi aloqalarni individuallashtirish, bo‘lajak o‘qituvchini ta’lim subyekti nuqtai nazaridan kasbiy shakllantirishga imkon beradi;

6) o‘qitishning interfaol shakl va metodlarining yana bir muhim jihatni ular turli xil nuqtai-nazarlarni ilgari surish, shaxsiy tajribaga murojaat qilish, ta’lim oluvchilarning faolligini qo‘llab-quvvatlash, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish, boshqalarni to‘g‘ri idrok etish, o‘zaro bir-birini tushunish jarayonlarini osonlashtiradi, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi;

7) o‘qitishning interfaol shakllari bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning quyidagi muhim jihatlarini o‘zida aks ettiradi: talabaning o‘rganilayotgan mavzuga qiziqishini uyg‘otish; o‘quv materialini samarali o‘zlashtirish; refleksiv muammoni hal qilish yo‘llari va variantlarini talabalarning mustaqil izlab topishi; talabalar o‘rtasida o‘zaro samarali aloqalarni o‘rnatish, jamoaviy-ijodiy ishni tashkil etishga o‘rgatish, turli nuqtai-nazarga nisbatan bag‘rikenglikni namoyon qilish, so‘z erkinligi va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish; talabalarni pedagogik faoliyatga ijobjiy munosabatini shakllantirish;

8) auditoriyadagi ishning tuzilishi hamda tezkor va qayta aloqani tashkil etish: mashg‘ulot maqsadidan kelib chiqqan holda guruhlarni shakllantirish, bilish darajasi va nuqtai nazarlarining umumiyligi asosida talabalarni guruhlarga ajratish, mavzuning mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi savollarni tuzish, guruhlar o‘rtasida qayta aloqani o‘rnatish. Auditoriyadagi o‘quv faoliyatini to‘g‘ri

tashkillashtirish o‘zaro aloqalarni jadallashtirish va samaradorligini ta’minlashning muhim vositasidir;

9) interfaol nuqtai nazarni ilgari surish imkoniyatini taqdim etishni to‘rt bosqichining mavjudligi: 1) talabalarning nuqtai-nazarlaridagi umumiylilik va o‘ziga xosliklarni aniqlashtirish, 2) nuqtai-nazarlargi mos umumiyl mazmunni belgilash; 3) o‘quv materialini tahlil etish va uni yangi mazmun bilan boyitish; 4) yangi mazmunga asoslangan holda nuqtai nazarlar majmuini shakllantirish;

10) mashg‘ulotlarni o‘tkazishning interfaol shakllari hamkorlikda o‘qitishni o‘z ichiga oladi, ya’ni o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ma’lumot almashadilar, muammolarni birgalikda hal qiladilar, vaziyatlarni modellashtiradilar va guruhdagi o‘zaro munosabatlar jarayonida o‘zining va boshqa kishilarning qadr-qimmatini anglaydi;

11) interfaol mashg‘ulotlarni tashkil etish uning refleksiya bosqichi ham mavjudligi bilan ajralib turadi. Mazkur bosqichda talabalar ma’lumotlar va voqyeliklarni qanchalik darajada tushunib yetishgani hamda ularga o‘z munosabatlarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar;

12) mashg‘ulotlarni interfaol shaklda o‘tkazish orqali talabalar bo‘lajak o‘qituvchi uchun zarur shaxsiy va kasbiy sifatlar bilan bog‘liq muammoli vaziyatlarga yechim topish uchun real kasbiy hamkorlik muhitida “yashashadi”;

13) interfaol ish shakllaridan ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, o‘quv va bitiruv malakaviy amaliyotni o‘tashda foydalanish mumkin.

Mavjud ilg‘or ish tajribalarining o‘ziga xosliklarini tahlil qilish hamda ularning boshqaru funksiyalariga asoslangan holda, tadqiqot uchun muhim hisoblangan refleksiv algoritmini ishlab chiqishda eng samarali hisoblangan o‘qitishning quyidagi interfaol shakl va metodlarini tizimlashtirdik:

- davra suhbati (masalan, mavjud muammoni jamoaviy muhokama qilish yoki turli g‘oya va fikrlarni taqqoslash);

- munozara-muhokama (boshlovchi talaba mavzuni e’lon qiladi va fikrni bildirishni istagan ishtirokchiga so‘z beradi. Muhokamaning o‘tkazilishi talaba-boshlovchi tomonidan boshqarilsa ham, lekin uni amalga oshirish jarayonini avvaldan nazorat qilib bo‘lmaydi. Chunki mazkur jarayon hissiyotlarga boy bo‘ladi; jadallashtirilgan munozara (o‘rtaga tashlangan muammoni hal etish bilan birga, talabalarda bir paytning o‘zida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish);

- munozara-musobaqa (barcha talabalar jamoalarga bo‘linadi, talabalar orasidan hakamlar hay’ati tanlanib (shuningdek, talabalar orasidan), u taklif qilingan yechimlarni baholash mezonlarini belgilaydi: yechimning chuqurligi, uning dalillari, izchilligi, aniqligi, maqsadga muvofiqligi. Munozara mavzusi va ballar tizimi kelishib olinadi. Bir talaba munozaraga rahbarlik qiladi. Yakunida muammo yoki muammoli vaziyat bo‘yicha taklif qilingan yechimlarning jamoaviy muhokamasi o‘tkaziladi. Keyin hakamlar hay’ati natijalarni e’lon qiladi hamda ularni sharhlaydi);

- erkin harakatlanuvchi munozara (talabalarning aniq natijaga erishishi ko‘zda tutilmadi, biroq ularning faolligi saqlab qolinadi. Bunday faoliyatning asosini “B.V.Zeygarnik effekti” tashkil etadi. U tugallanmagan o‘quv harakatlarini eslab qolishni kafolatlaydi. Shuningdek, talabalar o‘ylab tugallamagan g‘oyalarini individual tarzda “qayta fikr yuritib” davom ettiradilar).

Samarali tashkil etilgan munozaralar rivojlanishning to‘rt bosqichini o‘z ichiga oladi: yo‘naltiruvchi, baholashga doir, mustahkamlash va refleksiv tahlil. Munozaraning muhim jihat – bu uni tahlil qilish, bunda mashg‘ulot jarayonida erishilgan natijalari, talabalarning xulosalarini tahlil qilish, muammoning dolzarbligini to‘g‘ri anglash va alohida qayd etib o‘tish, bildirilgan fikrlarning mantiqiy to‘g‘riliqi yoki xatoligini aniqlash, munozara mavzusi bo‘yicha bildirilgan ayrim mulohazalarning ahamiyatsiz ekanligini asoslashdan iborat. Og‘zaki nutqning ifodaviyligi, dalillarning ilmiy ahamiyatga egaligi va chuqr anglanganligi, tushunchalardan to‘g‘ri foydalanish, fikrlarni aniq ifodalashga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, talabalarning savollarga javob berish, isbotlash va inkor etish usullari, shuningdek, turli xil vositalardan foydalanish qobiliyati baholanadi.

Turli fikr va mulohazalarni tahlil qilish uchun munozara ishtirokchilarining og‘zaki va yozma ma’lumotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun talabalardan munozara yakuni bo‘yicha quyidagi savollarga javoblar berish so‘raladi: Munozara paytida men o‘zimni qanday his qildi? Menda qanday tuyg‘ular hamroh bo‘ldi? Xohish-istagimga erishish uchun nima yoki kim to‘sinqilik qildi? Men o‘zim uchun qanday yangiliklarga ega bo‘ldim? Men munozaraga qiziqish bilan qatnashdimmi? Mening munozarada katta ishtiyoq ishtirok etishimga nimalar sabab bo‘ldi? Mening befarqligimning sabablari nimadan iborat? Munozara jarayonida egallangan tajribadan

bahs-munozara yoki o‘quv-kasbiy faoliyatningizda qanday foydalanish mumkin?

Asosiysi, munozara yakunida talabalarda boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularni to‘g‘ri tushunishga doir nuqtai-nazarning shakllanishi va namoyon bo‘lishi, nizolarni samarali bartaraf etish, ziddiyatlarning oldini olishning maqbul strategiyalarini tanlashga erishiladi. Bundan tashqari, konstruktiv ziddiyatni hal qilish bo‘yicha munozara paytida bo‘lajak o‘qituvchilar darsning yetakchisiga va bir-birlariga yagona to‘g‘ri nuqtai nazar tashuvchisi sifatida emas, balki birgalikdagi tadbirlarda tajribali hamkasb sifatida munosabatni rivojlantiradilar. Muhokamada umumiylashtirish shakllanadi: teng subyekt-subyekt munosabatlari; “meni to‘g‘ri tushuning” pozitsiyasi; “Men yaxshiman, sen yaxshisan” pozitsiyasi; qisqalik – aql ko‘rsatkichi; haqiqat hamma narsadan ustundir; fikr bildirishda hurmat va do‘stona munosabatda bo‘lish; quyidagilarni o‘z ichiga olgan munozarani o‘tkazish qoidalari: men odamlarni tanqid qilmayman, g‘oyalarni tanqid qilaman; mening maqsadim adekvat yechimga kelish; Men har bir ishtirokchini munozarada qatnashishga chorlayman; Men har kimning fikrlariga toqatli va diqqat bilan qarayman, hatto ular menga yaqin bo‘lmasa ham, mening fikrimga zid bo‘lsa ham; Men avvalo ikkala pozitsiyaning faktlari va g‘oyalarni bilib olaman; Muammoga bo‘lgan ikkala qarashni ham fikrlayman va tushunishga harakat qilaman; Men ishonarli dalillar mavjud bo‘lganda o‘z qarashimni o‘zgartiraman [137]. Muhokamalar, bizning fikrimizcha, refleksiv harakatlar algoritmining mohiyatini anglatib, bo‘lajak o‘qituvchining ushbu sohaning bo‘lajak o‘qituvchisi sifatida o‘zi bilan, uning kasbiy faoliyati, pedagogik o‘zaro munosabatlar ishtirokchilari, o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq holda o‘zining ta’lim va kasbiy faoliyati jarayonida refleksiv pozitsiyasiga kelishiga yordam beradi.

Tadqiqotimizning maqsadiga mos keladigan keyingi o‘qitish shakli – bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini shakllantirish – bu debat (fransuzcha “bahs, fikr almashish” dan). Ular talabada mantiqiy va tanqidiy fikrlashni, fikrni tashkil qilish mahoratini shakllantirishga yordam beradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni, muammoga diqqatni jamlash qobiliyatini, bag‘rikenglikni, hamdardlikni rivojlantiradi. Ushbu toifalar bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini shakllanganligi ko‘rsatkichlari.

Tajriba shuni ko‘rsatdiki, bahslashish jarayonida ifoda etish, asoslash, dalil keltirish, raqib strategiyasini ko‘rish malaka va

ko‘nikmalari, savollarni to‘g‘ri shakllantirish qobiliyati shakllanadi, bu refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan va ko‘pincha refleksiv qobiliyatlarning o‘zi bo‘lib xizmat qiladi, bularni egallahsorqali bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini bosqichmabosqich, uyg‘un shakllantiradi. Tadqiqotimizda biz "o‘zgartirilgan debatlar" dan foydalanishni taklif qilamiz, bu aniq qoidalarga ega bo‘lgan bahslar (nutq so‘zlash vaqtini qisqartirgan; ishtirok etadigan bo‘lajak o‘qituvchilarsoni ko‘paygan; tinglovchilarning savollari qabul qilinadi; qo‘llab-quvvatlash guruhlari yaratiladi; rolli o‘yinlar ijro etiladi; ekspertlar guruhi sudyalar rolini o‘ynashga tayyor: pozitsiyalar to‘qnashuvini namoyish etish, shuningdek ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan murosani topish; o‘yin yetakchisining – bo‘lajak o‘qituvchi roli o‘zgaradi: o‘yining turli bosqichlarida uning tayyorgarligi darajasiga qarab belgilanadi. Tadqiqotimiz uchun "Akvarium" kabi bahslar turi o‘z mazmuni bilan dolzarb bo‘lib, aniq bir-biriga zid bo‘lgan qarama-qarshiliklar va ba’zan esa talabalar va o‘qituvchilar jamoasida ma’lum masala bo‘yicha nizolar bilan ajralib turadi va bu refleksiv pozitsiyaga chiqish uchun boshlang‘ich nuqtadir. Mexanizm quyidagicha: munozara muammosi talabalar-bo‘lajak o‘qituvchilarning iltimosiga binoan – ilmiy rahbar tomonidan ishlab chiqilgan; munozara ishtirokchilari (bo‘lajak o‘qituvchi) ikki yoki uch guruhga bo‘linib, sinfda doira bo‘lib o‘tirishadi; munozara davomida guruh pozitsiyasini himoya qiladigan rais tanlanadi. Muhokama qilinayotgan mavzu bilan tanishish oldindan amalga oshiriladi. Shunday qilib, barcha ishtirokchilar munozara boshlanishidan oldin fikr almashish imkoniyatiga ega. Guruh vakillari doiralar markazida to‘planib, o‘z pozitsiyasini himoya qilib, guruhning fikrini bildiradi. Qolgan ishtirokchilar o‘zlarining fikrlarini bildirmaydilar, faqat munozara davomida yozma ravishda o‘z fikrlarini yetkazadilar, u yerda ular muhokama uchun o‘z fikrlarini bildiradilar; guruh vakillari o‘z a’zolari bilan maslahatlashish uchun tanaffus qilishadi.

Treninglar bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining o‘ziga, o‘z kasbga yo‘naltirilgan faoliyatiga, bolalarga va o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan munosabatlari tizimini shakllantirishga yordam beradi.

G.K.Selevko tomonidan taklif qilingan mashg‘ulotning mohiyati va funksiyalarini tahlil qilish natijasida, biz tadqiqotlarimiz sharoitida, avvalo, treningni shaxsiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga va o‘zini va pedagogik o‘zaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilarini yaxshiroq

tushunishga qaratilgan ta’lim shakli sifatida ta’rifini dolzarb deb hisoblaymiz.

Trening davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning ichki munosabatlari o‘zgaradi, ularning psixologik bilimlari ortadi va o‘ziga (bo‘lajak mutaxassis sifatida), atrofdagi odamlarga (hamkasblarga – bo‘lajak o‘qituvchiga, bolalarga, ularning ota-onalariga) va umuman olganda butun dunyoga (xususan, o‘quv-kasbiy faoliyatga, o‘rganilayotgan fan – pedagogik-psixologik fanlarga) nisbatan ijobiy munosabat tajribasi paydo bo‘ladi.

Trening – bu shaxsiy tajriba orttirish orqali reallikni, shu jumladan o‘zi haqida haqiqatni olishning o‘ziga xos usuli. Buning uchun qandaydir hodisalar talab etiladi (bu bizning holatimizda pedagogik o‘zaro munosabatlar, o‘quv-kasbiy yo‘naltirilgan faoliyat davomida muammoli vaziyatlar va o‘quv-kasbiy yo‘naltirilgan faoliyatning o‘zi, shuningdek kelgusida kasbiy faoliyatning o‘zida yuzaga keladigan bo‘ladi).

Har qanday trening interfaol: u bo‘lajak o‘qituvchining faol subyektiv reaksiyasiga (emosional, intellektual, ta’sirli va amaliy), bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiga u yoki bu ta’sir uchun mo‘ljallangan.

Ta’limning ushbu shakli o‘zini va boshqa odamlarni yetaricha va to‘liq bilish qobiliyatini rivojlantirishga, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishga, o‘zini va o‘quv kasbga yo‘naltirilgan faoliyatni boshqarishga yordam beradi. Treninglar davomida yutuqlar motivasiyasi shakllanadi, ular shaxsiy va kasbiy o‘z o‘rnini belgilashda, o‘zini o‘zi tasdiqlashda va o‘z “men” ini tasdiqlashda yordam beradi (bizning holatimizda, men “pedagogika ta’lim sohasida tahsil olaman”, “Men bo‘lajak o‘qituvchiman”). Aynan shu mashg‘ulot shakli davomida o‘quv-kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish jarayoni amalga oshiriladi, bu esa refleksiv harakat mexanizmini boshlash uchun boshlang‘ich nuqtadir.

Trening davomida xulq-atvor me’yorlari bo‘lajak o‘qituvchining ideal qiyofasini yaratadigan barcha zarur fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi, va bu refleksiv pozitsiyani shakllantirish ko‘rsatkichi hisoblanadi: ishtirokchilarning to‘liq tengligi (bo‘lajak o‘qituvchi), o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun ichki motivga ega bo‘lgan trening ishtirokchisining o‘z qadr-qimmati, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi, oshonchli muloqot, muloqotda ochiqlik va samimiylilik, ma’ruzachiga hurmat (xulq-atvor nazorati, gapni bo‘lmaslik qoidasi), uzluksiz teskari aloqa prinsipi (bo‘lajak o‘qituvchi trening paytida uning

harakatlarining natijalari to‘g‘risida guruh a’zolaridan doimiy tarzda ma’lumotlar olib turadi), shaxsni aniqlash, o‘z-o‘zini tahlil qilish, refleksiya, o‘z-o‘zini refleksiyasi, o‘zini himoya qilish qoidasi.

Trening davomida bo‘lajak o‘qituvchi ijobiy munosabatlarni qabul qilishi va amalga oshirishi, suhbатdoshning (o‘quvchi yoki hamkasbning) ijobiy fazilatlariga tayaniladi va uning xizmatlarini tan olinadi.

Bizning talqinimizdagи refleksiv pozitsiyani shakllantirish uchun ushbu mashg‘ulot shaklini tanlash aniq maqsadni ko‘zda tutadi: barcha turdagи treninglar har bir insonga xos bo‘lgan ijobiy holatni rag‘batlantirish, hayotiy ko‘nikmalar va o‘ziga nisbatan ijobiy munosabatni tarkib toptirish hamda o‘z imkoniyatlari, qobiliyatlar, o‘quv-kasbiy faoliyati, pedagogik jarayondagi o‘zaro bирgalikdagi faoliyat ishtirokchilari, pedagogika fani nazariyasi va amaliyotini o‘zlashtirish.

## **II bob bo‘yicha xulosa**

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari pedagogik-psixologik fanlarning deontologik imkoniyatini ro‘yobga chiqarishning o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi uch yo‘nalishini ajratib ko‘rsatishga asoslandi. Birinchi yo‘nalish – pedagogik-psixologik fanlarning deontologik asoslarini keng ommalashtirish; ikkinchi – talabalar o‘quv faoliyatini deontologik (kasbiy-ma’naviy tafsifdagi ma’lumotlar bilan boyitish; uchinchi – avvalgi ikki bosqichni tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchining boshqaruva faoliyatini takomillashtirish.

2. Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelini loyihalashtirish quyidagi algoritmga muvofiq amalga oshirildi: modellashtirilayotgan tizim doirasini aniqlash; modelni loyihalashtirish maqsadini belgilash, loyihalanayotgan jarayonning maqsad va vazifalari bilan uyg‘unligini ta’minlash; ko‘rib chiqilayotgan jarayon subyektlarini aniqlash; bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayoni amalga oshiriladigan tamoyillarni asoslash; bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirishning mazmuni, metodi va vositalarini aniqlash; ushbu modelni amalga oshirish orqali erishiladigan natijani rejalashtirish, uning diagnostik texnologiyasi va vositalarini asoslash; loyihalashtirilgan modelni maqsadiga erishish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish.

3. Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish modelining quyidagi bloklari aniqlashtirildi: maqsadli, nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonli va natijaviy. Mazkur modeldagi refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish mexanizmi sifatida refleksiv, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, loyihalash, modulli ta’lim texnologiyasi, interfaol o‘qitish metodlardan foydalanish asosida tashkil etilgan kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik xizmat qildi.

4. Tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi: mashg‘ulotlarning muammoli-variativ tuzilishi orqali pedagogik o‘zaro munosabatlarda bo‘lajak o‘qituvchisining refleksiv hayotiy tajribasini tarkib toptirish; bo‘lajak o‘qituvchini refleksiv-kasbiy muammolarni hal qilish jarayonida bo‘lg‘usi pedagogik faoliyatga jalb qilish; bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv pozitsiyasiga kirish vositasi sifatida refleksiv algoritmni ishlab chiqish uchun foydalanish.

### **III BOB. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA REFLEKSIV POZITSIYANI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

#### **3.1-§. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi**

Ma'lumki, odatda, tadqiqot farazi pedagogik tajriba yordamida o'z tasdig'ini topadi. Bu esa albatta, ilmiy-pedagogik tadqiqot usullari yordamida amalga oshadi. Buning uchun kuzatish, suhbat, intervyu, so'rovnoma, tashxis, maxsus vaziyatlarni yaratish kabi usullardan maqbul foydalanish talab etiladi.

Tajriba-sinov ishlarining mohiyati o'rganilgan hodisalarini muayyan sharoitlarda sinovdan o'tkazishdan iborat bo'lib, rejalashtirilgan vaziyatlarni vujudga keltiradi, sabab-oqibat aloqadorliklarini aniqlaydi va buning asosida tajribaviy ta'sir ko'rsatilib, ularning xolis natijalari o'rtasida tasodifiy bo'limgan aloqadorlik o'rnatiladi.

Tajriba o'rganilayotgan hodisani boshqa vaziyatlardan alohida ajratib olish, sinaluvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish shartlarini maqsadli ravishda o'zgartirish, alohida o'rganilgan pedagogik hodisalarini taxminan bir xil sharoitda takroriy sinovdan o'tkazishga imkon beradi. Tajribaning samaradorligi uning vazifalarini to'g'ri qo'yish, zaruriy mezon va ko'rsatkichlarni ishlab chiqishga bog'liq bo'lib, ular asosida tadqiq etilayotgan voqyelik o'rganilib, olingan natijalar baholanadi. [12; 284-b]

Ilmiy adabiyotlar tahliliga muvofiq, shuni aytib o'tish mumkinki, pedagogik tajriba-sinov ishlari – bu olg'a surilgan farazning ishonchligini xolislik va aniq dalillarga asoslangan holda tekshirish uchun mo'ljallangan tadqiqot usullari majmuidir.

"Tajriba-sinov" tushunchasining juda ko'plab talqinlari mavjud bo'lib, u yangiliklarni amalda sinab ko'rish va umuman olganda izlanishli faoliyat tarzida tushuniladi. Ammo tajriba-sinov ishlarining hyech bo'limganda asosiy xususiyatlaridan biri bo'lmasa (shartlarni belgilash, o'rganilayotgan aloqadorliklarni atayin o'zgartirish, aniqroq yoki kamroq o'lchov birliklari), unda o'tkazilgan tadqiqotni qat'iy asosga qurilgan tajribaviy ish, deb aytish mumkin emas.

Tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun quyidagi talablarga rioya qilindi: [12; 284-b] mavjud holatni o'rganish va tadqiqot farazini belgilash uchun oldindan maqsadli ravishda pedagogik kuzatishni amalga oshirish; tajriba-sinov ishlari uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish va obyektlarni tanlash; tajriba-

sinov o'tkazishning aniq tartib-qoidalarini belgilash; tajriba-sinov ishlari jarayonida dalillarga tayanish va natijalarni to'g'riligini hisobga olish; olingan ma'lumotlarni tizimli ravishda qayd etib borish; qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni turli holatlarda sinab ko'rish; materialarga matematik-statistik va nazariy-tahliliy usullar orqali qayta ishlov berish; pedagogik tajribani amalga oshirishda sinaluvchilarining shaxslilik xususiyatlarining boyib borishini hisobga olish; tajriba-sinov ishlari shartlari, uning tuzilishini shunday rejalashtirish kerakki, ularning pedagogik jarayon obyektlariga ta'siri nihoyatda ijobiy bo'lishi va umuman, pedagogik tizim faoliyatining asosiy tamoyillariga zid kelmasligi; tajribaviy ish oqilona tashkil etilishi va bu orqali uni boshqarish va nazorat qilish imkonini berishi kerak.

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining maqsadi ishlab chiqilgan modelni amaliyatga joriy etish pedagogik shart-sharoitlarining bo'lajak o'qituvchilarining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish jarayonlariga ta'sir darajasini aniqlashdan iborat etib belgilandi. Belgilangan maqsadga muvofiq, pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi vazifalar aniqlashtirildi:

- pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishning tashkiliy-texnik jihatlarini aniqlash;
- tadqiq qilinayotgan holatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun belgilab olingan pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish texnologiyasini ishlab chiqish;
- belgilangan pedagogik shart-sharoitlar bo'lajak o'qituvchilarining refleksiv pozitsiyasini rivojlantirish samaradorligiga qay darajada ta'sir qilishini sinovdan o'tkazish;
- olingan tajriba-sinov ishlari natijalarini qayta ishlash, tahlil qilish va uni to'g'ri talqin qilish;
- ilgari surilgan farazning statistik jihatdan ahamiyatga egaligini isbotlash.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining tashkiliy-texnik jihatlari quyidagilarni o'z ichiga qamrab oldi:[12; 284-b]

- 1) pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va o'tkazish tamoyillariga qat'iy rioya qilish;
- 2) pedagogik tajriba-sinov va uning bosqichlarini amalga oshirish shartlarini aniqlashtirish;
- 3) pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligini baholash uchun tashxis dasturini ishlab chiqish;
- 4) tadqiqot muammosining amaliy ahamiyatga egaligini asoslash.

Pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishda onglilik va faollik, tizimlilik va izchillik, ilmiylik, nazariya va amaliyat uyg‘unligi, subyektivlik, aksilogik, refleksivlik, faollik kabi didaktik tamoyillarga tayanildi.

Bizga yaxshi ma’lumki, qo‘lga kiritilgan natijalarning ishonchliligi albatta, tajribaning qanday sharoitda o‘tkazilganligiga bevosita bog‘liqdir. Chunki tanlangan pedagogik shart-sharoitlar tadqiq etilayotgan obyektning holatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatib, hamma vaqt ham boshqarib bo‘lmaydigan sinergitik tavsifga ega bo‘ladi.

Tajriba-sinov ishlariiga Buxoro davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika institutining 478 nafar talabasi ishtirok etdi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi: tayyorlov, asosiy va yakuniy.

Tajriba-sinov ishlaringning tayyorlov bosqichi 2018-2019 o‘quv yillarda o‘tkazilib, asosiy maqsad sifatida tajriba-sinov dasturini ishlab chiqish va tashxis metodikalarini tanlashdan iborat bo‘ldi. Mazkur bosqichda quyidagi vazifalar hal qilindi:

- 1) tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazishning maqsadi, asosiy shartlari va bosqichlarini aniqlashtirish;
- 2) bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyaning rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari, ko‘rsatkichlari va diagnostik usullarini aniqlash;
- 3) matematik-statistik tahlil usullarini tanlash;
- 4) bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyaning rivojlanganligini mavjud holatini baholash.

Asosiy bosqich 2019-2020 o‘quv yillarda o‘tkazildi. Mazkur bosqichning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish modeli va pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligini baholashdan iborat bo‘ldi.

Mazkur bosqichda quyidagi vazifalar hal etildi:

- 1) bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish tartibiga aniqlik kiritish;
- 2) pedagogik shart-sharoitlar majmuini bo‘lajak o‘qituvchilarla refleksiv pozitsiyani rivojlantirishga ta’sirini baholash;
- 3) natijalarni birlamchi qayta ishlash va statistik tahlil qilish.

Yakuniy tajriba-sinov ishlari 2020-2021 o‘quv yillarda o‘tkazilib, uning maqsadi olingan natijalarni tahlil etish va umumlashtirishdan iborat bo‘ldi. Mazkur bosqichda quyidagi vazifalar hal etildi:

- 1) qo‘lga kiritilgan natijalarni tahlil etish va tavsiflash;
- 2) bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirishga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tajriba-sinov ishlari samaradorligini baholash uchun dasturni ishlab chiqishda axborotlarning to‘g‘riliqi va to‘liqligi tamoyiliga amal qilindi. Ishonchli ma’lumotlar deganda ham nazariy, ham empirik jihatdan xatolardan xoli bo‘lgan axborotlar tushuniladi. Axborotlarning ishonchliligi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq: axborotning ilmiy jihatdan asoslanganligi; tasodiflarning yuzaga kelmasligi; aniqligi va to‘g‘riliqi.[20; 552-b]

Tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqish ham uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda tadqiq qilinayotgan obyekt nazariy jihatdan tahlil qilindi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyaning rivojlanganligini tashxis etish mezonlari, ko‘rsatkichlari va tashxis usullari belgilab olindi.

Tadqiq qilinayotgan obyektni nazariy tahliliga dissertasiyaning birinchi bobida bat afsil to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyani rivojlantirish jarayonini to‘liq ochib berildi.

Tajriba-sinov ishlari dasturining birinchi bosqichida ko‘zda tutilgan ikkinchi vazifani amalga oshirish uchun avvalo, mezon va ko‘rsatkichlar tushunchalariga aniqlik kiritib olindi. Mezon deganda, “biror-bir narsa-hodisani baholash, aniqlash yoki tasniflash maqsadini ko‘zda tutuvchi xususiyat” nazarda tutildi. [74; 207-b]

L.M.Kustovning fikricha, mezonni tavsif va parametr dan farqlash kerak. Tavsif bu narsa-hodisaning mazmunini aniqlashga xizmat qilsa, [74; 207-b] parametr esa, “jarayon, hodisa yoki tizimning asosiy xususiyatini belgilab beruvchi qiymatdir”. [74; 207-b]

Demak, mezon hodisaning sifatini o‘lchashga xizmat qiladi. Uni sifat o‘lchoviga aylantirish uchun jarayonni baholashga imkon beradigan aniq ko‘rsatkichlar kerak.

Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlanganligini baholash mezonlari deganda, mazkur jarayonni baholashga xizmat qiluvchi sifat xususiyatlari nazarda tutildi. Mezonlarni belgilashda quyidagilarga e’tibor qaratildi: “mezonlar jarayon rivojining asosiy qonuniyatlarini o‘zida aks ettiradi; ular orqali o‘rganilayotgan hodisaning tarkibiy asoslari o‘rtasida aloqadorlik hosil qilinadi; mezonlar ko‘rsatkichlardan tarkib topadi; sifatni baholash vaqt va makon bilan bog‘liqlikda mezonlar asosida amalga oshadi; sifat va miqdor ko‘rsatkichlari bir-birini inkor qilmasligi kerak”. [66; 96-b]

Tajriba-sinov ishlari uchun qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarning obyektga mosligining ta’minlashni taqozo etuvchi axborotlarning asoslanganlik ko‘rsatkichi muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur ko‘rsatkichga muvofiq refleksiv nuqtai nazarning har bir tarkibiy asosi uchun aniq tavsifga ega mezonlar belgilab olindi: refleksiv-shaxsiy komponent uchun – o‘z-o‘ziga mas’uliyatli munosabat; interfaol komponent uchun – birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyat ishtirokchilariga ijobiy munosabat; refleksiv-faoliyatga doir komponent uchun – o‘qituvchilik kasbiga qadriyatli munosabat.

Mezonlar o‘lchov obyekting mavhum ko‘rinishda ifoda etib qolmasligi uchun ko‘rsatkichlar aniq bo‘lishi lozim. Ya’ni mezonni tashqi tomondan aniq ajratib turuvchi empirik ko‘rsatkichlar zarur. “Ko‘rsatkich – baholash uchun tanlangan mezonning miqdor yoki sifat tavsifi”. [66; 96-b]

Tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqishning ikkinchi bosqichida bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv pozitsiyaning rivojlangan darajasini aniqlashtirishga asosiy e’tibor qaratildi. Darajalar aniqlashtirishda quyidagi jihatlar hisobga olindi: darajalar o‘rganilayotgan obyektning o‘sish ko‘rsatkichlari bo‘lib xizmat qilishi lozim; bir darajadan ikkinchisiga o‘tish obyektning ma’lum vaqt oralig‘ida qay holatda rivojlanganligini ko‘rsatishi kerak; darajalar o‘zaro-o‘zaro bir-biri bilan aloqadorlikka ega bo‘lib, ma’lum bir xususiyatning rivojlanish sharti yoki natijasi sifatida xizmat qilishi kerak.[29; 200-b]

Bizgacha amalga oshirilgan ko‘plab tadqiqotlarda obyektning rivojlanganlik holatini baholashda yuqori, o‘rta va quyi darajalarni belgilab olish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biz tadqiqot obyektning xususiyatidan kelib chiqqan holda, rivojlanmagan, qisman rivojlangan va rivojlangan tarzidagi darajalardan foydalandik. Shu bilan birga, olingan natjalarning ishonchlilagini isbotlash uchun mazkur darajalarning to‘g‘riligini asoslashda ta’sir darjasining uchlik, beshlik va yettilik shkalasi bo‘yicha G.I.Saganenko tomonidan taklif qilingan formulaga asoslanildi: [103; 214-b]

1) shkalalarga tegishli xatolikni aniqlash:

$$\Delta_{otn} = \frac{w}{m}$$

bu yerda:  $m$  – shkalalarning haqiqiy ishlaydigan holati;

$w$  – quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadigan shkalalarning to‘liq barqarorligi bahosi:

$$w = \frac{n}{N}$$

bu yerda: n – intervalda tushish miqdori, N – umumiy sinaluvchilar soni.

Shkalalar bo'yicha formula natijalari 3.1.1-jadvalda keltirib o'tilgan.

### 3.1.1-jadval

#### Uchlik, beshlik, yettilik shkalalar taqqoslamasi

Ko'rsatkich	Uchlik	Beshlik	Yettilik
Tegishli xatolik kattaligi	0,48	0,27	0,26
Shkalalar barqarorligi	96 %	92 %	77 %

3.1.1-jadvaldan ko'rinish turibdiki, yetti (0,26) va besh (0,27) tomonlama shkalada bir xil xatolik, uch tomonlama (0,48) shkalada esa yuqori. Uchta shkaladan qay biri ishonchlik ekanligini bilish maqsadida barqarorlik daradasi va tegishli xatolik kattaligi taqqoslandi. Barqarorlik 77 % ni tashkil etgan yettilik shkalaga qiyosan savolga javob topish mumkin. Bu esa, yettilik shkala ahamiyatli emasligini ko'rsatadi. Beshlik shkalada yuqori barqarorlik kuzatilgan va uncha ahamiyatli bo'limgan xatoliklar mavjud emas, uchlik shkalada esa, yuqoriroq darajada barqarorlik mavjud va sezilarli xatolik ko'zga tashlanadi. Aynan uchlik shkala tadqiqot maqsadiga muvofiq, bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv pozitsiyaning rivojlanganligini asoslash uchun xizmat qiladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqishning uchinchi bosqichida matematik-statistik tahlilni amalga oshirish uchun miqdoriy ko'rsatkichlar belgilab olindi. Chunki har bir mezonning empirik ko'rsatkichlari miqdoriy o'lchovlarda ham aks etishi lozim. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini rivojlanganligini baholashning ball shkalasi aniqlashtirildi. Buning uchun quyidagi shkalalar belgilandi: 2 ball – yuqori daraja; 1 ball – o'rta daraja; 0 ball – past daraja.

151. Risko V.J., Vukelich C., & Roskos K. *Preparing teachers for reflective practice: Intentions, contradictions, and possibilities* // *Language Arts Journal*, 80 (2). – 2002. – P.134-144.
152. Seifert K.L. *Reflective thinking and professional development*. – Boston: Houghton Mifflin, 1999. – 268 p.
153. Schón D. *The reflective practitioner*. – 2nd ed. – San Francisco: Jossey-Vass, 1991. – 384 p.

## ILOVA

### 1-ilova

#### Refleksiv muloqotchanlik testi

**Testning maqsadi:** ushbu test insonning o‘z ichki dunyosini bilishga intilishi, o‘zining yashirin imkoniyatlarini o‘z o‘zi bilan suhbat (ichki meni bilan dialog qurish) orqali anglashga intilishini o‘rganishga mo‘ljallangan.

**Testning tavsifi:** test ikki shkaladan iborat: birinchi shkala individning refleksif muloqotchanligi haqida, ikkinchi shkala refleksiv aloqadorlikning bosqichi haqida ma’lumot beradi. Test o‘z ichiga 25 ta ta’kid va svolni o‘z ichiga oladi, sinaluvchilar ularga ijobiy yoki salbiy javoblar beradilar.

**Yo‘riqnomma:** sizga bir qator ta’kid va savollar taqdim etilgan, siz ularga ijobiy yoki salbiy javob qaytarishingiz mumkin. Ba’zi savol va ta’kidlarga javob berishga qiynalishingiz mumkin, lekin iloji boricha yaqinlashgan javoblarni tanlashga harakat qiling. Javoblar blankasida o‘zingizga mos bo‘lgan javobni belgilang.

E’tiborli bo‘ling, javoblarga iloji boricha tez va erkin javob berishga harakat qiling!

	Savol va ta’kidlar	Y o‘q	H adan ko‘ra yo‘q	Yo‘ qdan ko‘ra ha	X a
	Men yo‘riqnomani tushundim va to‘g‘ri javob berishga tayyorman				
	Meni har doim o‘z ichki ovoziga qulqoq tutuvchi shaxs deyish mumkin, “nima qilish mumkin, nima mumkin emas” ligiga qulqoq tutaman				
	Mening ruhim xuddi tirik oyna kabidir, u bilan suhbatlashishni yaxshi ko‘raman				
	Tan olaman, atrofdagilarning menga bo‘lgan munosabati, xavotirli o‘ylarimga sabab bo‘lgan				
	Men o‘zimni o‘zim xoxlagan				

	vaqtida tinchlantira olmayman				
	Men o‘z bolaligimni, o‘smirligimni, yoshligimni, yetukligimni va qarilik davrdagi “Men”larimni bir stol atrofiga yig‘ib uzoq suhbat qurishni hoxlardim				
	Mening ichki dunyoyimni ko‘plab sir sinoatlarga tenglashtirish mumkin				
	Ba’zida shunday bo‘ladiki, miyamga o‘rnashib qolgan fikrlardan uzoq vaqt qutila olmayman				
	Mening xavotirim shunchalik kuchliki, u xatto ongli fikrimni, meni tinchlantirishga urinayotgan yaqinlarimni ovozlaridan ham kuchliroqdir				
0	Menimcha, o‘zim haqimdagи savol va javoblardan iborat krossvord tuzish qiziqarli mashg‘ulot bo‘lardi				
1	Xatto tezlashtirilgan hayot tempida ham, men o‘z ichki dunyoyimni anglash uchun vaqt topaman				
2	Meni o‘zim xaqimdagи fikrlarim, xavsalamni pir qiladi				
3	Men shunday donishmand inson bilan suhbatlashishni xohlardimki, u menga xavotirligimni yengish uchun maslahat bersa				
4	Yuqoridagilarni o‘qib vaqtimni bekorga o‘tkazyapman degan qarorga keldim				
5	Men o‘zim bilan o‘zim suhbatlashib mazza qilaman				

6	Vaqti vaqt bilan o‘zimga savol beraman: “Men endi qandayman, menda qanday o‘zgarishlar yuz berdi”				
7	Men o‘zimdan va o‘z xavotirlanishimdan juda charchadim				
8	Mening xavotirlanishim fikriy bo‘riga o‘xshaydi, u bilan ham kelishib olish mumkin emas va u meni yanchib tashlashga tayyor				
9	Men o‘zimga tez tez savol bilan murojaat etaman: “Meni ichki dunyoyimda nima yaxshi tarafga o‘zgardi”				
0	Men o‘z yashab o‘tgan yillarim haqida o‘zimdan hisob so‘rash uchun vaqt topaman				
1	O‘ylaymanki, o‘zim haqimda ertak yozsam menda ko‘proq yaxshilik mavjudmi yoki yomonlikmi bilgan bo‘lardim				
2	Men o‘zim uchun eng muhim va asosiy tanqidchiman				
3	Ba’zida o‘zimning xavotirli o‘ylarimni jilovlash uchun o‘zimda kuch topa olmayman				
4	Aslida meni ichki olamim mahluqlarga to‘la, ba’zida ulardan o‘zim ham qo‘rqaman				
5	Men barcha savol va ta’kidlarga ochiq javob berishga urindim				

### Refleksiv muloqotchanlik testi kaliti

**Yo‘q – 1 ball**

**Xadan ko‘ra yo‘q – 2 ball**

**Yo‘qdan ko‘ra ha – 3 ball**

**Ha – 4 ball**

## **Refleksiv muloqotchanlik shkalalari**

Savollar: 2, 3, 6, 7, 10, 11, 15, 16, 19, 20, 21.

## **Refleksiv aloqadorlik shkalalari**

Savollar: 4, 5, 8, 9, 12, 13, 17, 18, 22, 23, 24.

## **Tekshiruvchi shkala**

Savollar: 1, 14, 25.

## **Ballar yig‘indisi**

	<b>Refleksiv muloqotchanlik</b>	<b>Refleksiv aloqadorlik</b>
Past bosqich<	27 gacha	21 gacha
O‘rtadan past =<	28-31	22-27
O‘rtadan yuqori =>	32-35	28-31
Yuqori >	36-44	32-44
Maksimum	44	44

## **2-ilova**

### **Axloq-odob meyorlariga munosabatingizni aniqlash metodikasi**

Yo‘riqnomalar: Ahloq-odob meyorlariga nisbatan munosabatingizni aniqlang (mas’uliyatlilik, jamoaga yo‘nalganlik, o‘ziga tanqidiy munosabat, prinsipiallik, mergaklik, adolatlilik). Quyida turli hayotiy vaziyatlar berilgan. Ulardan har biri siz bilan yuz berganda o‘zingizni qanday tutardingiz? Taklif etilgan javoblardan o‘zingizga mosini tanlang va belgilang.

**1.Ta’til vaqtida, siz dam olgani safarga ketgani hozirlik ko‘rayotgan edingiz, to‘satdan guruh rahbaringiz qo‘ng‘iroq qilib o‘quv xonangizni tartibga keltirish lozimligini aytdi. Siz qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?**

- A.Yordamga tayyor ekanligingizni aytib, safarni kechiktirasiz
- B.Tengdoshlariningizni to‘plib barcha ishni bir kunda bajarasiz
- V.Qaytgandan so‘ng yordamlashishga va ’da berasiz
- G.Shaharda qolgan biror kimni chaqirishni maslahat berasiz
- D.yoki.....

**2.Sizga o‘zingizga ma’qul bo‘lmagan topshiriq berildi va uni tezda bajarish zarur. Bu topshiriq jamoa uchun kerak. Bunday vaziyatda siz qanday yo‘l tutasiz?**

- A.Cin ko‘ngildan topshiriqni bajarasiz
- B.Topshiriqni bajarish uchun o‘rtoqlaringizni jalb qilasiz

V.Siz uchun qiziqarli bo‘lgan boshqa topshiriq berishlarini so‘raysiz  
G.Rad etish uchun bahona topasiz

D.yoki

**3.Guruhdoshlaringiz siz haqingizda adolatli, ammo yoqimsiz gaplar aytayotganligini eshitib qoldingiz. Qanday yo‘l tutasiz?**

A.O‘z xatti – harakatlaringiz sababini ularga tushuntirishga urinasiz

B.Yeshitganlaringizni hazilga yo‘yib, o‘z kamchiliklaringizni tezroq bartaraf etishga urinasiz

V.O‘zingizni hyech nimani eshitmaganga olasiz

G.Guruhdoshlaringiz sizning orqangizdan gapirganliklari uchun ham sizdan yaxshi emasliklarini aytasiz

D.yoki...

**4.Mehnat oromgohlarida sabzavotlarni tagini yumshatayotganda qo‘lingizda yara hosil bo‘ldi. Siz nima qilasiz?**

A.Og‘riq kuchli bo‘lsa ham boshqalar qatori ishlaysiz.

B.Do‘srlaringizdan yordam so‘raysiz V.Sizni bu ishdan ozod etib boshqa ishga o‘tkazishlarini so‘raysiz

G.Ishni tugatmay dam olgani ketasiz D.yoki...

**5.Siz bir inson boshqasini nohaq xafa qilganligiga guvoh bo‘lib qoldingiz. Siz nima qilgan bo‘lardingiz?**

A.Xafa qilgan insonga jabrlanuvchidan uzr so‘rashini talab qilasiz

B.Nizoni kelib chiqishini aniqlaysiz va uni bartaraf etasiz

V.Jabrlanuvchiga hamdardlik bildirasiz

G.Bu vaziyat sizga tegishli emasdek o‘zingizni tutasiz

D.yoki...

**6.Siz o‘zingiz istamagan holda boshqa bir insonga zarar yetkazdingiz yoki yomonlik qilib qo‘ydingiz. Bunday vaziyatda qanday yo‘l tutasiz?**

A.Zarar va dilxiralikni yo‘qotish uchun qo‘lingizdan kelgan barcha ishni qilasiz

B.Kechirim so‘rab xafa qilishni istamaganingizni tushuntirasiz

V.Siz yetkazgan zararingizni hyech kim sezmasligiga harakat qilasiz

G.Hamma aybni jabrlanuvchiga ag‘darasiz: nega birov larning ishiga aralashadi bunga uning o‘zi aybdor

D.yoki...

“a”, ahloq-odob meyorlariga nisbatan ijobiy, faol va barqaror munosabatdaligizdan darak beradi;

“b”, bu munosabat ancha faol, lekin beqaror (kompromiss);

“v”, bu munosabat passiv va beqaror;  
“g”, munosabat salbiy va beqaror.

### 3-ilova

#### Trening mashg‘ulotlari namunalari

1-mavzu. “Ustuvor yo‘nalishlar va qadriyatlar”.

Mashg‘ulot maqsadi: trening ishtirokchilari bilan tanishish (o‘zi haqida va o‘z qarashlari, e’tiqodlari, qadriyatları to‘g‘risidagi tasavvurlarini aniqlash); “dunyoqarash”, “e’tiqod”, qadriyat tushunchalarini aniqlash; o‘zida ustuvor qadriyatlarni diagnostika qilish, mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha individual va guruhli mashqlar.

#### “Tanishuv” mashqi.

Trening ishtirokchilariga qog‘ozchalar tarqatilib, ularda quyidagilar yozilgan bo‘ladi: "Sevimli (film, shoir, akter, xonanda, rassom, shahar, kitob, gul, musiqa, hayvon, mashg‘ulot va boshqalar). Har bir ishtirokchi o‘zining sevimli narsasini qisqacha izoh keltirib aytadi. Davomiyligi – 15-20 daqiqa.

Savollar: Kimning gapi sizning yodingizda qoldi? Nega? Qaysi savolga siz javob berishni istardingiz?

#### “Ro‘yxat” mashqi.

Ishtirokchilar ikki guruhga bo‘linadilar. Bittasiga har kim o‘qishi kerak bo‘lgan 10 ta kitob (kasb mavzusi) ro‘yxatini tuzish, boshqasiga har kim ko‘rishi kerak bo‘lgan 10 ta film (kasb mavzusi) ro‘yxatini tuzish topshirilgan. Yakuniy qaror barcha ishtirokchilar tomonidan qabul qilinishi kerak. Jarayon vaqt – 10-15 daqiqa. So‘ngra har bir guruh o‘z ro‘yxatini tanlangan kitob va filmlarga izoh berib o‘qiydi. Boshqa guruh ishtirokchilari o‘z variantlarini qo‘sishlari mumkin.

Savollar: Mazkur asarlar bilan necha yoshingizda tanishgansiz? Ular sizga qanday ta’sir ko‘rsatdi? Sizningcha, san’at dunyoqarashni rivojlantirishga qodirmi? Dunyoqarash, e’tiqod, qadriyatlar nima?

**“Shior” mashqi.** Ishtirokchilar quyidagi shiorlar ostida yashayotgan odamlarni tasvirlashlari kerak:

- Turmush ongni belgilaydi.
- Ong turmushni belgilaydi.
- Nima qilish kerak bo‘lsa qilaver, nima bo‘lsa bo‘lar.
- Hayotdan zavqlan.
- Sen bunga loyiqsan.
- Uzoqning bug‘doyidan yaqinaning somoni yaxshi.
- Bugungi ishni ertaga qo‘yma.

- Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog‘in tishlar.
- Qo‘lingdan kelmagan ishga qo‘l urma.
- Yashash uchun kurashish kerak.
- Ishlamagan tishlamaydi.
- So‘rasang olasan, izlasang topasan.
- Yiqilganni suyama.
- Nimani eksang o‘shani o‘rasan.
- Odob oltindan qimmat.

Savol va topshiriqlar: ushbu shiorlar qanday hayotiy strategiyani ifodalaydi? Ushbu strategiyalarga amal qiladigan odamlarni tasvirlab bering. Siz ulardan qaysi biri bilan ishslashni afzal ko‘rardingiz?

Ushbu shiorlardan qaysi biri sizga eng yaqin? Hayotdagi pozitsiyangizni eng yaxshi aks ettiradigan shiorni o‘ylab toping.

Hozirgi vaqtida qadriyatlarning o‘zgarishi, buzilishiga olib keladigan yaxshilik va yomonlik, zarar va foyda mezonlarining faol ravishda yo‘q qilinishi kuzatilmoqda. Siz uchun ushbu tushunchalarning aniq mezonlari mavjudmi? Farzandlaringizni qanday ko‘rishni xohlagan bo‘lardingiz?

Nazariy qism:

Bugungi kunda insoniyat yashashi uchun shart-sharoit bo‘lgan o‘zaro hamkorlikning samarali modellarini izlash asrlar davomida amalga oshirilib kelinmoqda. Shunday qilib, Franklin barcha ezgu ishlar ichida quyidagilar muhim ahamiyatga ega, degan xulosaga keldi:

- O‘zini tiyish (to‘yguncha ovqatlanmaslik, mast bo‘lguncha ichmaslik).
- Sukut saqlash (faqat o‘zimga va boshqalarga foydali narsalarni gapirish).
- Tartib (har bir narsaning o‘z joyi bor, har bir ishning o‘z vaqtি bor).
- Qat’iylik (qarorga qat’iy amal qilish).
- Tejamkorlik (pulni faqat o‘zimga va boshqalarga foydali narsalarga sarflash).
- Mehnatsevarlik (vaqtini behuda sarflamaslik, har doim biror bir foydali ish bilan mashg‘ul bo‘lish).
- Samimiylilik (So‘zlar, fikrlar va harakatlardagi halollik).
- Adolatlilik (obyektiv, ammo sahovatli bo‘lish).
- Mo‘tadillik (haddan oshmaslik, his-tuyg‘ulari va harakatlarida o‘zini tutish).

- Ozodalik (tana ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik, kiyim va uyning tozaligiga e’tibor berish).

Savol va muhokamalar: Ushbu g‘oyalar va prinsiplar haqida qanday fikr dasiz? Ulardan qaysi biriga qo‘shilasiz va qaysi biriga yo‘q? Zamonaviy sharoitda ularni amalga oshirish mumkinmi? Ularning tadbiq etilishiga nima to‘sinqlik qilmoqda?

## 2-mavzu. «Motivlar va ehtiyojlar»

Mashg‘ulot maqsadi: motivasiyaning turli nazariyalari bilan tanishish; o‘z-o‘zini diagnostika qilish (“Dolzarb ehtiyojlar” metodikalari) asosida o‘z motivlari va ehtiyojlari to‘g‘risida tasavvurini aniqlash, mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha individual va guruhli mashqlar.

**“Ikki quyon ortidan”** (Ye.A.Golovaxi metodikasi bo‘yicha) mashqi. Mulohazalarni o‘qib ko‘ring va sizning qarashlaringizga mos keladigan ikkitasini tanlang.

1. Kasbiy imkoniyatlarini imkon darajasida amalga oshirish, kuchli, irodali sifatlarni namoyon etish.
2. Yuqori ijtimoiy mavqye, mashhurlik, shon-sharafga erishish, boshqalarning e’tirofiga sazovor bo‘lish.
3. Yaxshi moddiy sharoitlarni ta’minlaydigan yuqori daromad olish.
4. Ijodiy tashabbusni namoyish etish, o‘z intellektual qobiliyatlarini to‘liq ochish.
5. Yaxshi sharoitda, ya’ni charchatmaydigan, salbiy hissiyot uyg‘otmaydigan ishda ishlash.
6. Do‘sst va yaqinlaringiz bilan muloqot qilish, sevimli mashg‘ulotlarga yetarli vaqt va kuch sarflash.

Agar siz tanlagan mulohazalar dastlabki to‘rtta nuqtai nazarlarga (kasbiy bo‘lmagan motivasiya) tegishli bo‘lsa, demak, hozirgi paytda kasbiy o‘z-o‘zingizni anglash (kasbiy o‘sish va martaba) siz uchun muhimdir.

Agar tanlangan mulohazalar 5 va 6 bandlarga (kasbiy bo‘lmagan motivasiya) to‘g‘ri kelsa, demak, siz uchun kasbiy o‘z-o‘zini anglash bilan bog‘liq bo‘lmagan masalalar (oila, sog‘liq, shaxsiy o‘sish, qaysiki har doim ham kasbiy o‘sish bilan bog‘liq bo‘lmagan) ko‘proq muhimroqdir. Agar tanlangan fikrlar jadvalning turli bandlariga to‘g‘ri kelsa, unda sizning motivasiyangiz qarama-qarshi xarakterga ega. Endi siz uchun hozir nima muhimligini hal qilib oling - kasbiy o‘z taqdirini belgilash yoki boshqa masalalar.

Olingan natijalar sizning o‘z haqingizdagi tasavvurlaringizga mos keladimi?

### "Dolzarb ehtiyojlar" metodikasi.

Tasavvur qiling, siz kuchli chanqoqni his qilayapsiz va bu vaqtda sizga nanotexnologiyalarning istiqbollari haqida aytib berishmoqda. Siz ikki kun uxlamadingiz va sizni restoranga taklif qilishmoqda. Sizning qorningiz och va sizni konservatoriyaga sudrab borishmoqda. Bizning dolzarb ehtiyojlarimiz e’tiborga olinmayotganidan biz noqulaylik va bezovtalikni boshimizdan kechiramiz. Ushbu barcha holatlarda dominant qonun amal qilib, ular dominant ehtiyojlarni qondirishni ta’minlaydigan reflekslar tizimidir. Qolgan ehtiyojlar kamroq dolzarb sifatida ikkinchi darajali ehtiyojlarga aylanadi: chanqog‘imizni qondirganimizda axborotni qabul qila olamiz, va uxbab olgach, zavq bilan kechki ovqatni yeymiz.

Bu yerda turli darajadagi ehtiyojlar ro‘yxati keltirilgan. Ularni raqamlang, ya’ni ularni siz uchun eng muhim bo‘lgan 1 raqamidan, unchalik ahamiyatsizi yoniga 2 raqami, hamda hozirgi vaqtda sizga eng ahamiyatsiz ehtiyojlar yoniga 15 gacha bo‘lgan raqamlarni qo‘ying.

- Og‘riqdan xalos bo‘lish
- Kaft qichisa – manglayin qashimas
- Ochlik va chanqoqni qondirish
- Og‘ir mehnatdan keyin hordiq
- Harorat rejimining o‘zgarishi (sovuqdan - iliqqa, issiqliqdan - salqinga)
  - Do‘sstar, qiziqarli odamlar bilan muloqot
  - G‘alaba oshyoni (sportda, ijodiy tanlovlarda, fan olimpiadalarida)
  - O‘z xizmatlaringiz va qadr-qimmatingizni tan olish (mukofot, maqtov, xushomadlar)
- Qiziqarli kitob o‘qish, yaxshi film tomosha qilish
- Sovg‘alar olish
- Sovg‘alar berish
- Odamlarga beg‘araz yordam
- Yaxshi bajarilgan ishni anglash
- Ishda ilhomlanish hissi
- Yaqinlar bilan yarashish.

Birinchi beshtalikka fiziologik ehtiyojlar kiradi. Agar ular sizga dolzarb bo‘lsa, sizning jismoniy holatingiz ehtimol komfort zonangizdan

tashqarida bo‘lishi mumkin. Mehnat va hordiq chiqarish sharoitlari va rejimiga, sog‘lig‘ingizga e’tibor bering.

Keyingi beshtalik – bu ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlardir. Ularning motivlarini, ya’ni hayotingizdagi muayyan voqyealar siz uchun nimasi bilan muhim va qadrli o‘zingiz mustaqil ravishda aniqlashga harakat qiling.

Agar oxirgi beshtalikdagi ehtiyojlar ro‘yxatingizning yuqori qismidan joy olgan bo‘lsa, ehtimol siz “ehtiyojlar piramidasi”ning yuqori qismida joylashgansiz. Bu juda yaxshi, ammo bu darajaga erishish yetarli emas – yuqori pog‘onada o‘zingizni tutib qolish muhimdir.

Motivasiya: sof utilitar nuqtai nazardan motivasiyaning quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- Qadriyatli ("Ish o‘z-o‘zidan muhim va qiziqarli");
- Aralash ("ish juda muhim, ammo meni ko‘proq qiziqtiradigan narsalar ham bor");
- Instrumental, shu jumladan moddiy (mehnat – hayot manbai);
- Statusli motivasiya (mehnat – bu muvaffaqiyatga, jamiyatda mavqyega erishish vositasidir);
- Rivojlanish va o‘z-o‘zini namoyon qilish (mehnat – o‘zini ifoda etish vositasidir).
- Demotivasiya, yoki motivasiyaning yo‘qligi (mehnat – yoqimsiz vazifa, agar iloji bo‘lsa, men umuman ishlamagan bo‘lar edim).

Motivasiyani tadqiqot qilish va o‘rganish imkonи juda kam, chunki odam motivlari o‘z onglarida bo‘lib, uni har doim ham anglab bo‘lmaydi. Motivasiya psixologiyasi – bu kognitiv jarayonlar, hissiyotlar, maqsadlar va ma’nolar psixologiyasini birlashtirgan faoliyatni tartibga solish sohasida rivojlanayotgan tadqiqot sohasidir. Motivasiya – ishchi kuchi va xodimlarni boshqarish sifatini oshirishda asosiy tushunchadir.

- Sizningcha, ushbu motivasiya turlaridan qaysi biri eng samarali va nima uchun?
- Quyidagi yondashuvlardan qaysi biri sizga eng yaqin?
- Maktabingiz uchun qanday usullar xos?
- O‘quv va kasbiy motivasiyani rivojlantirish uchun qanday shakl va usullardan foydalanish mumkin?

- Sizningcha, o‘quv va kasbiy motivasiyani rivojlantirish bo‘yicha ishlar samarasining pastligi nimada? Motivasiyani oshirish bo‘yicha o‘z usullaringizni taklif eting.

### **“Xohlayman” va “kerak” o‘rtasidagi mashq.**

Har qanday, hatto eng qiziqarli va sevimli ish ham kuch sarflash va fidoiylikni talab qiladi. Inson faoliyatining asosiy turlari – o‘yin, ta’lim, mehnat, ijod, hordiq.

Ushbu faoliyat turlari o‘rtasida aniq chegara yo‘q. Har qanday faoliyat tashqi va / yoki ichki motivlar – zaruriyat va ehtiyojga yo‘naltiriladi.

O‘yin, ta’lim va mehnat siz uchun nima hisoblanadi ehtiyojmi yoki zaruriyatmi, jadvalni shunga ko‘ra to‘ldiring.

	Ehtiyoj	Zaruriyat
O‘yin		
Ta’lim		
Mehnat		

O‘yin kuch, epchillik, aql-idrokni namoyon etish va rivojlantirish, kuchli his-tuyg‘ularni boshdan kechirish imkoniyatini beradi. O‘yin deganda so‘zning keng ma’nosida o‘yin-kulgularni – kino, konsert, ko‘ngilochar dasturlarda ishtirok etishni tushunish mumkin. Biz hayvonlar yoki sport musobaqalarini mammuniyat bilan kuzatishimiz mumkin, garchi bularsiz ham yashashimiz mumkin. Biz uchun vaqtichog‘lik qilish, busiz ham hayot kechirishimiz mumkin bo‘lgan ehtiyoj professional sportsmen va artistlar uchun mehnat, ya’ni zaruriyatdir.

Ta’lim ba’zilar uchun ehtiyoj, boshqalar uchun zarurat. Ta’lim samaradorligi o‘sib bormoqda, chunki inson tashqi (zarurat) va ichki (ehtiyoj) motivlar ta’siri ostida harakat qiladi. Yangi ma’lumotni o‘zlashtirish va yangi ko‘nikmalarni egallash qobiliyati o‘rganish belgisi va har qanday sohada va har qanday yoshda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun shartdir.

Mehnat insonga ko‘plab jismoniy va ruhiy ehtiyojlarni qondirish uchun qonuniy va ijtimoiy maqbul imkoniyatni beradi. Biz o‘z kuchimiz, bilimimiz, ko‘nikma va vaqtimizni ish haqiga almashtirishga majburmiz, mos ravishda mehnat – bu zarurat. Agar meros olsangiz yoki xazina topsangiz, ishlaysizmi? Agar siz ishingizni tashlasangiz, demak bu siz uchun zarurat, agar tashlamasangiz bu ehtiyoj. Mehnat-ehtiyoj – bu kasbiy yaroqlilikning ijodiy darajasidir.

3-mavzu. “Shaxsni yo‘naltirish”.

Mashg‘ulot maqsadi: dominant to‘g‘risidagi ta’limot bilan tanishish; o‘z-o‘zini diagnostika qilish (“Men-Boshqa, Karyera-Ish” metodikasi) asosida shaxsni yo‘naltirish to‘g‘risidagi tasavvurlarni aniqlash, mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha individual va guruhli mashqlar.

### “Jamoaviy hisob” mashqi.

Davrada o‘tirgan ishtirokchilar ovoz chiqarib guruhning soniga mos keladigan raqamni quyidagicha sanashlari kerak: har biri faqat bitta raqamni va faqat bir marta aytishi mumkin. Agar bir vaqtning o‘zida ikkita kishi bir xil raqamni aytishsa, sanash oxiriga yetguncha qayta hisoblanadi. Kelishib olish mumkin emas. Mashqni qiyinlashtirish uchun ishtirokchilardan ko‘zlarini yumishlarini so‘rash mumkin. Ushbu mashq empatiya va boshqalarni his qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Nazariy qism:

Bizning ongimiz, zulmatda projektor nuri singari, biz uchun ayni paytda zarur bo‘lgan narsalarni esda saqlab qoladi. Ehtimol, hozirgina tanishtirilgan kishining ismini eslay olmasdan, ko‘pchilik noqulay ahvolga tushgan bo‘lsa kerak. Ammo agar bu inson biz uchun qiziq bo‘lsa yoki biz unga bog‘liq bo‘lsak, xotira odatda pand bermaydi. Gap xotirada emas, balki diqqatning qaratilganligida.

Dominant ta’limoti ijtimoiy sohada kasbiy kompetensiya masalasi bilan bevosita bog‘liq. Bizning dominantlarimiz – bu ichki ishlarimiz va tashqi ta’sirlarimizning natijasidir.

Hozirgi kunda altruistik dominant juda kam uchraydi. Ammo aynan u shifokorning muvaffaqiyatlari ishlashi uchun shartdir. Boshqa tomondan dominant oila farovonligi, birgalikda nizolarsiz yashash va kasbiy muvaffaqiyat garovidir.

“Boshqa tomondan” dominantiga misollar keltiring.

Ko‘pincha, rasmiy ravishda muloqotda bo‘lganimizda, suhbatdoshni eshitmaymiz, uning nuqtai nazarini tushunishga harakat qilmaymiz, faqat o‘z holatimizga, munosabatimizga, ehtiyojlarimizga mos keladigan narsalarga munosabat bildirgan holda o‘z navbatimizni sabr bilan kutamiz. Ushbu tendensiyaga egoistik dominant deyiladi. Kundalik hayotda biz doimo uning namoyon bo‘lishiga duch kelmoqdamiz: mashinalar oqimida avtomobilistlarning harakati, burningiz oldida yopilayotgan eshik, sokin tunda baland musiqa, metro vagonidagi bo‘s o‘rirlarni egallash uchun ayollar va bolalarni turtib o‘tayotgan erkaklar.

Boshqa buzuvchi dominantlarga misollar keltiring.

Egoistik dominantlikka ega bo‘lgan odam o‘zini hamma uning atrofida aylanishi kerak bo‘lgan markaz sifatida qabul qiladi. Agar har kim o‘zini markaz deb hisoblasa, atrofida aylanish, ya’ni xizmat qilish uchun hyech kim qolmaydi. “Boshqalar” fon bo‘lgan “Men” yaqqol dominantli xulq-atvor modeli saraton hujayralari xatti-harakatlarining modeliga juda o‘xshaydi, ularning har biri o‘zini asosiy deb hisoblaydi.

Egoistik dominantlik tarqalishining bilvosita oqibati – turli sohalarda kasbiy mahoratning keskin pasayishi hisoblanib, bu tibbiy xatolar, baxtsiz hodisalar va texnogen ofatlarga olib keladi. Muammolarning sababi qilib “inson omili” keltiriladi. Ushbu tushuncha nimani o‘z ichiga oladi? Birinchidan, bu shaxsni yo‘naltirish va hayotiy qadriyatlardir. Ikkinchidan, kasbiy bilim va ko‘nikmalar. Uchinchidan, kasbiy ahamiyatli sifatlar.

### **“Men-Boshqa, Karyera-Ish” metodikasi.**

Kasb tanlash orqali inson hayot tarzini tanlaydi. Bu topshiriq sizga bugungi kunda nima muhim va nima ikkinchi darajali ekanligini aniqlashga yordam beradi. Savol raqami va javob variantlarining (a,b,v,g) kesishgan qismidagi katakchalarga siz uchun eng ahamiyatsiz bo‘lgan variant uchun noldan boshlab eng ahamiyatli variant uchun 3 ballgacha raqamlarni qo‘yib, javob variantlarini baholang. Bir qatorga bir xil ball qo‘yish mumkin emas!


#### **1. Menga yoqadi**

- a) Ko‘p bo‘sh vaqtga ega bo‘lish
- b) Hamma ishda muvaffaqiyatga erishish
- v) Do‘stlariga sovg‘alar qilish
- g) Murakkab vazifaga chiroyli yechim topish

#### **2. Mening shiorim**

- a) "Bugungi ishni ertaga qo‘yma"
- b) "Yashash uchun kurashish kerak"
- v) "Nima bersang, shuni olasan"
- g) "Yaxshi mutaxassis ko‘chada qolmas"

#### **3. Men uchun eng yaxshi ish – bu**

- a) menga o‘z hayotim bilan yashashimga xalaqit bermaydi

b) ish yuzasidan tezroq ko‘tarilishi imkoniyatini beradi

v) odamlarga kerak

g) qiziqarli

4. Men uchun baxt – bu

a) o‘z zavqim uchun yashash imkoniyati

b) katta lavozim va yaxshi ish haqi

v) do‘stlarim va yaqinlarim farovonligi

g) sevimli mashg‘ulotim bilan shug‘ullanish imkoniyati

Nº	A	b	v	g
1				
2				
3				
4				
yig‘indi				

Natijalarni qayta ishslash. Har bir ustundagi (a,b,v,g) ballar miqdorini pastki satrda hisoblang va yozing:

9-12 ball – shaxsning aniq ifodalangan yo‘nalishi;

5-8 ball – o‘rtacha ifodalangan yo‘nalish;

0-4 ball – yo‘nalish ifodalanmagan.

a) "Men". Siz uchun o‘z xotirjamligingiz va farovonligingiz juda muhimdir. Agar siz badavlat qarindoshingiz qaramog‘ida bo‘lsangiz buning yomon tomoni yo‘q. Biroq, shuni yodda tutish kerakki, kam faollik, haddan tashqari o‘zini-o‘zi boshqarish va faoliyatga ehtiyojning yo‘qligi charchoq yoki kasallikning belgisi bo‘lishi mumkin.

b) "Karyera". Ehtimol “bozor” qonunlari sizga yaqin va tushunarli. Bo‘lajak kasbingizda martabada o‘sish imkoniyati siz uchun juda muhimdir. Hayotiy muvaffaqiyat sizning tushunchangizda – bu yuqori maoshli lavozimdir. Agar siz uchun hayotning ma’nosи martabaga erishish bo‘lsa, uning ortidan quvishda o‘zingiz va yaqinlaringizni yo‘qotish xavfini tug‘dirasiz.

v) "Boshqalar". Boshqalarning manfaati va farovonligi sizning o‘zingiznikidek muhim bo‘lgan noyob insonlardansiz. Sizning tanlovingiz shaxsiy kamolot va ruhiy salomatlik haqida gapiradi. Nima bilan shug‘ullansangiz ham, insonlarga bo‘lgan munosabatingiz doimo siz uchun energiya va hayot quvonchining manbai bo‘ladi.

g) "Ish". Qaysi faoliyatni tanlashingizdan qat’iy nazar, siz muvaffaqiyatl professional bo‘lasiz. Eng asosiysi, kasbingiz hayotning ma’nosini ishdan chalg‘itib o‘zingizdan uzoqlashtirib qo‘ymasin.

Ko'rgazmali bo'lishi uchun shaxs yo'nalishi grafigini tuzish mumkin, qo'yilgan ballar yig'indisini to'rtta o'qqa qo'yiladi va nuqtalar chiziqlar bilan ulanadi. Nuqta markazdan qanchalik uzoq bo'lsa, shaxs yo'nalishi shunchalik aniq ifodalanadi.

Nazariy qism: Yuqori darajadagi (konvensial daraja) mulohazalar biz boshqalardan kutilgan (uchinchi bosqich) yoki umuman qabul qilingan me'yorlarga (to'rtinchi bosqich) muvofiq bajaradigan harakatlarimizda aks etadi. Ushbu bosqichlarda inson asosan boshqalarni ko'nglini qoldirmaslik va "yuzini yo'qotmaslik" haqida o'ylaydi. Axloq ijtimoiy va normativ sabablarga ko'ra hurmat qilinadi. 12 yoshdan oshgan insonlar odatda ushbu darajada bo'lishi kerak.

Keyingi postkonvensial darajada inson boshqa odamlar va jamiyat farovonligiga e'tibor qaratgan holda yuqori tartibdagi qadriyatlarga asoslangan mustaqil axloqiy tanlovni amalga oshiradi. Amallar tashqi bosim bilan emas, balki vijdon bilan belgilanadi. Ushbu darajaga 18 yoshdan keyin erishish mumkin.

Axloqiy rivojlanish darajasini aniqlash uchun qonun va axloq normalari, shuningdek, turli darajadagi qadriyatlar to'qnashadigan dilemmalar qo'llaniladi. Metodika ma'nosi nafaqat javoblarda, balki tanlov motivlarini tushuntirishda hamdir. Ulardan eng mashhurlarini ko'rib chiqaylik:

Ayol o'lmoqda. Uni yaqinda ushbu shaharda yashovchi farmasevt tomonidan kashf etilgan dori qutqarishi mumkin. Ushbu holatdan kelib chiqib, u buning uchun juda yuqori narxni belgiladi. Bemorning eri kerakli miqdorning faqat yarmini to'plashga muvaffaq bo'ldi. Aptekachi narxni tushirishdan yoki to'lovni kechiktirishdan bosh tortdi. Keyin eri dorini o'g'irlashga qaror qildi.

- Erkak dorini o'g'irlashi kerakmi? Nega?
- Insonlar boshqa birovning hayotini saqlab qolish uchun qo'llaridan kelganini qilishlari muhimmi? Nega?
- Erkak dorini o'g'irladi va xotiniga berdi. U bilgan polisiya xodimi dorixona yonida bir erkakni ko'rganini esladi va buni u qilganligini anglatdi.
- Ofiser gumondorni hibsga olishi kerakmi? Nega ha yoki nega yo'q?
- Ofiser erkakni hibsga oldi va tez orada sudga tortiladi. Hakamlar hay'ati bu odamni aybdor deb topdi. Sudyaning ishi – hukm chiqarish.
- Sudya qanday yo'l tutishi kerak? Nega?
- Qonunni buzgan odamlar jazolanishi kerakmi? Nega?

- Erkak vijdon amriga bo‘ysundi. Agar u vijdonan harakat qilmasa, qonunni buzgan kishi jazolanishi kerakmi? Nega?

Agar axloqiy tanlov holatlari haqiqiy hayotdan, kitob va filmlardan olingan bo‘lsa, xulq-atvor motivlarini tushuntirishning bu usuli talabalar bilan ishslashning qiziqarli shakli bo‘lishi mumkin.

4-mavzu. “O‘qituvchining kasbiy ahamiyatli sifatlari»

Mashg‘ulot maqsadi: shifokorning kasbiy muhim sifatlari haqidagi fikrlarni aniqlashtirish; hamkasblar o‘rtasida samarali muloqot modellarini ishlab chiqish, “o‘qituvchi-talaba”, o‘z-o‘zini diagnostika qilish va kasbiy ahamiyatga ega sifatlarini rivojlantirish, mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha individual va guruhli mashqlar.

Trening ishtirokchilari o‘ndan ortiq xususiyatlardan foydalangan holda ideal o‘qituvchi, bo‘lajak o‘qituvchi, muassasa rahbarining psixologik portretlarini namoyish etadilar.

**“Men - real, Men – ideal” mashqi.**

Boshqa odamlarda eng qadrlaydigan sifatlarni ajratib ko‘rsating. “Men – real” ustuniga har bir ustundan, sizning fikringizcha sizda bor bo‘lgan, uchta xususiyatni yozing.

Men - ideal			Men - real
Muloqotda	Ishda	Qalbida	
Xushmuoma lalik	Batartiblik	Adolatlilik	
Xayrixohoxlik	Ma’suliyatlik	Prinsipiallik	
Samimiylilik	Tashabbusk orlik	O‘z-o‘zini tanqid qilish	
Vazminlik	Insoflilik	Rahmdillik	
Hozirjavob	Mustaqillik	Dovyuraklik	
Jozibadorlik	Halollik	Vijdonlilik	
Odoblilik	Sermulohaz alik	Oliyhimmamatlik	
Sabrlik	Mehnatsevarlik	Hamdardlik	
Saxiylik	Intiluvchanlik	Ezgulik	

Ushbu topshiriq qanday qiyinchiliklarni olib keldi? Shifokor uchun ushbu sifatlardan qaysi biri kasbiy ahamiyatga ega? Zarur holda, ushbu ro‘yxatni to‘ldiring. Barcha fikrlar doskada yoziladi.

Trening ishtirokchilari juftlik yoki uchlikka bo‘linadi, nizoli vaziyatni tanlashib, uni rollar bo‘yicha o‘ynashadi. Tayyorgarlik uchun 5-10 daqiqa. Keyin hamma davraga qaytib, hammaning oldida o‘z vaziyatlarini navbat bilan o‘ynaydi. Mashq maqsadi – ziddiyatlari vaziyatlarda samarali xatti-harakatlarni mashq qilishdir.

Vaziyatlar guruhlarda rol orqali ijro etilganidan so‘ng yechimlarning umumiy muhokamasi qilinib, ularning samaradorligi baholanadi.

Odatiy xatti-harakatlar – nizolardan qochish, nomaqbul xatti-harakatlarga e’tibor bermaslik ziddiyatni hal qilishga yordam bermaydi. Reaksiyalar ziddiyatlarda xatti-harakatlar turi bo‘yicha (moslashish, qochish, raqobat, hamkorlik), muloqot usuli bo‘yicha (avtoritar, liberal, demokratik), rol pozitsiyasidagi (katta yoshdagi, bola, ota-on) xatti-harakatlar turiga qarab tasniflanishi mumkin. Hamkorlikka yo‘naltirilgan xatti-harakatlar konstruktiv hisoblanib, u xatti-harakatlar demokratik usuli va kattalar pozitsiyasida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda ingliz tilidan olingan assertivlik atamasi (assert fe’lidan – o‘z talablariga rioya qilish, o‘z hududlarini himoya qilish) keng qo‘llaniladi. Assertiv xatti-harakatlar manipulyasiya va tajovuzkor xatti-harakatlarga nisbatan shaxslararo o‘zaro munosabatlarning eng maqbul usuli sifatida qaraladi. Shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi ikkita hujjatni ko‘rib chiqing va baholang.

Guruh ikkita kichik guruhga bo‘linadi, ularning har biri o‘z tavsiyalarining ro‘yxatini oladi.

## I.

1. Siz o‘z xatti-harakatlaringiz, fikrlaringiz, hissiyotlaringizni hukm qilishga haqlisiz va ularning oqibatlari uchun javobgarsiz.

2. Siz xatti-harakatlaringizni oqlash uchun biron bir tushuntirish yoki asos bermaslik huquqiga egasiz.

3. Siz boshqalarning muammolarini o‘zingiz hal qilishingiz va qay darajada javobgar ekanligingizni o‘zingiz hal qilishga haqlisiz.

4. Qarashlaringizni o‘zgartirish huquqiga egasiz.

5. Siz xato qilishga va ular uchun javobgar bo‘lishga haqlisiz.

6. “Bilmayman” deb aytishga haqingiz bor.

7. Siz boshqalarning yaxshi niyatlariga bog‘liq bo‘lmashlik huquqiga egasiz.

8. Siz mantiqsiz qarorlar qabul qilishga haqlisiz.

9. Siz “Men sizni tushunmayman” deb aytishga haqingiz bor.

10. Siz “Menga ahamiyati yo‘q” deb aytishga haqingiz bor.

## II.

1. Men boshqalarning fikri bilan hisoblashmayman – agar men burnimni kovlab, pardaga artishni xohlasam, va boshqalar buni qoralashsa, unda men hyech qanday noqulaylik sezmasdan buni qilishga haqliman.

2. Men nima qilayotganimni o‘zim bilganim sababli, boshqalar mening xatti-harakatlarimni tushunishlari shart emas, xatti-harakatlarimni ma’qullashlari kerak emas.

3. Agar hyech kimning muammosi men bilan bog‘liq emas, deb o‘ylash men uchun qulayroq bo‘lsa, men osongina hammasidan kechvoraman.

4. Mustahkam e’tiqod va qat’iy qoidalar qoloqlik belgisidir. Kecha yomonlagan narsalaringizni bugun maqtash butunlay normal holat, va aksincha.

5. Xatolardan qo‘rmaslik kerak. Gunohsiz odamga o‘lim jazosini berish yoki yo‘lovchilar samolyotini tasodifan tugmachani bosib urib tushirishning qo‘rinchli tomoni yo‘q.

6. O‘z nodonligini oqlash uchun ajoyib bahona bu “Men bilmayman” sehrli formulasidir. Agar ba’zi bir sinchkov imtihon oluvchi bu bilan qoniqmasa, demak u shunchaki uyatsiz manipulyator va tajovuzkor.

7. Boshqalarning e’tiborini qozonishga hojat yo‘q. Agar hayotimda hamma narsani o‘zim hal qilsam, buning menga nima keragi bor?

8. O‘z xatti-harakatingizda siz aql-idrok va elementar mantiqdan voz kechishingiz va faqat kayfiyattingizga qarab ish tutishingiz mumkin.

9. Boshqani tushunishga intilish – bu mutlaqo ortiqcha va keraksiz kuch sarflash. Oddiygina gapini bo‘lib: “Men sizni tushunmayapman!” deyish.

10. Mening shaxsiy manfaatlarimga ta’sir qilmaydigan har qanday mavzuda men baland qo‘ng‘iroq minorasidan tupurib, uni ochiq e’lon qilishga haqliman.

Ushbu prinsiplardan qaysi birini qabul qilasiz, qaysilarini esa yo‘q? Quyidagi hujjatlarni nomlang. Siz ular haqida nima deb o‘ylaysiz? Ushbu prinsiplarga amal qiladigan odamlarni tasvirlab bering.

Treningni yakunlash (xulosa qilish). Trening samaradorligi diagnostikasi, guruh bilan xayrlashuv. Trening samaradorligini baholash. Trening ishlarini yakunlash. Olingan tajriba integrasiyasи. Xayrlashuv marosimi.

Trening ishlari o‘quvchilarning yoshini, individual, ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda, bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy o‘zini-o‘zi anglashini shakllantirish uchun psixologik-pedagogik shart sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kasbiy o‘z-o‘zini anglash jarayonining muhim sharti shundan iboratki, o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida har bir talaba o‘z harakatlarini doimiy ravishda ikkita qiyosiy shkalalarda baholaydi: bir tomondan, u o‘zini boshqalar bilan taqqoslash asosida erishgan yutuqlari darajasini baholaydi, ikkinchi tomondan, u o‘zining hozirgi yutuqlari va kamchiliklarini, o‘tgan tajribaga nisbatan, o‘zining o‘sishi yoki aksincha pasayishini baholaydi, hamda o‘zining kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini belgilab oladi. Bu talabalarning “ertangi kunga” bo‘lgan ishonchini, kasbiy kelajakka ijobiy qarashini, munosib kasbiy “Men konsepsiya”ni shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, kasbiy o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish bo‘yicha trening aprobasiyasi ushbu dasturning yuqori samaradorligini namoyish etadi va ushbu jarayonni sezilarli darajada optimallashtirishga imkon beradi.

#### 4-ilova

### **Refleksiya (o‘z ruhiy holatini tahlil qilish)ni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar majmui.**

1-jarayon. Relaksasiya.

Relaksasiya – bu jismoniy va ruhiy tinchlanib olishdir. Relaksasiyaning maqsadi – tana va ruhiyatni faoliyat olib borishga tayyorlash, e’tiborni o‘z ichki dunyosiga qaratish, ortiqcha jismoniy va asab zo‘riqishlaridan ozod qilish, fikrini jamlab olish imkoniyatini ta’minlashdan iborat.

Relaksasiya quyidagilar uchun zarur:

- o‘z-o‘zini chuqurlashtirilgan darajada ruhiy tayyorlash;
- sabr-matonat hamda o‘zini yo‘qotmaslikni talab etuvchi ruhiy zo‘riqish holatlarida;
- vahima, ortiqcha kuchlanishdan xalos bo‘lish zarur bo‘lgan vaziyatlarda.

Qanday qilib o‘zini tinchlashtirish mumkin:

O‘zingizga qulay vaziyatda joylashib oling, ko‘zingizni yuming, chuqur nafas olishni boshlang va sekin-asta og‘zingizdan chiqaring, to‘planib qolgan zo‘riqish, charchoqni ichki bo‘shash holatiga yetmaguningizga qadar nafas chiqarishni davom ettiring.

2-jarayon. Refleksiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar.

### **Avtportret**

Mashq maqsadi: notanish shaxsni aniqlay bilish ko‘nikmalarini shakllantirish, boshqa odamlarni turli jihatlariga ko‘ra ta’riflash mahoratini rivojlantirish.

Tasavvur qiling, siz begona kishi bilan tanishishingiz zarur, va u sizni bilib olishi lozim. o‘zingizni ta’riflab bering. Sizni ommadan ajratib turuvchi jihatlarni toping. O‘z tashqi ko‘rinishingizni, yurishingiz, gapirish ohangingiz, kiyinishingizni tasvirlab bering; balki sizga e’tiborni o‘ziga jalg qiluvchi imo-ishora va harakatlar xosdir. Ish juftliklarda amalga oshiriladi. Sheriklardan birining chiqishi davomida ikkinchisi “avtoportret” yanada to‘liqroq bo‘lishi uchun aniqlashtiruvchi savollar berishi mumkin. Juftliklarda muhokama qilish uchun 15-20 daqiqa ajratiladi. Vazifaning yakunida ishtirokchilar doira bo‘ylab o‘tiradilar va o‘z taassurotlari bilan o‘rtoqlashadilar.

### **Niqobsiz**

Mashq maqsadi: - hissiy va xulqqa oid tobekni bartaraf qilish; - “men”ning mohiyatini tahlil qilishda samimiyl mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini shakllantirish. Har bir ishtirokchiga oxiriga yetkazilmagan ibora yozilgan kartochka beriladi. U hyech bir tayyorgarliksiz iborani davom ettirishi va yakunlashi zarur. Mulohaza samimiyl bo‘lishi zarur. Agar guruhning boshqa ishtirokchilari soxtalikni sezib qolsalar, ishtirokchiga yana bir kartochka keladi.

Kartochkalarning taxminiy mazmuni:

“Mening atrofimdagи kishilar .....menga ayniqsa yoqadi”

“Ba’zan men haqiqatan ham istaydigan narsa, bu.....”

“Ba’zan odamlar meni tushunmaydilar, chunki men.....”

“Ishonamanki, men.....”

“Men.....da, o‘zim ham juda uyalaman”

“Men.....ligim meni g‘azablantiradi” va h.k.

### **Ha**

Mashq maqsadi: - refleksiya ko‘nikmalarini takomillashtirish. Guruh juftliklarga ajratiladi. Ishtirokchilardan biri o‘z holatini aks ettiruvchi kayfiyat yoki hissiyotlarni ifodalovchi ibora aytadi. Bundan so‘ng ikkinchisi unga tafsilotlarni aniqlash va oydinlashtirish imkonini beruvchi savollar bilan murojaat qiladi. Masalan, “Qiziq, biroq sezishimcha, men shunday holatda bo‘lganimda mening kiyimlarim rangi taxminan bir xil bo‘ladi”. Agar ishtirokchi o‘z savollariga uch marotaba tasdiqlovchi “ha” javobini olsa, mashq bajarilgan hisoblanadi.

## Karusel

Mashq maqsadi: - muloqotga kirishishda tezkor sur'atda javob berish ko'nikmalarini shakllantirish; - ta'lim jarayonida empatiya va refleksiyani rivojlantirish. Mashq davomida qator mashqlar amalga oshiriladi, va har safar yangi odam bilan. Vazifa: muloqotga oson kirishish, suhabatni qo'llab turish va xayrlashish. Guruh a'zolari "karusel" shaklida, ya'ni bir-birlariga qaragan holda va ikkita doira hosil qilgan holda turib oladilar: ichki doira qo'zg'almas, tashqi doira esa harakatlanadi. Vaziyatlarga misollar:

- qarshingizda siz yaxshi bilgan, yoki uzoq vaqt ko'rsagan inson turibdi. Siz ushbu uchrashuvdan xursandsiz...
- qarshingizda notanish kishi. U bilan tanishing...
- Qarshingizda kichkina bola, u nimadandir qo'rqib ketgan. Uning yoniga boring va uni tinchlantiring...
- Uzoq davom etgan ayriliqdan so'ng sevgan kishingizni uchratasiz, siz uchrashuvdan quvonib ketdingiz...

Muloqot o'rnatish va suhabat qurish uchun beriladigan vaqt 3-4 daqiqa. So'ngra boshlovchi ishora beradi, va trening ishtirokchilari keyingi ishtirokchi tomon suriladi.

Fazilat(xislat)lar.

Mashq maqsadi: ishtirokchilarda o'zini nisbatan obyektiv baholash xususiyatini hosil qilishni shakllantirish. Har bir ishtiroki o'zining 10ta ijobiy va 10ta salbiy xislatlarini yozib chiqishi, so'ngra ularni tartib bilan yozib chiqishi lozim. birinchi va oxirgi turgan xususiyatlarga e'tibor qaratish zarur.

## Men qaysi pillapoyadaman?

Mashq maqsadi: ishtirokchilarga o'zini to'g'ri baholashda yordam ko'rsatish. Ishtirokchilarga 10ta pillapoyadan iborat bo'lgan zina chizilgan so'rov qog'izi tarqatiladi. Quyidagi ko'rsatma beriladi: "O'z suratingizni hozir shu pillapoyani egallab turibman, deb hisoblagan pillapoyaga chizing".

Barcha ishtirokchilar chizib bo'lganlaridan so'ng boshlovchi ushbu metodikaning kaliti(yechimi)ni e'lon qiladi.

1-4 pillapoya – o'ziga past baho berish;

5-7 pillapoya – o'ziga to'g'ri baho berish;

8-10 pillapoya – o'ziga ortiqcha baho berish.

"Men qanday bo'lsam, shundayman" loyiha surat.

Mashq maqsadi: ishtirokchilarda o'zini nisbatan obyektiv ravishda baholashni ishlab chiqishga ko'maklashish.

Ishtirokchilar o‘zlarini chizadilar, biroq buni hyech kim ko‘rmaydi. So‘ngra ushbu rasmlar aralashtirib yuboriladi. Har bir rasm bo‘yicha fikrlar almashiladi.

### **Uchta ism**

Mashq maqsadi – shaxsiy refleksiyani rivojlantirish; - o‘z-o‘zini anglash dasturlarini shakllantirish.

Har bir ishtirokchiga uchta kartochka beriladi. Kartochkalarda o‘z ismining uch ko‘rinishini yozish zarur (masalan, sizni qarindoshlaringiz, hamkasblaringiz va yaqin do‘stlaringiz qanday chaqiradilar). So‘ngra guruhnинг har bir ishtirokchisi ushbu ismlarni aytgan hamda o‘z tabiatining ushbu ismga mos bo‘lgan, hattoki ushbu ismning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan tomonini izohlagan holda o‘zini tanishtiradi.

3-jarayon. “Shu yerda va hozir” refleksiyasi.

Vazifasi:

- Refleksiya ko‘nikmasini qayta ishslash;
- O‘z ishini baholash.

1. Boshlovchi har bir ishtirokchiga o‘zi va guruh bilan sodir bo‘layotganlar haqidagi tasavvurini so‘zlab berishni taklif qiladi. Buni har qanday shaklda, verbal, noverbal tarzda, qog‘ozga chizilgan surat va boshqalar ko‘rinishida amalga oshirish mumkin.

2. Guruh ishtirokchilarining har biri yetti balli shkalaga ko‘ra o‘z charchog‘ini, faolligini va sodir bo‘layotganlarga nisbatan qiziqishini baholaydi.

3. Guruh ishtirokchilarining har biri o‘z fikr va istaklarini izhor qiladilar.

### **“Daraxt” obrazli-refleksiv jarayon**

1) Trener ishtirokchilarga qandaydir bir daraxtni tasavvur qilishni taklif qiladi, va so‘ngra savollar berishni boshlaydi: Bu qanday daraxt? U qayerda o‘sadi? U baland daraxtmi yoki yo‘qmi? Qaysi fasl? Kunmi yoki tunmi? Hidlar, tovushlar, hissiyotlar?

2) Ishtirokchilarning har biri o‘z daraxtini tasavvur qilib bo‘lganlaridan so‘ng, trener har bir ishtirokchi o‘z daraxtlari yoniga kelishini, uning tanasini qo‘li bilan silashini, uni quchoqlashini va ... uning ichiga kirib, ushbu daraxtga aylanishlarini his qilishlari va idrok qilishlarini taklif qiladi. Daraxt bo‘lish qanday ekan? Har bir ishtirokchi ushbu rolda nimani va qanday his qilyapti? Ildizlari yerga chuqr kiranmi? Shox-shabbalari, barglari qalinmi? Daraxt baquvvatmi? Uni

yomg'ir yuvyaptimi? Quyosh uni isityaptimi? Yer unga tayanch nuqtasini beryaptimi?

3) Ishtirokchilar mashqni yakunlaganlaridan so'ng guruhda vizuallashtirish natijalarini muhokama qilish darkor.

“O‘zingga ism taqdim qil” obrazli-refleksiv mashq.

Maqsad: har bir ishtirokchi tomonidan hissiy manbaga ega bo‘lgan holatga erishish.

1) Trener ishtirokchilarga qulay o‘rnashib olishni, ko‘zlarini yumishni va o‘zlarini bo‘sh qo‘yishlarini taklif qiladi.

2) Trener ishtirokchilarga deydi: “Siz o‘zingizni dadil (muvaqqiyatga erishgan, omadli, maqsadga erishgan va hokazo) his qilgan aniq voqyeani eslang. Eslang: ushbu voqyea qachon va qayerda sodir bo‘lgan. O‘zingizning o‘scha vaqtdagi hissiyotlaringizni yodga oling. Ushbu voqyeani yana bir bor yashab o‘ting”.

3) Vazifani bajarish yetarlicha bo‘lgan vaqt (5-7 daqiqa) o‘tganidan so‘ng trener guruh ishtirokchilariga individual vizuallashtirish natijalarini muhokama qilishni taklif etadi.

4) Har bir ishtirokchi guruhga o‘z tasavvurida ko‘rgan va his qilgananiq hodisani o‘zining ijobiy hissiyotlari (o‘ziga ishonch, muvaqqiyat, omad va h.k.) refleksiya manbaini majburiy ravishda gapirib beradi.

5) Hikoya tugaganidan so‘ng trener har bir ishtirokchiga guruh yordamida yangi ism o‘ylab topadi. Bu ismda hissiy manbaga oid holatga ega bo‘lishning asosiy mohiyati aks ettirilishi zarur: “Men ... (buni va mana buni qiluvchi)” yoki “Men (buni va buni qilayotganimda) ... o‘zimga ishonaman”.

Guruhda muhokama qilish (zarurat tug‘ilganda).

“Bu yerda va endi” refleskiyasi” jarayoni.

Vazifasi:

- refleksiya jarayoni mohiyati bilan tanishuv;
- refleksiya ko‘nikmasini o‘rganib chiqish.

Izoh: 3-jarayon uchrashuvning boshi va oxirida qo‘llash maqbul bo‘lgan jarayonlardan biridir.

1. Boshlovchi har bir ishtirokchiga o‘zi va guruh bilan yuz beryotganlar haqidagi o‘z tasavvurlarini ifodalashni taklif etadi. Buni har qanday shaklda – verbal, noverbal, qog‘ozda chizilgan rasm yordamida ifodalashi mumkin.

2. Ishtirokchilarning har biri yetti balli shkala bo‘yicha o‘zining chaganlik darajasini, faolligini va sodir bo‘layotganlarga qiziqishlarini baholashi lozim.

3. Jarayon amalga oshirilganidan so‘ng boshlovchi refleksiv ishning asosiy tushunchalarini taqdim qiladi.

**Z.Sh.Qarshiyeva**

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA REFLEKSIV POZITSIYANI  
RIVOJLANTIRISH**

**Monografiya**

Muharrir: G.Rahimova  
Musahhih: D.G‘aybullayeva  
Tex.muharrir: H.Amirdinov

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti,  
140104, Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93.

ISBN 978-9943-9518-9-1

Nashriyot tasdiqnomasi:  
№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosishga ruxsat etildi: 24.02.2023 yil.  
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.  
“Times New Roman ” garniturasi. Ofset bosma usuli.  
Hisob nashriyot t.: 6,0. Shartli b.t.: 5,1.  
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma № 124.

---

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti.  
Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy.